

Birinchi Kitob - Dengiz Tubi, Sahro Qa'rida

Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,

Istayur tashqarida mohni. Tashqari ichkariga kirmoq istayur, Istayur ichkarida Allohn...Ikrom Otamurod

Zuhra Yerda nurga zor,

Osmondaman deb o'ylamang...Zuhra Aliyeva

Muqaddima

Bomdod payti. Ilki mahalla naridagi masjid tomondan azon elas-elas eshitilib, ruhim allanechuk mahzun tortgan va bunga zid har tongda bo'lganidek, parvoziana boshlagan bir dam edi.

Deraza oldida turib, to'rt qavatl bino tomidan balandroqqa bo'y cho'zgan ko'm-ko'k daraxtlarga tikilganimcha, nimaligini o'zim ham aniq aytolmaydigan, hayotga doxil uzuq-yuluq gaplarni xayoldan kechirayotgan edim.

Dunyoda odam borki, o'zini olijanob deb o'ylaydi. Birov mabodo men yomonman, men tubanman, degan taqdirda ham, bilingki, bu noz-firoqdan boshqa narsa emas. Aytgan gapiga o'zi ishtiboh bilan qaraydi. Tarix bo'y shunday bo'lib kelgan.

Umuman, odamlar hayotlarida bo'lgan xatolar, gunohlarni tan olmaslikka moyil. Xudo yo'liqtirmas, lekin agar tasodifan duch kelsangiz suhbatlashib ko'ring, hattoki pixini yorgan jinoyatchi ham oqlanishga harakat qiladi. Mening gunohim yo'q, kutilmaganda shunaqa bo'lib qoldi, deydi. U ba'zan tarbiya yetishmagani, ba'zan sharoit nobop ekanligidan qabihlikka borgandek taassurot uyg'onadi. Ko'pincha tergovchi uning aybini bo'yniga qo'ygunicha terlab ketadi.

Goho bunday babs chiqadi. Odamlarning necha foizi dono, ezgu, saxiy? Necha foizi aksincha, nodon, yovuz, manfaatparast?

Albatta, buni hech kim hisoblab ko'rmagan. Hisoblab bo'lmaydi ham! Bir tomondan, biz ko'rkan deb bilgan kishida yetarlicha qusurlar bor. Xunuk atalgan kishida esa ulug'vorlik uchqunlari topiladi. Ikkinci tomondan, bir yo'lida ketayotgan odamlarni qanday qilib вЂњsarap-puchakвЂќ ajratasan? Biz kim bo'libmiz, buni dunyodagi ulug' hakamlar ham bajarolmagan... Ammo O'zuvchi doim murakkab bu jarayonga вЂњsho'ng'ishbвЂќga urinadi. Xudo kechirsin, U Zot yaratgan bandalarga вЂњshakl-shamoyilвЂќ bergisi keladi. Bu balki, dunyoni anglashga urinish nishonasidir?!

Deraza oldida turib, shularni o'ylaganimcha, bir insonning yaqin o'tmishdagi qismati yodimga tushdi.

### Birinchi Qism - Fillar Hayoti

1

Suratlardan birida parparak. Osmonda charx urayapti. Uning chang'ini eslatgan ost temiriga mushukka o'xshab fil bolasi zanjir bilan bog'langan.

Ikkinci suratda sahromi, allaqanday taqir yer. Bu surat parparakdan turib olingan bo'lsa kerak, biri-birining pinjiga kirib, chumolidek g'imirlab yotgan to'da fillar.

Yashaydigan, o'tlaydigan joyi qolmaganidan, yigirma oltita fil bolasini (dastlabki surat) qaysidir qo'riqxonaga ko'chirib, boshqa ikki yuzga yaqin filni (suratga tushirgandan keyin) otib tashlashgan ekan...

\* \* \*

- Marva! Sizni!

Telefon qachon jiringladi? U sezmagani edi.

Kitobdan boshini ko'tarib gangib qaradi.

Qabulxonada ular ikki kishi ro'para ikki stolni egallahashgan. Hazrat degan yigit boshliqning yordamchisi; u - kotiba.

Uning ismi - Marvarid. Lekin barcha Marva deyishar, bunga o'zi ham odatlanib qolgan edi.

O'nidan turib, Hazratning qo'lidan dastakni olganicha, o'ychan muloyimlik bilan:

- Labbay, - dedi.

- Salom alaykum. Yaxshimisiz, Marvajon?! Tinchnisiz??

- Yaxshi. O'zingiz... - dedi Marvarid bir oz hayajonlangan, shuning barobarida, taraddudlanib-tashvishlangan ko'yda.

Hozir Ibrohimning qo'ng'iroy qilishini u xayoliga keltirmagan edi.

Bular ikki yildan buyon tanish. Haftada bir - juma kunlari ko'rishib turishadi. Bu - Marvarid uchun bayram edi! Hafta bo'yish shu kunni poylar, keyin soat sanab, kech kirishini kutar, kech kirkach, yo'lning narigi betidagi bekatga qarab yugurar edi.

U bugun ham soat sanayotgan edi.

- Bir qoshiq qonimdan kechasiz, Marvajon! Bugun borolmaydiganga o'xshayman. Reja buzildi...

Marvarid bolaikdagи dugonalarini yo'qotgan, ulardan uzoqlashib ketgan edi. Keyinchalik topgan yaqin dugonasi yo'q hisobi!

Yigitlardan ham do'sti yo'q edi. Umuman, hayotda ko'pchilik bilan uning munosabati umri - qisqa bo'lgan edi!

Ibrohim ajoyib yigit! Uning boshqa belgilardan tashqari, hammadan burun bir xislati Marvaridga yoqardi. Ayrim yigitlardek u qiz bilan tanishgach, tezda вЂњqo'liga erkвЂќ bermagan, hamonki erk bermas edi. Ehtimol, shu boisdan, Ibrohimga Marvarid

ishongan, o'rgana boshlagan edi. Ibrohim uni yoqtiradimi? Nega ko'rishib yuribdi? Maqsadi nima? - Marvarid bilmasdi. O'zi-chi?!

Ko'ngli qanday? Bu yigit bilan qaysi ko'chaga kirib, qayergacha bormoqchi?! - bu ham unga qorong'i edi. Bular to'g'risida

o'yplashdan - Marvarid qochar, o'yplashga qo'rqardi. Chunki butun dunyoda uning Ibrohimdan boshqa kishisi yo'q.

Ibrohimning kela olmasligi sababi jiddiyimi? Balki, biron korhol ro'y bergandir?! So'rash kerakdir? Ammo Marvarid parishonlanib, nafas yutib turardi.

- Eski og'aynilar qo'yishmayapti. Davra ekan! - deb so'zini davom ettirdi Ibrohim. - Qo'lga tushib qoldim. Xafa bo'lisyapti.

Marvarid masalaga tushungan edi.

Ortiqcha chaynalmadi.

- Demak, keyin...

- Keyin. Lekin men sizni ko'rishim kerak. Dushanbami yoki seshanba!

- Mayli, - dedi Marvarid.

U dastakni ilib, qaytib o'z o'rniga o'tdi.

Ikki yil ichida ular bir marta ko'risholmasligi dunyoning to'ntarilishi emas! Shunga shunchami?! - u iztirob chekishiga arzimaydi! Ibrohim ko'rsatgan sababni Marvarid bahona, deb shubha bilan ham qaramaydi. Ibrohimning o'ziga ishonganidek, har bir so'ziga ishonadi! Ayniqsa, Marvarid Ibrohimni og'aynilaridan rashk qilib, uning erkini bo'g'ishni istamaydi. Umuman... bu kun reja buzilganini aytmaganda, ular har qachongidek gaplashishgan, hamma narsa oddiy, tabiiy edi.

Biroq Marvarid o'z o'rnnini egallagach, avvaliga bir oz faromushlik tuydi. Yuziga kimdir tarsaki tortgan boladek holatni sezdi.

Ko'p o'tmay payqadi:

ko'ngli notinch, g'ash edi.

Yuragiga g'ulg'ula tushgan edi.

U nogoh esladi:

вЂњEski og'aynilarbЂ - Ibrohim bir payt ishlagan idora xizmatchilari!

Ular to'g'risida, ishdan ketgan kunlari to'g'risida Ibrohim odatda, nohush-asabiy so'zlar edi.

Marvarid hozir shart o'rnidan turib Ibrohimga qo'ng'iroq qilish, unga men bilan ko'rismang, bo'pti, lekin ularning yoniga ham bormang, deyishni o'yldi.

Yo'q, o'tirgan o'rnidan qimir etmadni.

Sal hurkib, sarosimalanib hamxonasi tomon ko'z tashladi.

Hazrat ilk qarashda oliyjanob inson! Xushsuhbat, bilimli.

Ammo ishxonadagi odamki bor, u barchasining hayotini ipidan ignasigacha aniqlab-xabardor bo'lib yurgisi keladi.

Buning ustiga, Hazrat boshliqqa haddan tashqari fidoyi. Jonini tikkak. Xizmatchilar haqida bu yigit hoynahoy, boshliqqa axborot ham berib tursa kerak!

Marvarid u bilan emin-erkin gaplashadi. Hasratlashadi. Apoq-chapoq! Lekin ko'nglida uni yoqtirmaydi. Unga ishonmaydi.

Qismat ekan...

Marvaridning hayotida yorug' sahifadan qorong'i sahifa ko'p! Avvaldan shunday.

Bu zulmatga u aksar, kimmingdir nazar tashlashidan xavf-xavotirda yashaydi.

Mabodo kimdir undan hayoti to'g'risida so'rasa, u gapni tez boshqa yoqqa buradi. Ko'madi. Ko'zlarini olib qochish barobarida, qo'llari, oyoqlarini ham negadir yashirishga urinayotgani, taniga titroq tushib, buni zo'r berib yengishga harakat qilayotganini sezadi. Uni ter bosadi.

Marvarid shu bois, boshqalardan ham ko'proq Hazratdan hayiqadi.

U hozir Ibrohim bilan gaplashib, ko'nglidagi dardlarini Hazratning oldida izhor etolmas, buni istamas edi!

O'zini beparvo tutgan bo'lib, yana qo'lidagi kitobni ko'zdan kechira boshladi.

O'shlikdan Marvarid, har xil safarnomalar, sarguzashtlarga qiziqrar, asosan tarixga, jug'rofiyaga tegishli kitoblarni o'qir edi. Tabiat olamiga bag'ishlanib, rangin suratlar bosilgan kitoblar uni ayniqsa qiziqtirardi. Ba'zan idorada ham o'qib o'tirar edi.

Ana, u kitobga muk tushgan; biroq endi fillar hayoti aks etgan qaysi suratga tikilib, qanday yozuvlarni ko'zdan kechirayotganini o'zi ham sezmayotgan edi.

Shu kuni ishxonada boshliq yo'q edi. Atrof tumanlarni aylangani ketgan. Qabulxona jimjit edi.

Tush payti yaqinlashgan.

Axiyri...

telefonni qo'riqlab, soyadek qadalib o'tirgan Hazrat o'rnidan qo'zg'alib, choy ichgani eshikka yo'naldi.

Marvarid shoshganicha, telefon yoniga bordi. Nafasi bo'g'ziga tiqilib, raqam tera boshladi.

Besh daqqa...

o'n...

yigirma...

o'ttiz...

Natija bo'lindi!

Keyin:

- Allo. Menga Ibrohim aka kerak!

- Qanaqa Ibrohim?! Adashdingiz.

- Allo. Menga Ibrohim...

- Dunyoda Ibrohimdan ko'pi bormi?! Qiziq odam ekansiz.

- Allo. Menga...

- Qo'ysangiz-chi! Boshqa ishingiz yo'q shekilli, singlim.

- Allo...

- Hadeb qo'ng'iroq qilishaveradi!

Bardoshi tugab, dam sayin yuragi yonayotgan Marvarid telefonni ham, qabulxonani ham qoldirib, yugurbanicha ko'chaga chiqdi.

вЂњXudoyim! Bu yog'i nima bo'ladi?вЂќ

To'g'riga qarab yurdi.

Ketdi.

Ketdi.

Nihoyat, yalang-bepoyon bir o'tloqzorga borib qoldi.

Nazarida, Ibrohim shu atrofda yurgandek edi...

2

Ibrohim hali bu yerga yetib kelmagan edi!

Bu kun u ne savdolarga yo'liqayotganidan bexabar.

вЂњEski og'aynilarbЂ bilan ba'zan ko'cha-ko'yda, ba'zan ma'raka-to'yda ko'rishardi. Lekin ming yildan buyon ular bilan bir davrada o'tirib, osh-qatiq bo'limgan edi.

Ming yil burun Ibrohim вЂњIqtisod va siyosatвЂ degan idoraga ishga kirgan, bu yerda Bosh Rahbar bilan tezda uning orasi buzilgan edi.

Bosh Rahbar - G'ayrat Nusrat ma'lum obro'ga, mavqega ega kishi edi. U onadan tug'ilganiyu og'zidagi so'rg'ichni tashlagan kunlardan boshlab davra to'rida o'tirish, xonlar, beklarga o'xshab odamlar ustidan hukmronlik qilishga, ularni o'zi istagan tomonga yetaklab, istamagan tomondan qayririb olishga odatlangan edi! Bunday toifa ayvonchali shapka, sariq kitel kiygan rahbarlar to'g'risida goho qo'rquv aralash holatda fe'l i og'ir, muomalasi dag'alroq, ammo ishning ko'zini biladi, o'zi yaxshi odam, deyishadi. Ayrimlar mehrlari toshib, hatto iyib, dingga aloqasiz bir tarzda iymonli odam, deb ham qo'yishadi. Shuhratparast, mansabparast,

dabdaba-as'asaga berilib, o'zini salkam - nauzambilloh! - xudo deb bilgan bu taxlit fir'avnlarda iymon вЂњnoma'qulбЂќ qiladimi?

! U masjid qursa ham, to'g'ri do'zaxga kirib ketaveradi!

G'ayrat Nusrat, qisqasi, xalq, deb ayyuhannos solgani ko'yda, xalqni oyoq uchida ko'rsatar, idorada, yurgan yo'lida вЂњJalabni bolasi, enangni! Zang'ar. QizitaloqвЂќ deb hammani so'kib ham ketaverardi. Bu yerda odamlar, yoqimli bir so'zni eshitgandek, qo'l qovushtirib turaverishardi. Shunga o'rganib qolishgan edi! Insof yuzasidan aytganda...

Ahyon-ahyonda bo'lса-da, kimdir majlisda minbarga chiqib, G'ayrat Nusratni chimchilab qo'ygandek, oz-moz tanqid qilgan paytalar ham uchrar edi. G'ayrat Nusrat вЂњtanqidchiвЂќ ertasi kuniyoq huzuriga tutib keltirib, mansabi yoki oyligini ko'tarardi. Tinch yur, o'zing o'tirgan shoxga bolta urma, derdi. Tanqid qanchalik odamlarga yoqsa, u shunchalik narxni yuqori belgilardi. Shu boisdan, ahyon-ahyon bo'lса-da, baqirib-chaqirib majlisni вЂњgullatadiganвЂќ topilib turardi. (Bir gal qaysidir xizmatchi minbarga chiqib, kim haqda, nima deyayotganini o'zi ham bilmay, qo'lini oldinga cho'zgancha вЂњmurtadlarвЂќ deb hayqirgan edi).

Ammo majlis bo'lмаган одатдаги кунлар hamma oftobda qovjiragan gulga aylanardi.

Birov miq etmaydi.

Odamlar og'ziga suv olgan.

Talqon solgan.

Allabir xorijiy filCHњmda boshliq yechin desa shappa yechina boshlagan idora xodimini ko'rsatishgan edi! Bu idorada ham xizmatchilar g'urur yoki nomus to'g'risida o'ylamaydigan bo'lib ketishgan edi.

Ibrohim o'yin shartini qabul qilmagan edi.

U G'ayrat Nusratga qul bo'lishni istamadi.

Na haqoratga chidadi, na himmatga qaradi.

Ibrohim - dushman edi!

G'ayrat Nusrat Ibrohimni yo'qotish payiga tushdi.

Undan ayb qidira boshladi.

Qidirgan - topadi!

U xo'jalar avlodidan, mullaning o'g'li ekanligini aniqladi.

Uni ishdan bo'shatib yubordi.

Ibrohim G'ayrat Nusrat kutganidek boshqa bir idoraga ishga kirmadi. Qaysi idorada ishlasa ham, G'ayrat Nusratning uzun qo'li giribonidan tutaverishini his etdi. Buning ustiga вЂњeskilik tarafдоривЂќ degan tamg'a uning manglayiga bositgan edi. Shahardagi zavodlardan biriga borib, mehnat kishilari orasidan joy oldi. Oliy ma'lumothi ekanligini unutdi. Ziyoli xizmatchidan qora ishchiga aylandi.

U padaringga la'nat, deb G'ayrat Nusratni unutib ketaversa, shu bilan olam guliston, bu voqeа balki tugar, tinchib ketar edi!

Biroq...

Ibrohim dardini ichiga yutolmadi.

Ikki kishi qilich ko'tarib maydonga chiqqan;

Ibrohimning qilichi sinib, G'ayrat Nusrat g'olib kelgan edi.

U endi Ibrohimming ustidan qah-qah otib kulmoqda edi!

Ibrohim bunga chidayolmadi.

U - yosh yigit edi. Nomusli edi. G'ururli edi.

G'ayrat Nusratni yanchib-toptab, shoirlar aytmoqchi вЂњmen hali o'lganim yo'q!вЂќ yoki вЂњtirkman hamon!вЂќ deyishga shahdlandi.

Keyinchalik u o'z ishidan pushaymon bo'ldi. Bolalik qildim, ehtirosga berildim, johil bir kimsaga tenglashish shart emasdi, qolaversa, zamon shu bezbetlar, yovuzlar zamoni, deb o'yladi. Lekin o'shanda o'zini to'xtatib turolmadi. Sho'ro siyosatini ko'nglida ko'p ham qo'llamagani holda, o'zi вЂњsho'rochabвЂќ ish qildi.

Ikki-uch kun erinmay mashinka chiqillatdi:

G'ayrat Nusrat - cho'chqa

G'ayrat Nusrat - cho'chqa

G'ayrat Nusrat - cho'chqa...

Keyin bir kuni saharlab tanish idoraga bordi.

Qorovulni gapga solib chalg'itdi. Ko'cha eshikdan G'ayrat Nusratning xonasi eshigigacha, zina tutqichidan devorlargacha - hammayoqqa qog'oz yelimladi.

Idorada o'sha kuni bo'ldi to'polon!

O'zuvga ko'zi tushmagan zot qolmagan edi.

G'ayrat Nusrat shu kundan e'tiboran вЂњcho'chqabвЂќ laqabini oldi. Bu nom unga yopishdi-qoldi.

U Ibrohimdan intiqom olishi kerak edi.

Ibrohim - dushman edi!

Ammo G'ayrat Nusrat o'zini loqayd-beparvo tutdi.

Yengilganiga iqror bo'ldimi?

Qolaversa, oddiy ishdagi odamga nima deydi?

Aftidan, ular orasidagi munosabatni eshitgan-eshitmaganga gap tushuntirib, el ichida badtar sharmandai sharmisor, doston bo'lishdan qo'rqi ham!

Ular qaytib yuzma-yuz kelishmadi.

Ibrohim G'ayrat Nusratga uni varanglatib otgani miltiq yetishmayotganini bilardi!

Shunga qaramay, ana, oylar, yillar o'tib, u ro'y bergan bu voqeani unuta boshlagan edi. O'z ishini qilib, o'z tirikchilagini ko'rib yurar edi. Osoyishtalangan edi! Sovigan edi!

Darvoqe...

Eslashga ham arzimaydigan bir holat:  
 O'tgan yilmidi, oldingi yilmi?!

Ibrohim o'zi ishlagan zavoddan kechki payt ko'chaga chiqqan edi.  
 Uzun xiyobon. Besh yuz qadamcha yuriladi. Keyin, bekat.  
 Avtobusga minib, uyga jo'naydi.

Uning qarshisida bexos olacha to'nga o'rangan yigit qomat tikladi:  
 - Chilim!

Uning yonida shu payt, daraxtzorda yana ikki yigit ko'rindi. Ibrohim ularga ahamiyat bermay, chontagidan tamaki chiqardi.

- Yaxshisidan! - dedi olacha to'nli yigit.
- Yaxshisiga pul yo'q. Yetishmaydi! - dedi Ibrohim.

Obbo!

Biqiniga qattiq bir narsa sanchildi. Dumog'iga qo'lansa hid urildi.  
 Kech kirib, endigina chiroqlar yona boshlagan. Lekin ko'chada odam ko'rinnmaydi.  
 Bularning unga nima qasdi bor? Nega uch tomondan uni qurshab turishibdi?  
 U orqaga qarab qochishini kutishayabdimi yoki вЂњшвЂќ deb og'iz ochishinimi?  
 Ibrohim lahma ichida qanday bo'lmasin, yo'lni to'sganlarning niyati bad ekanligini his etdi va lahma ichida, huv ro'parada, daraxt panasida yana kimdir berkinib turganini payqdadi. Bu вЂњшвЂќ deganning qaysidir belgilari tanish, ammo kim ekanini aniq bilib bo'lmayotgan edi! Ibrohim shu asnoda G'ayrat Nusratni esladi. Bosh Rahbarning shotirlaridan birontasi xizmat qilgisi kelganmikan?

U endi g'azablandi.  
 Unga g'azab kuch bag'ishladi.

Qo'lidagi tamakini indamay qaytib chontagiga soldi. Keyin, ko'cha ko'rgan, ko'chaga xos lisonni bilgan yigit ekanligidan, bezorilarni birinchi navbatda gangitib, sal orqaga chekintirish uchun imkonli boricha qattiq hushtak chaldi.  
 Shu pallada - xudoning qudrati! - uning o'zi ham kutmagan bir holda, xiyobonning ikki to'p kishi baland tovushda gapirib, kela boshlashdi. Yo'lni to'sgan yigitlar hushtak izidan yopirilgan olomonni ko'rib, nima bo'layotganiga ham aqlari yetmay, duch kelgan tomonga ura qochishdi. Ajinadek zumda g'oyib bo'lischdi...

Ibrohim bu holatni ba'zan shunchaki kulib eslardi, xolos.  
 U - oradan, ana, oylar, yillar o'tib, yana вЂњшвЂќ og'aynilarвЂќ bilan bir davrada o'tirishi, qaytib ularga yaqinlashgandek ish tutishining albatta, hech hojati yo'q edi! Munosabat buni taqozo etmasdi. Davraga uning ko'zi uchayotgan ham emasdi. Sharoit shunday bo'lib qoldi! Ibrohim bosh burolmadi!  
 Ibrohimning вЂњшвЂќ og'aynilarвЂќ:

Kabir Hoji  
 Shodi Tursun  
 Bo'tavoy Nodir  
 Akmal Rashid  
 degan yigitlar edi.

Ibrohim askarlikda yurib, o'qishga kechroq kirgan edi.  
 Takdir taqozosi! - unga tengdosh, lekin o'qishni ana-mana bitiradigan bu yigitlar bilan u ma'lum muddat ijara kulbada birga turgan, o'shanda qadrondonlik munosabati tug'ilgan, bu munosabat bilim dargohini tugatgandan keyin ham ular o'rtasida saqlangandek edi.  
 Ibrohimni bir yili вЂњшвЂќ Iqtisod va siyosatвЂќ idorasiga ishga joylashtirib qo'ygan ham shu yigitlar edi. U qanday muomalada bo'lmasin, bular doim unga nisbatan o'zlarini oldindan o'rtoq, do'stdek tutishgan, harholda shunga harakat qilishgan edi. Ibrohim G'ayrat Nusrat bilan yovlashib, nihoyat ishdan ketgach, bu yigitlardan hech kim uni qiyab, undan gap so'ramagan, unga ortiqcha biron narsa ham demagan edi. Ko'cha-ko'yumi, ma'raka-to'yda uchrashib qolganda hamon вЂњшвЂќ og'aynilarвЂќ hol-ahvol so'rashib, jilmaygancha o'tib ketishar, faqat ko'p yillik qadrondonlik barobarida, endi orada qandaydir вЂњшвЂќ masofabвЂќ hol-ahvol namoyishda yurishar edi. Buni sezgan Ibrohim esa so'nggi paytlarda bular bilan yaqinlikni orzu ham qilmayotgan edi...  
 Bu kun ertalab dabdurustdan Shodi bilan Bo'tavoy u ishlagan zavod eshigiga kelib qolishdi.

Ular:  
 вЂњшвЂќ Sen do'stlikni bilasanmi? Qanaqa odamsan o'zi? Odam ham shunaqa yovvoyi bo'ladi? вЂќ deyishdi.  
 Yana ular:

вЂњшвЂќ Kabir Hoji egizak farzand ko'rgan. O'zining ham tug'ilgan kuni! Begona odam bo'lmaydi. Yaqin o'rtoqlar to'planyapmiz. Seni alohida aytib, bizni yubordi! вЂќ deyishdi.

Yana:  
 вЂњшвЂќ Kechqurun choyxonaga borasan. Kutamiz... Bormasang, o'zingga tan! Minba'd kechirasani, deb ketaveramiz! вЂќ deyishdi.  
 Ibrohim faromushlandi.

U:  
 вЂњшвЂќ Men G'ayrat Nusratga dushman bo'lismim mumkin! Bu yigitlarda gunoh nima? вЂќ deb o'yladi.  
 Yana u:

вЂњшвЂќ Dunyoda odamlardan ajralib, qochib yashab bo'ladi? Odamlar orasida tanho! - kulgili... Bu bilan maqtanish bema'nilik, albatta! вЂќ deb o'yladi.

Yana:  
 вЂњшвЂќ Bular G'ayrat Nusrat darajasida bo'lmasa hamki, mavqe egallagan, obro'-e'tibor qozongan kishilar:

Kabir Hoji - taniqli yozuvchi.  
 Shodi Tursun - taniqli olim.  
 Bo'tavoy Nodir - taniqli rejissyor.  
 Akmal Rashid - taniqli hakam.

Seni birov hurmat qilganida, bosh burish manmanlikka o'xshab qolmaydimi? вЂќ deb o'yladi.

Ibrohim ezildi.

Noilojlik sezdi.

Va'da berishga majbur bo'ldi.

Mana, kechga tomon ishdan chiqib, shahar etagidagi choyxonaga qarab yo'lga ham tushdi.

Insonni yurak aldamaydi. Aldasa, aql aldaydi.

Uning o'z xatti-harakatidan yuragi to'lmayotgan; yo'lda oyog'i tortmay borayotgan edi.

Buni u - og'aynilaridan begonalashgani oqibati deb tushundi.

Buni u - yotsirash, qisinish, deb tushundi.

Buni u - Marvarid bilan bugun ko'risholmagani uchun o'kinch, deb ham tushundi.

Ibrohim o'zi-o'zini aldamoqda edi.

\* \* \*

Shahar etagidagi choyxona sharqirab oqan daryo ustida.

Atrof baland-past tepalik. Uzoqdan qishloq uylari ko'zga tashlanadi.

Davra - jami o'ttizga yaqin kishi - allaqachon to'plangan.

Ayimlar b'Tiyoqzon boshidayoqb'Tó ichib ham olishgan bo'lsa kerak, hali dasturxon tegrasida o'tirishmaganiga qaramay, ko'pchilik xushchaqchaq edi.

b'Tiyoqzon og'aynilararb'Tó ularning og'aynilaridan sobiq hamkasblargacha - hamma Ibrohimni mamnun qarshiladi. Kimdir quchoqlashib, kimdir o'pisib ko'rishi.

To'planganlar Ibrohimni davrada uchratishganidan ko'zlariga ishonmayotgandek, shoshib qolishgan edi. Ularning o'zini tutishida har qalay bir oz sarosimalanish ham bor edi.

Nihoyat, uning kelishiga qarab turgandek, odamlar dasturxon yoniga kelishdi. Joy egallahshdi.

Ziyofat-zarofat boshlandi.

\* \* \*

Do'st-o'rtoqlar birma-bir Kabir Hojni tabriklay boshlashdi. Tezda Ibrohimga ham navbat keldi.

U ham Kabir Hoji (iste'dodli ijodkor, kuyunchak inson!) haqida iliq gaplar aytdi. Mehrini izhor qilishga urindi.

Shu soniyada unga hamma narsa sodda-tabiyy tuyuldi. U, kelganim yaxshi bo'ldi, bu joylarning go'zalligi! Odamlar biri-biriga mehribon, ajoyib davra, degan xayolga bordi.

Biroq negadir uning yuragi chiroq yoqsa yorishmayotgan edi.

Insonni yurak aldamaydi. Aldasa, aql aldaydi.

Oradan biron soat o'tgach, davradan qandaydir fayz keta boshladi.

Ko'pchilik sarmast, shu bilan birga, boyagi xushchaqchaqlik yo'qolgan edi.

\* \* \*

Ibrohim - davrada, shunga qaramay, davradan chetlanib bir o'zi qolgandek holatni tuymoqda edi.

U yonveridagilarning uzuq-yuluq gap-so'zlariga aralasholmay, men nega bu yerga keldim, deb o'layotgan, beixtiyor xayolga botgan edi.

Odatda, yig'it-qizlar o'qish, ish joyi, ba'zan ko'cha-ko'y, ba'zan turli teatr, kinoteatr degandek tomoshagohlarda tanishishadi.

Birov ajablanishi, birov tirjayishi mumkin:

Ibrohim Marvarid bilan bu go'shalar emas...

b'Tiyoqzon bog'ibTóda tanishgan edi.

O'shanda Marvarid fil aylanib yurgan to'r-sim ichidagi maydoncha qarshisida - bir xarrak chetida munkayib o'tirar edi.

Ibrohim adashib-uloqib b'Tiyoqzon bog'ibTóga kirgan, kezib yurib toliqqan edi. Nogoh ular gaplashib qolishdi.

Keyin, uchrasha boshlashdi.

Marvarid b'Tiyoqzon uyibTóda o'sgan ekan.

Ota-onasini bilmaydi. Yaqin biron kishisi yo'q.

Egallagan boshpanasi yo'q. Topgan mol-mulki yo'q.

U hozir qaysidir yotoqxonada yashab yurar ekan.

Qanday bo'lmasin, bu qizning (butun dunyoda) Ibrohimdan bo'lak hech kimga kerakligi ham yo'qdek edi!

Ibrohim endi har qachon Marvarid to'g'risida o'ylaganida, yurak-bag'ri o'rtanib ketar edi.

\* \* \*

Davrada qiziq kayfiyat...

bu yerda (go'yoki)

tomosha tugaganmi yoki

hamon boshlanmaganmi edi!

Oradan yana jilla vaqt o'tgach -

(balki, oldingi tomosha tugab, yangi)

tomosha ham boshlandi.

Ibrohim xuddi shunday bo'lishini yuragida sezgan va (o'zi-o'zini aldab) ajabki, bunday bo'lmaydi, deb ishongan edi...

Uning b'Tiyoqzon og'aynilararb'Tó kutilmaganda G'ayrat aka kelmoqchi edilar, tutilib qoldilarimi, kelmayaptilar, deb tashvishlanib, notinchlana boshlashdi. Ular aftidan, oshga guruch solmay, Bosh Rahbarning yo'lini poylashayotgan edi.

- Sizlar boshlayveringlar, majlisim bor, lekin yetib boraman, degan edilar!

- Va'da bergen bo'lsalar, keladilar!

- Kelishlari kerak!

Ibrohim ro'y bergan holatdan qanchalik ezilib, asabiyashmasin, avvaliga o'zini o'ta osoyishta tutishga urindi. ВЂњG'ayrat Nusrat kelsa, kelipti! Kelmasa, kelmapti! Senga nima?! Ko'nglingga yoqmagan odam bilan (umringda, hech qachon) bir davrada o'tirmaganmisan? Juda do'ppi tor kelsa, turasan-ketaverasan! Birov bo'yningdan bog'lab qo'yibdimi? Yoki, birovdan qo'rqedigan joying bormi? ВЂќ

Ammo hammasi hali oldinda edi!

Ko'p o'tmay...

Kabir Hoji bachkanalik qildi.

Bir chetdag'i kattakon qopchiqni olib, G'ayrat Nusratning moybo'yoqda ishlangan rasmini chiqardi. Choyxona ayvoni ustuniga shoshamasdan ilib qo'ydi:

- G'ayrat akam kelsalar, ko'rib xursand bo'ladilar! Yaqinda chizdirgan edim. Sovg'a qilmoqchi edim...

Ibrohimning ensasi qotdi.

ВЂњBu yigit yoki uning egizaklari tug'ilgan kunga G'ayrat Nusratning nima aloqasi bor? Xo'p, bunisi mayli. G'ayrat Nusrat kim, biron ishni qotirgan dahomi, avliyomi? Hatto o'shanday bo'lgan taqdirda ham...

Allohdan boshqasiga  
sig'inmagin, deganlar! ВЂќ

U esladi:

Kabir Hoji talabalik yillari oliyohoh rahbarlarining pinjiga suqilib yurardi! Keyin ham kattaroq lavozimdag'i kimnidir ko'rsa, hayajonlanib yaqinlik qidirardi. Qanday qilib qo'yniga kirsam ekan, degandek holat bu yigitning yuz-ko'zida hamisha aks etib turardi... Erinmagan odam! Choyxonaga rasm ko'tarib kelibdi. Butga sig'ingandek ish tutayotganini bilmasmi ekan?

(Allohdan boshqasiga  
sig'inmagin, deganlar...)

Yaqindan buyon tilga olinayotgan shaxsga sig'inish - faqat birgina shaxsga tegishli emas ekan-da! Ana, oddiy idora. Bunday idoralar ming-minglab. Kabir Hoji singari birov chiqsa, bas. Yurgan yo'lida g'ayrat-nusratlarni ulug'lab, o'zini quldek tutadi, og'rinmay-qiyalmay xalqning qo'l-oyog'ini bog'lagancha, ularning oldiga tashlaydi!

Kabir Hoji - yozuvchi. O'ziga yarasha shuhrat topgan.

Balki, iste'dodli hamdir. Safda yuribdi.

Lekin inson dunyoda iste'dodsiz bo'lgandan ham ko'ra, iymonsiz bo'lgani yomonroq ekan!

Ibrohim: ВЂњTo'xta! Sen mehmonsan, bu gaplarning hozir senga daxli yo'q, ВЂњко'zim ko'r, qulog'im karbВЂќ bo'lib, nafas yutib o'tiravermaysanmi? ВЂќ deb o'yladi. O'zini u hamon osoyishta tutishga urindi. Biroq bo'lmedi...

Shu asnoda

u -

hozir bu gaplarning

bevosita o'ziga

daxli borligini

payqadi-qoldi.

ВЂњEski og'aynilarВЂќ unga yuzlanishdi.

- G'ayrat aka kelsalar, yaxshi bo'lardi, - dedi Shodi Tursun. - Biz bugun, shu davrada sizning masalangizni ko'rmoqchi edik!

- Mening masalamni? - ajablanganicha so'radi Ibrohim.

- Uncha masala ham emas... Sizni idoraga, ishga qaytarmoqchimiz! - tushuntirish berdi Kabir Hoji.

- Yarash-yarash! - yelkalarini qisib, qo'llarini ishqadi Bo'tavoy Nodir.

- G'ayrat aka ana-mana keladilar! - deb ta'kidladi Akmal Rashid.

Ibrohim qisindi.

Bular ilk qarashda xayriyohlik istab, ezgu bir vazifani bajarishayotgandek edi!

Ammo bu davra Kabir Hoji belgilayotgan munosabatlardan ko'proq G'ayrat Nusratga Ibrohimni ro'para qilib qo'yish uchun uyuşhtirilganga o'xshar; harholda, shunday taassurot uyg'onmoqda edi. ВЂњEski og'aynilarВЂќ qabihlik qilishgan edi.

Ibrohim shunisiga ham rozi edi! U, men senlardan ish so'rabanmi, deb kulmoqchi edi-ku...

- G'ayrat aka yaxshi odam. Bag'rikeng, - deb so'zni davom ettirdi Kabir Hoji. - Ayniqsa, birovga kek saqlamaydi. Buyog'ini o'zingiz tushunasiz...

Ibrohimning lablarida tabassum qotdi.

U sergaklandi:

gap bu yoqda ekan!

Bular G'ayrat Nusrat emas, uning oldida Ibrohimni aybdor deb bilishadi. (ВЂњSen vaqtida telbalik qilgansan! Odobsizlik qilgansan! G'ayrat aka chizgan chiziqa yurmagansan! ВЂќ)

Bular Ibrohimni G'ayrat Nusratga ro'para qilganda ham, uni oppa-ochiq bo'yin egdirmoqchi! Tiz cho'ktirmoqchi!

Bular Ibrohim o'zlariga o'xshamaganiga chidalholmaydi!

O'zlariga o'xshatmaguncha tinchishmaydi ham!

(Ibrohim yoki bulardek bo'lishi yoki bularning ham dushmaniga aylanishi kerak!

Uchinchi yo'l yo'q!)

Ibrohim shu damda ВЂњEski og'aynilarВЂќiga:

ВЂњMen adashibman. Senlar vaqtida hech narsaga tushunmagan ekansan. Hamon tushunmabsan! ВЂќ degisi keldi.

Ibrohim yana ВЂњEski og'aynilarВЂќiga:

ВЂњMen adashibman. Senlar - biring yozuvchi, biring olim, biring san'atkor, biring hakam; senlar - ziyoli; lekin... Senlar uchun

hayot o'zgara boshlagani bir pul. Senlar uchun oyog'i yerdan uzilgan johil bir kimsa aziz. O'z manfaatlaring hamma narsadan ustun ekan! Senlar ezgulikni G'ayrat Nusratga almashibsanlar. U emas, G'ayrat Nusratning xizmatiga bel bog'labsanlar! Ўзбек degisi keldi. Ibrohim ularga:

В ТиңMen adashibman. Senlar - xalqning hayoti, turmushidan bexabar, atrofda yashayotgan odamlar hol-ahvolini inobatga olmaydigan, uyalmaydigan bo'lib ketibsanlar. Qotib qolibsanlar. Senlar qulsan. Qarolsan! Ўзбек degisi keldi.

Ammo u parishonlandi, xolos.

Ammo u tilini tishladi.

Gapirganing kumush bo'lsa, gapirmaganing oltin!

Ayniqsa:

G'ayrat Nusrat hali keladimi, yo'qmi?

(Bu - uning uchun ham endi ahamiyat kasb etgan edi!)

Kelmasligi ham mumkin...

Sharoitga qarab ish tutish kerak!

Ayniqsa:

Butun davra ularga angrayib tikilgan edi.

Davraning og'zi ham, tili ham - shubhasiz, Ibrohimning yoshlikdan В Тиңdo'stB Тíklari edi!

- Mayli, o'ylashib ko'ramiz! - dedi Ibrohim bosiqlik bilan.

Uning В Тиңkeyingi yillarda ulg'ayib, odob saqlayotganib Ўзбек (attang) inobatga o'tmadi.

Shu damdayoq his etdi:

U osonlikcha jon bermaganidek, bular ham osonlikcha sirtmoqni bo'shatmaydi!

Yoshlikdan В Тиңdo'stB Тíklari uni G'ayrat Nusrat kelguncha В Тиңpishtib Ўзбек qo'yishmoqchi! Shunga qaror qilingan.

- Buning nimasini o'ylaydi? Aniq gap! - dedi Shodi Tursun ancha keskin.

- Aniq gap... Men o'z ishmidtan, o'z hayotimdan roziman. Idoraga qaytish niyatim yo'q. U suvlar oqib ketdi.

- Demak, sizning G'ayrat Nusratga hech qanday ishingiz ham yo'q! - faylasufona xulosa chiqardi Akmal Rashid.

Ibrohim indamadi.

Bahsga hojat qolmagandek edi.

Kutilmaganda o'rnidan sapchib:

- Men tushunmayapman. Siz nega G'ayrat akani yomon ko'rasiz? Ich-ichingizda nafrat bilan qaraysiz? - sahnadan turib nido qilayotgandek, ovozi titrab Ibrohimni iskanjaga oldi Bo'tavoy Nodir.

Gapirganing kumush bo'lsa, gapirmaganing oltin!

Lekin bu gal Ibrohim o'zini to'xtatilmadi:

- Sizlar mendan yuz chandon aqlli, bilimli. Men sizlarga nima deyman?! Birovni odamiy go'zal xislatlar, ko'zga tashlangan yuksak fazilatlari uchun hurmat qilish, yaxshi ko'rish mumkin. Kuchli imyon-e'tiqodi uchun! Ezgulik istab, shu yo'lga o'zini tikkani uchun! Katta bir ishlarni bajarmasa hamki, aqalli odamlarni qiynamagani uchun! Xalqni qiyratmagani uchun... Tirikning choponi, o'llikning kafanimi yechib, dang'llama uylar qurdirgan, itiga tilla tish qo'ydirgan odamni qanday yaxshi ko'rasan? Insof kerak!

- Umas-bumas, sizlar dushmanizlar, og'aynijon, - dedi Kabir Hoji.

- Siz eskilikka mukkasidan ketgan, zamonga qarshi yurgan millatchisiz, buzg'unchisiz! - tortishuvga yakun yasadi Akmal Rashid.

Oraga uzoq sukunat cho'kdi. Keyin:

В ТиңEski og'aynilarb Ўзбек Ibrohimni o'z holiga qo'yib, boshqa nimalardir haqida gaplasha boshlashdi. Davra chalg'igan, Ibrohimga odamlar ahamiyat bermay qo'yan, uni unutgandek edi.

\* \* \*

Ibrohim o'rnidan sekin qo'zg'alib, -

qo'l yuvGANI choyxona ichkarisiga qarab ketdi.

U hech kim payqamasa, bu yerdan bir yo'la jilib qolishga qaror qilgan edi. Davradagi holati-ruhiyadan ishning yaxshilik bilan tugallanmasligini Ibrohim endi oshkor sezmoqda edi. Bolalikdag'i ikki do'sti so'nggi paytda allabir mojaroga aralashib, ko'chada nobud bo'lishganini, ikkisini ham noma'lum kishilar o'ldirib, ariqqa tashlab ketishganini bu kech u bot-bot eslamoqda edi. O'z birodarlar bilan ashaddiy dushmanga aylanishni Ibrohim istamasdi ham!

Attang! Bular yoshlikdag'i ozgina muqaddaslik, odamiylikni ham yo'qotib, endi butkul o'zgarishgan edi!

Bular Ibrohimni В Тиңunutishmaganb Ўзбек ekan: ortiqcha qimir etgani qo'yishmad! Kimlardir bosgan qadamini o'lchab, uni poylamoqda edi!

Biroq u choyxonani aylanayotib,  
shu asnoda  
bir muloqot ro'y berdi.

Odatdag'i odmi kiygan, ustiga ko'mir changi urgan choyxonachilarga o'xshamagan; boshida fo'ta, egnida oq yaktak, saqoli, qosh-kipriklari ham oppoq, farishtadek qariya samovar yonida kuymalanar edi.

Ibrohim shunchaki yaqinlashib, salom berdi.

- Sizni oldin ko'rmagan ekanman! - unga tikilib dedi choyxonachi.

- Ming yildan buyon kelmagan edim.

- Haliyam bekor kelibsiz!

Ibrohim ajablandi.

Qariya uning rang-ro'yiga qarab, ahvolini payqadimi? - bilish qiyin edi. Ibrohim hozir bu haqda o'ylamayotgan ham edi. Negadir o'zi-o'zidan gapga gap ulanib ketdi.

- Dunyoda bir hikmat bor. Inson, odam bilan hayvon orasida yashaydi! - dedi qariya. - Har kimda o'ziga yarasha yaxshi jihat topiladi. Og'aynilaringiz yomon odamlar bo'lmasliklari ham mumkin.

- Ular yomon emas! - tasdiqladi shoshib Ibrohim.

- Lekin ayrim hol, ayrim soatlarda vahshiylig qilishadi.

- Siz ajoyib ekansiz, oqsoqol, - deb jilmaydi Ibrohim.

- Yo'q, kulmang. Atrof-olamga diqqat qiling... Har bir odam qaysidir jonzotga o'xshaydi! Birov otga, birov itga. Xudo shundoq yaratgan! Nega biz bilmaymiz! Odam o'zini tutmasa, bora-bora o'sha hayvon turqiga kiradi.

Shu payt Ibrohim ro'paradagi ochiq derazadan kechki quyosh nurlariga cho'mgan tepalik tomon qaradi. Ayni yoz kuni paxtalikka o'ranib olgan qandaydir bola besh-o'nta cho'chqa yetaklab, pastga enmoqda edi. ВЂњBulardan qaysi biri G'ayrat Nusrat bo'lsa? ВЂќ ichida kulib o'yldi Ibrohim.

- O'zini tutsa-chi?! - deb so'radi choyxonachidan.

- Tutsa ham ba'zan kiradi, lekin bu boshqa saboq! - Keyin, qariya suhbatni tugatdi. - Mayli, sizga Xudo yor bo'lsin!

Poyloqchi yigitlar hovlini ВЂњshudgorвЂќ qilib yurishganidan, Ibrohim noiloj yana davraga qaytdi.

\* \* \*

Bu yerda

u yo'q paytda

yana bir karra

вЂњmuhammabвЂќ bo'lgani ko'rinish turardi.

Kelib o'tirgani zahoti:

- Menga qarang. Bir jumbojni chaqolmayapmiz, - unga murojaat qildi Shodi Tursun. - Demak, ishdan ketganingizda hammayoqqa siz qog'oz yopishtirgansiz, shundaymi?!

- Men, - dedi osoyishtalik bilan Ibrohim.

- Ana xolos! Biz birovlardan bekorga o'ch olib yuribmiz! - boshini chayqadi Akmal Rashid. - Shu ishni shaxsan o'zingiz yaxshi deb o'ylaysizmi?

- Yaxshi emas. Yosh bolaga o'xshagan ish! - bo'yniga oldi Ibrohim.

- Bo'lmasa nega unday qildingiz?! Men tushunmayapman, - bo'g'ildi Bo'tavoy Nodir.

- Bunday qilmaslik kerak edi! Lekin bu bilan baribir, hech narsa o'zgarmaydi.

- Ya'ni?! - deb so'radi butun gavdasini dasturxon ustiga tashlagan Kabir Hoji.

Gapirganing kumush bo'lsa, gapirmaganing oltin!

(Ol-a... Xalq bir umr tilini tishlaganidan, tillaga ko'milib yotibdi!)

Ibrohim javob berishga majbur edi.

- O'zingdan yoshi ham, ishi ham katta odamni hurmat qilish kerak! - dedi u. - Faqat yoshi yoki faqat ishi katta odamning ham so'ziga qarash kerak! Hurmatini buzmaslik kerak! Aks holda, hayot izdan chiqadi. Barcha iplar uzlidi. Boshboshoqlik ro'y beradi. Itoatsiz mumkin emas... Lekin farzand ota-onani hurmat qilishi uchun birinchi navbatda, ota-onasi o'zini munosib tutmaydimi? Biz katta-kichik, hammamiz banda. Eng avval, Xudoga itoat qilamiz. (Allohdan boshqasiga sig'inmagin, deganlar). Bandaning bir-biriga itoati nisbiy! Xo'p. Dunyoda har kimning o'z tushunchasi bor. Fikri. Qarashi! His etganining, o'ylaganining aytmaslik qo'rkoqlik, munofiqlik emasmi?! Qachongacha uyda boshqa, ko'chada, odamlar orasida, majlis yoki davrada boshqa gapni gapirish kerak? ВЂњBoshimga qilich kelsa ham degayman rostin!вЂќ - ota-bobolarning bu shiori nahotki, zamonlar o'tib, yo'qoldi? Taraqqiyotga erishgan sayin, вЂњmaymuniyatвЂќ deganidek, nahotki, munosabat niqob taqib, o'yin ko'rsatishga aylangan bo'lsa? Siyosiy o'yin! Ijtimoiy o'yin!

Ommaviy o'yin... Tabiiylik qani? Xolislik qani? Biz katta xalqimiz. Ammo oramizda shunday odamlar borki, butun hayotni teatrqa yaqinlashtirib, o'zi o'y nab, butun xalqni o'yinga tortgisi keladi. Ana, siz sig'ingan G'ayrat Nusrat! Uning buyukligi yolg'on. O'zi biladi! Sizlar ham bilasizlar! U qo'lidagi qon tomsgan qilichi bilan, o'z sha'ni, o'z obro'yini tutib turibdi. Imkon topib yashab qolishni istaydi, xolos! Sizlar unga oshiq-shaydo bo'lsanglar, marhamat! Lekin hammadan buni nega talab qilasizlar? Hamma uning aravasiga minib, ashulasini aytishi shartmi?

Dunyoda

hech kim

birov bilan tortishayotib

вЂњbiz yengildik, taqsir!вЂќ demaydi.

- Agar sal oldingi davr bo'lsa, men sizni bu fikringiz uchun otib tashlatgan yoki qamoqda chiritgan bo'lardim! - g'udranib qo'ydi Akmal Rashid.

Bahs hali davom etadigandek edi. Biroq...

Davradagilar choyxonaga asosan,

o'z mashinalarida kelishgan,

mashinalar yon tomondagi maydonchada tizilgan edi. Yo'lni changitib, yangi bir mashina kelib to'xtadi.

Haydovchi kabinadan chiqar-chiqmas, Akmal Rashid o'midan irg'ib turib, unga tomon oshiqdi.

Ibrohim haydovchiga ko'zi tushib, esankirab qoldi: bu - o'tgan yilmidi, oldingi yilmi? - xiyobonda, daraxt panasida turib uni poylagan yigit edi!

(Ajabo, o'shanda Akmal Rashid вЂњtashabbusвЂќ ko'rsatganmidi yoki uni вЂњchetlabвЂќ, haydovchi to'ppa-to'g'ri G'ayrat Nusratning irodasi bilan ish tutganmiddi? Qanday bo'lmasin, bu odamlar o'sha paytda ham tinch turishmagan ekan!)

Ammo bunisi hali holva ekan.

Akmal Rashid negadir kabinaga kirib, bir oz o'tirdi.

Keyin, rangi oqargan, asabiy holatda orqaga qaytdi.

U sal kibranganmi, tantanali namoyishdami? - o'rnini egallab, davradagilarga sovuq, sinchkov tikildi.

- G'ayrat aka kelmaydigan bo'ldilar! - dedi salmoqlab. - Kelolmaydilar! Bugun tushdan keyin G'ayrat akaga suiqasd uyushtirilibdi. Davra chayqalib ketdi.

- Nega?

- Qayerda?

- Nima bo'libdi? Tirikmi?

- Tirik! Lekin keladigan holda emas, - dedi Akmal Rashid. - Mashinaga portlatgich o'rnatishibdi. Tushlik qilib, uydan chiqqan ekanlar. Yaqinlashgan paytlari portlabdi! Haliyam yaxshi ishlamabdi. Bo'lmasa, kullari ko'kka sovrilardi. Men xabarlashdim... - u bir dam o'ylanib, gapni yakunladi. - Men hozir mirshablarni chaqirtirdim.

- Mirshablar? - davrada ko'pchilik hozir bu yerda mirshabga qanday ehtiyoj borligiga tushunmayotgandek edi.  
 - Mirshablar, albatta! - dedi Akmal Rashid. U Ibrohimga tomon burildi. - Bu ishni siz qilgansiz, og'aynijon! Biz bilganlardan - boshqa kishi qo'poruvchilik qilmaydi.  
 - Men? Unga mening nima ishim bor? - ezilib pichirladi Ibrohim.  
 - Siz bu ishni qilmagan taqdirda ham, men uni sizga yopishtirardim. Lekin hozir butun shubha-gumon sizga tushyapti. G'ayrat akaning sizdan bo'lak dushmani yo'q! Siz goh ochiq, goh bekitiqcha unga qarshi kurashgansiz... Bugun sizni bu yerga taklif qilganimizdan keyin, xayolingiz qochib, G'ayrat aka bilan ko'rishmaslik, buning oldini olish uchun uning mashinasini poylagansiz. Partlatgich o'rnatgansiz... Siz ishlagan zavodda porox ham, boshqa dorilar ham istagancha topiladi! Bugun tush vaqtি bo'lib-bo'lmay, ishdan ketgansiz. Bezovtalanib, qayoqlargadir qo'ng'iroq qilgansiz. Bizning yigitlarimiz hammasini belgilagan! Qisqasi, aybingiz bo'yningizda, og'aynijon! Bugungi siz bilan suhbat ham uni tasdiqlaydi...  
 Ibrohimning yuragi orqaga tortdi.

Es-hushi boshidan uchdi.

(G'ayrat Nusrat kelgani ham durust ekan! Odam bolasi haqiqatga tik qaray oladi. Tuhmat yomon! Tuhmati nogahon...) Ibrohim o'zini qanchalik oqlashga urinib, dalil keltirmasini, davradagilar gapni eshitmasligi, ishonmasligi - foydasi yo'qligini his etdi. Dovdirab qoldi...

U falokatga yo'liqqan, ishning rasvosi chiqqan edi!

Yo'q. Ibrohim etak silkib, davrani dadil tark etdi.

Yo'l tomon mag'rur bosdi.

Ketdi. Ildam bora boshladi.

Ammo ko'p o'tmay...

orqadan butun davra shovqin solib kelayotganini ko'rdi.

Bular yarador qushga erk berib, tipirchilashini tomosha qilgan yovuz mergandek, uni kuzatish uchungina qo'yib yuborishgan; endi bosib-yanchib qo'lga kiritishmoqchi! - aftidan, bularning niyati shu edi.

Ish bugun chigal, qaltis tus olib, shu darajaga yetishini kim bilibdi deysiz. Inson nodon bo'lmasa...

Ibrohim yarim o'girilib,

orqaga qaradi.

Davraning birinchi safida uning -

вЂњEski og'aynilarвЂќ kelishmoqda edi.

Bunisi mayli.

Ular ko'zları qonga to'lib, halloslab yugurishmoqda;  
 turqi-tarovatlari o'zgargan edi.

Tasavvurga sig'maydigan hol! Tavba:

Kabir Hoji - Kabir Hoji, shu bilan birga tulki

Shodi Tursun - Shodi Tursun, shu bilan birga ayiq

Bo'tavoy Nodir - Bo'tavoy Nodir, shu bilan birga qoplon

Akmal Rashid - Akmal Rashid, shu bilan birga bo'ri

edi!

Ibrohim beixtiyor

choyxonadagi farishtadek qariyani esladi.

Qariya aytgan gapga kulgan edi! Endi o'kindi.

Keyin:

вЂњInson - gapirovchi maxluq!вЂќ degan g'alati naql yodiga tushdi.

вЂњInson ba'zan hayvon qilmaydigan ishni qiladi!вЂќ degan gapni ham xayolidan kechirdi.

Yo'lida - ro'parada uzoqdan mirshablar mashinasi ko'rindi.

Ibrohim ikki o'rtada qolganini sezdi.

Yana ikki tomon bor.

Bir yon - qirlik. Tezda o'rab olishadi!

Ikkinchи yon - daryo. Suvning surib, oqizib ketishidan harholda, umidlanish mumkin!

Ibrohim to'g'ri o'zini daryoga otdi.

U qirg'oqdan endi uzoqlashgan edi:

to'pponchadan qarsillab osmonga o'q uzildi.

So'ng:

o'q Ibrohimning qulog'i ostida vizilladi.

Ufqqa bosh qo'yayotgan oftob to'shagan nurdan - daryo yuzi qonga belangandek edi.

Ibrohim negadir shu soniyada (yana) bolalikdagi ikki do'sti ko'chada nobud bo'lib ketishganini esladi. Ularning aniq bir gunohi bormidi yoki ular ham tuhmatga qolishganmi? (Hozirgidek voqeа yuz bergen bo'lishi mumkin-ku!)

U goh sho'ng'ib, goh yuzaga qalqib, shiddat bilan suzmoqda edi.

Biroq:

вЂњJodularki, bog'lar oqar suvni...вЂќ -

qaysidir jodu (sehrgar) kishanlab tashlagandek, - sharqirab oqqan suvda Ibrohim bir yerdan uzilolmay, sekin surilmoqda; girdobda o'ralashgan singari holatni tuymoqda edi.

Qirg'oq bo'ylab esa

katta bir to'da

u bilan yonma-yon yugurib bormoqda;

oldinda ketayotgan qoplon, bo'ri, ayiq, tulki izidan - ularga qayoqdandir qo'shilib olgan - itlar (vovullab), mushuklar (bag'llab) ergashib kelmoqda;

qirg'oqni bulutdek chang-to'zon

qoplagan  
edi...

3

Bismillohir Rahmonir Rahim.

... Biz uning (Ibrohim alayhissalomning, haq yo'lga loyiq ekanligini) bilgan edik. O'shanda (Ibrohim) otasi va qavmiga: вЂњSizlar doimo cho'qinadigan bu haykallar (butlar) nimadir? вЂќ deganida; ular aytdilar: вЂњBizlar ota-bobolarimizni ham ularga sig'ingan holda topganmizвЂќ. U (Ibrohim) dedi: вЂњDarhaqiqat, sizlar ham, ota-bobolaringiz ham ochiq zalolatda ekansizlar! вЂќ

... Bas, u (butlar, haykallarni) parcha-parcha qildi.

... Ular: вЂњBizning xudolarimizni kim bunday qildi? Shubhasiz, u zolim kimsalardandir! вЂќ dedilar. Ular(ning ayrimlari) aytishdi: вЂњXudolarimizni ayblab yuradigan Ibrohim degan bir yigitni eshitgandikвЂќ. (Shunda ularning kattalari): вЂњUni odamlar qoshiga keltiringiz! Ular guvoh bo'lsinlar! вЂќ deyishdi.

... (Mushriklar) dedilar: вЂњUni (Ibrohimni) yoqib yuboringlar! Agar uddalay olsanglar, o'z xudolaringizga yordam qilinglar! вЂќ

... Biz aytdik: вЂњEy olov, sen Ibrohim uchun salqin va omonlik bo'l! вЂќ

... Ular (Ibrohimiga) makr qilmoqchi (ya'ni, uni yoqib yubormoqchi) bo'ldilar. Biz esa ularning o'zlarini ko'proq ziyon ko'rguvchi qilib qo'yidik.

\* \* \*

Ibrohim: вЂњMen Yolg'iz senga sig'inaman, parvardigorum! вЂќ deb xudoga ibodat-iltijo qilmoqda edi.

Qirg'oqdagi suron hadeganda bosiladigandek emasdi.

Qirg'oqda yana bir necha bora o'q qarsilladi.

Vahshiy to'dada bo'lganlardan har biri - bir G'ayrat Nusrat edi! Bular qon qo'msamoqda edi.

(Kim egri kishining  
egridir soyasi ham...)

Ibrohim nihoyat, o'zini oqimga tashlab qo'yib, ko'zlarini chirt yumdi.

Ustidagi yengil kiyim ham hozir unga og'irlilik qilmoqda edi. U bolalikdan suzishni o'rgangan, lekin hech qachon bu ahvolda suvg'a tushmagan edi. Shunga qaramay, Ibrohim bu haqda o'ylamayotgan edi. Nazarida, ulkan o'tin g'arami hozirlanib o't qo'yilgan va qo'l-oyog'ini bog'lab, uni qadimiy tosh otish quroli - bir manjaniqqa solishgancha, olovga otishgan edi. U yorug'lik, issiqlikni sezmoqda. Ammo alanga-otash unga ta'sir qilmayotgan edi. Ibrohim: вЂњParvardigorum O'zi ahvolimdan ogoh! вЂќ deb o'ylab taskin-tasalli topayotgan edi.

\* \* \*

Shu holatda oradan qancha vaqt o'tdi? - bilmasdi.

Ko'zlarini ohib, ajablandi:

bir muddat ilgari G'arbda qizarib botayotgan quyosh

endi Sharqdan qizarib chiqmoqda edi.

Diqqat qilib turib, yana ajablandi:

to'polon-suron tingan, atrof-javonib jimjit edi.

Boshini ko'tarib, alanglab, badtar ajablandi:

daryo kelib quyilganmi? - o'zining dengizda ekanligini sezdi.

Dengiz horg'in-horg'in nafas olmoqda edi.

Olsida qorayib turgan nuqtani ko'rib, Yer bo'lsa kerak, deb o'ylaganicha, shu tomon surina boshladi.

Quyosh nayza bo'yи ko'tarilganda, u qirg'oqqa chiqib oldi.

Bu - yalang-bepoyon bir o'tloqzor edi.

Lekin o'tloqzordan ham oldin Ibrohimning -

to'p bo'lib yurgan fillarga ko'zi tushdi.

Daryo, dengiz uni aftidan, bir yoqlarga itqitib-ulоqtirgan edi. Bunga Ibrohim endi ajablanmadni ham.

U bugun (kecha) Marvarid bilan uchrasholmagan, fillar to'g'risida gaplashmagan edi. Shu boisdan, ular to'g'risida o'ylamagan ham edi. Hozir dengiz sohilida turganicha, beixtiyor...

Bir kitobda fillarni вЂњquruqlikda yashovchi sut emizuvchi hayvonlarning eng kattasibвЂќ deb yozishgani va вЂњbo'yining uzunligi falon metr, og'irligi falon kilobвЂќ deb belgilab qo'yishganini esladi. O'sha kitobda qiziq gaplar bor edi. вЂњAgar xartumi bo'lmasa, fil yashay olmasdi. Chunki uning yo'g'on va kamharakat bo'yni yerdagi ovqatni egilib ololmasdi! вЂќ deyilgan, keyin вЂњfil suvni ham xartumi bilan ichadi! вЂќ deb tushunitirilgan edi.

Yana bu kitobda filning kurak tishlari katta ekanligi, shu tishlardan ziynat buyumlari yasalishi-yu, fillar yuz yilgacha yashashi ham aytildi. Boshqa bir kitobdag'i jozibali tasvir ham Ibrohimning yodiga tushdi: вЂњYuragi yorilib o'lish holati ba'zan fillarda ham uchraydi. Oziqa-em tugab, suv ichadigan quduqlar qurib qolganini ko'rganda, fillar qattiq qayg'urib, hasrat-nadomat chekadilar. Biroq ular har qanday sharoitda bir-birlariga ko'maklashadilar. Ularning qaysidir birodari yo'lida qulab, halok bo'lsa, tirik qolganlar uning suyaklarini ko'tarib, fillar qabristoniga olib borib qo'yadilarвЂќ.

Ibrohim bundan roppa-rosa ming yil muqaddam arab at-Tanuhi o'z вЂњG'aroyibotbўklarida вЂњfil nihoyatda aqlii jonzotbўk degani va filni qo'lga o'rgatish juda mashaqqatlari ekani haqida hikoya qilganini ham esladi. O'sha zamonlarda fillar katta qiymatga ega, odamlar har bir filning qadriga yetgan ekan. вЂњHindistonda yaxshi fil uchun pulni ayashmas ekan. U yerda bo'lganimda, harbga yaroqli filning bahosi - o'n ming, eng katta, kuchli filning bahosi - yuz ming dinor ekanligini eshitdimвЂќ deb yozgandi at-Tanuhi.

Ibrohim g'amgin kulib, yaqin davr (so'nggi asr)da yashagan farang Ekzyuperining вЂњBola poshshobвЂќ kitobini ham esladi. Bola filni yutgan ajdar rasmini chizsa, kattalar shlyapa, deb o'ylashibdi...

\* \* \*

U endi b'Thieski og'aynilarb'Thidian -  
balo-qazodan qutulgan edi.

Shuning uchun hech narsadan tashvishlanmayotgan edi.  
Osoyishta edi. Taslim bo'limganidan mammun edi.  
Fillardan hayiqmadi. Yotsiramadi.  
Buning ustiga, toliqqan edi. Ochiqqan edi.  
To'g'ri fillar tomon bora boshladi.

Temirdan etik kiygandek, oyoqlari og'ir edi.  
Uning o'zi ham katta, salobatl bo'lib qolgan edi.  
Fillarga qo'shilib, yaproqlar, ko'kat-sabzavot, yovvoyi o'simlik mevalari bilan ozuqlana boshladi.

Shu payt...  
bir fil yaqin kelib,  
xartumini cho'zdi.

Fil...

unga tanish edi!  
B'ThieBu Marvarid emasmikan?B'Th deb o'yladi Ibrohim.

Keyin...  
o'zining ham xartumi borligini payqadi.  
U ham...

xartumini cho'zdi.  
Xartumlar bir-birini siypalab,  
quchdi.

Fil-Marvaridning ko'zları jiqla yosh edi.  
Fil-Ibrohimning ham ko'zları yoshga to'ldi.

(Shu soniyada uning naq ro'parasida  
choyxonadagi  
farishtadek

qariya  
jonlandi.

- Bu boshqa saboq! Sizga xudo yor bo'lsin! - dedi qariya).  
Nihoyat...

\* \* \*

Fillar to'planib, yo'lga tushishdi va -  
necha ming yillik tarix  
qaytarilgandek bo'ldi.  
Necha ming yil muqaddam esa  
bunday voqeа  
ro'y bergen edi...

\* \* \*

Bir sayyoohlar karvoni qaroqchilar, har xil jangari to'dalardan qochib, dashti-sahroga yuz tutgan edi.  
Odamlar qum-to'zon ichida sargardon kezishadi. Mashaqqat, ochlik, ayniqsa tashnalikdan cho'p-ustixonga aylanishadi.  
Ular yo'lga minib chiqqan fillardan faqat bir jufti tirik qolgan edi.  
Yo'q, shundan keyin ko'z o'ngidagi zulmat chekinib, atrof yorisha boshlaydi. Olisdan tiniq dengiz nafasi keladi.  
Sayyoohlar dengizga qarab bora boshlashadi. Ammo shu damda payqashadi:

Negadir hammayoqni tuz qoplagan! Oyoq ostida yer oppoq, yurgan paytda oyog'ingga yopishib, parcha-parcha ko'chadi.  
Ikki yon tomonda past-balandoq tepaliklar oynadek yarqiraydi. Yo'l ustidagi saksovuldan chaqir tikanakkacha - barchasining shox-yaproqlari shishani eslatadi. Tegsang, chirsillab sinadi.

Nihoyat, karvon moviyligi, nafis-nozik go'zalligi kishini hayratga soladigan buyuk bir dengizga yaqinlashadi.  
Dengiz ilk qarashda yarim muzlab, yarim erib yotgandek tuyuladi. Umuman, u havo yonib yotganiga zid holda, muzliklarni eslatadi.  
Odamlar hovliqib, biri-biridan qizg'angandek, urinib-turtinib oldinga tashlanishadi.

Ular fillarni ham suvg'a tushirishadi.

Biroq ko'p o'tmay, orqaga qarab qochishadi.

Dengiz - suv emas, erigan tuzdan iborat! Tuz og'izni tirnab-yaralab, ko'zni achishtirayotgan edi. Badandagi eski jarohatlardan qon sirqirardi. Sayyoohlar qirg'oqqa chiqqandan so'ng ham, badanlariga ilgakdek yopishgan tuz ularning suyak-suyagini og'ritmoqda edi.

Ular mana, endi

bu yastanib-oqarib yotgan -

O'lik dengiz ekanligini anglashadi.

Bu dengizga daryodan tasodif kelib tushgan baliq lahza ichida jon beradi. Biron narsa suzmaydi. Tuz yuzada tutib turganidan, dengiz ostiga hech narsa cho'kmaydi ham!

Karvondagilar avvalgidan badtar holga tushib, tinka-madorlari qurib, lovullagan oftob ostida, qirg'oqda, har kim har yerda cho'zilgancha, uyquga ketishadi. Hamma uxlab qoladi.

Suvga tushirilgan bir juft fil - fillar-chi?

Fillar dengizni darhol tark etgisi kelmaydi.

Dunyoda o'xhashi bo'limgan bu dengiz go'yoki azob emas, jon rohati! - mazza qilayotgandek, ular erkin o'ynamoqqa tushadi. Avvaliga ular suvda - tuz eritmasida quloqlarigacha botib turishadi. Keyin, yuzaga qalqib, shodumonlik bilan biri-biriga xartumlaridan SUV purkasha boshlashadi. Yuvinib-tozalanib, poklanayotgandek bo'lismashadi. Ertasi kuni tong-sohargacha shunday holat davom etadi.

Uyqudan uyg'onib, sayyoohlar fillarni qidirishadi.

Lekin qirg'oqdan topolmay, tez orada gap nimada ekanligini sezishadi.

Ular - dengizda

fillarning biri-birini xartumi bilan quchib,

haykaldek tosh qotgancha, -

tuzga aylanib qolishganini...

ko'rishadi.

4

Ibrohim o'zini daryoga otdimi?

Dengizga borib yetdimi?

Qum-to'zon kechdimi?

Suv o'mniga

tuz yutdimi? -

qanday bo'lmasin,

Nusrat G'ayrat bilan shotirlari uni tutib yo'qotish niyatidan qaytishmagan edi.

Buni u yaxshi bilardi.

Uning nazarida, ta'qib davom etmoqda, o'zi hamon qochib bormoqda.

Shu taxlitda, Ibrohim nihoyat, dengiz bo'yidagi bir shaharchaga yuzlandi.

Bu yerga yetib kelgunicha, u uch-to'rt kun poyezdda, keyin haybatli kemada yo'l bosgan edi.

Poyezddagi vagonlar iflos, oddiy choy ham yo'q. Yo'ldagi bezorilar faqat kechalari emas, kuppera-kunduzi ham odamlarni tunab ketishar, yana o'chakishgandek, oynalarga tosh otishar edi. Kemada odam ko'p. Sichqonning ini ming tanga. Ibrohim yuqori qavatdagi ochiq, yalang sahnda, dag'al bir taxta ustida o'tirib, tunni qush uyqusida o'tkazdi.

Mana, endi u sohilda badmast kishidek, behol chayqalib turar edi.

Yoz kuni, quyosh ayni tik qadalgan payt.

Sohildagi shahar, shaharchalarda mehmonxonadan munosib joy topish tugul, xarob bir burchakni egallash o'limdan qiyin. Buni yo'ldayoq eshitib-bilganidan, Ibrohim odamlarga ergashgancha, shunchaki dengiz yoqalab to'g'riga qarab keta boshladi. Kech kirmay turib harholda biron boshpana topish kerak. Begona shahar, ko'chada qolib ketish mumkin.

Bandargoh yaqinidagi maydonchada aksari xotin-xalaj, qandaydir kishilar dasta bo'lib, g'ujg'on o'ynashardi. Bu yerda to'planganlar joysiz mehmonlarga uylarini ijara berishar ekan.

Ibrohim qo'nim topishga ko'nglida umid uyg'onib, maydonchani aylana boshladi. Biroq uning bu holati uzoqqa cho'zilmadi.

Uni hech kim uyiga olib borishni istamas, qanchalik muloyim, hatto yalingudek so'zlashmasin, birov bilan gapi pishadiganga o'xshamas edi. Boshqalardek savdolashib, biron talab qo'yishni-ku, u xayoliga ham keltirmayotgan edi. Barcha uy egalari til biriktirgandek, bizga ayollar yoki oilali kishilarmi bo'lsa, yolg'iz yigitni qo'yolmaymiz, to'rt-beshta o'smir bo'lganda ham mayli edi, deyishardi. Aftidan, ular shunga qat'iy qaror qilishgan edi.

Kun issiq, dim. Dengizdan esgan nam havo nafasni bo'g'adi.

Ibrohim avvalgidan battar lohaslanib, jiqqa terga botgan. Ammo maydonchada birdek charx urmoqda edi.

Axiyri, iymanibmi, odamlardan bir chetda turgan yosh, xushro'y juvonga uning ko'zi tushdi. Juvonning rang-ro'yida bu davradagi tajang-to'pori ayollardan farq qilgan odamshavandalikmi-samimiyyat barq urardi. Negadir lab juftlab har so'zga og'iz ochganida, bir qizarib olar ekan. Juvon Ibrohimga o'z uyidan joy berishga qarshi emas, shuning barobarida, allanechuk ikkilanayotgan ham edi.

- Bizning uyimiz yo'l uzoq, - dedi nihoyat. - Bu yerda ko'pincha dengiz bo'yidan joy tanlashadi.

- Menga buning ahamiyati yo'q, - dedi Ibrohim.

- Joy ham uncha yaxshi emas.

- Bori. Hozir menga baribir, - dedi Ibrohim. U shu qadar toliqqan ediki, ortiqcha gaplashishga ham holi yetmayotgan edi.

Ular avtobus bekatiga qarab yo'l olishdi.

Bekatda hadeganda avtobusning qorasi ko'rinnadi. Sabri tugagan Ibrohim yengil mashina tutdi.

Juvonning uyi juda tupkaning tagida ham emas ekan.

Mashina osmonga tirmashayotgandek, qandaydir tepalikka ko'tarilib, yarim soatcha yo'l bosgach, tor ko'chaga kirib, eski bir eshik oldida to'xtadi.

Ular hovliga kirishdi.

Hovli - quyuq daraxtzor. To'rda kattagina bino. Oldi ayvon. Daraxtlar panasida yaqqol ko'zga tashlangan bu imorat pinjida oldinroq qurilgan yapasqi, ko'rimsiz yana bir uycha.

Ular uch-to'rt zina pastga tushishdi.

Juvon eshikni ochdi.

Ibrohim juvonning izidan ichkari kirdi.

Yarmi yerga ko'milgan oynadan g'ira-shira yorug'lik tushib turar, xona zax, rutubat edi.

Oyoq ostida taxtalar ko'pchigan, ko'kangan, darz ketgan.

Shiftni, devorlarni kimdir qo'l uchida oqlagan, burchak-burchaklarda tirqish-tuynuklar yamalmay qolaverган. Bu - xona ham emas, odatdag'i yerto'la edi.

Temir karavot. Bir to'mba va bir kursi. Butun-bor jihoz shu.

Ibrohim mana, endi uy egasining nega bot-bot qizargani-yu, ikkilanganiga tushundi. Lekin ayb juvonda emas, ayb uning o'zida. Bu joyni u odamning izzat-nafsi og'riydigan darajada xarob, deb o'ylamagan, juvon sha'ma qilganiga ham qaramagan edi. Qanaqa

bo'lса-da, boshpana topilayotganiga suyunganidan, qaysarlangan edi.

Uning ko'nglidan kechganini bilgandek, juvon:

- Shu kunlar qo'limiz qisqa. Bir oz qiynalib qoldik. Bo'lmasa, uygа odam kiritmasdik, - dedi. Lahza sukut saqlab, qo'shib qo'ydi. - Qarang. Yoqmasa, boshqa joy izlarsiz.

Ibrohim indamay, kursiga cho'kdi.

Umuman, u ilojsiz edi. Uning cho'ntagida joy uchun to'laydigan naqd pulning o'zi ham yo'q edi. Ibrohim axir, uydан bir chiqqanicha quvg'inga uchragan kishi edi.

Shoshamdan qo'lidagi soatni yechdi.

Qo'yinidan ham eski bir soat oldi.

Barmog'idan uzukni chiqardi.

Barini to'mba ustiga qo'ydi.

- Boyligim... Ishga kirkach, qarzim bo'lса, yana uzarman.

Juvon to'mba ustidan nima uchundir eski soatni olib, ajablanib tikilgandek bo'ldi. Keyin, Ibrohimni ajablantirib, lom-mim demay xonadan tez chiqib ketdi.

Dam o'tmay, qaytib novcha bir erkak - eri bilan xonaga kirib keldi. Endi eski soatni erkak qo'lida tutib turardi.

U ostонадаyoq bosh silkib, so'radi:

- Bu kimniki?! Qayerdan olgansiz?

- Dadamnikи. Urush paytidagi o'lja, - dedi Ibrohim. - Dadam ustaga ko'rsatgani menga berib qo'ygan edilar.

Er-xotin ruscha emas, boshqa ajnabiу bir tilda o'zaro allanarsalarni hayajonlanib gaplasha boshlashdi. Ibrohim holatdan kelib chiqib, til bilmasa hamki, bularning olmon (nemis) ekanligini payqadi.

Tunda, kema sahnida har xil kishilarning gap-so'zlari Ibrohimning qulog'iga chalingan edi. Bu shaharchaga dunyoning turli burchaklaridan odamlar asosan dam olgani kelishadi. Shaharchaning tub aholisi, turkiy bir unut qabila yigirma foizni ham tashkil etmaydi. Sakson foiz tarix davomida sargardonlikda surungan millatlar. Arablar, eroniylar (pirsiyonlar), g'arbliklardan yunonlar, olmonlar. Olmonlar - hammadan ko'p. Bir qismi o'tmishda kelgan. Yana bir qismi urushdan keyin qolib ketgan asirlar. Odamlar aksari biri-biri bilan rusiy zabonda so'zlashsa-da, o'z tili va urf-odatlarini yo'qotmagan.

- Qayerdansiz?! Ismingiz? - Ibrohimning xayolini bo'ldi uy egasi.

Ibrohim o'zini tanishtirdi.

- Men Gans, xotinim Emma, - dedi uy egasi. - Mening bobom soatsoz bo'lган. Ana, soatda nasl-nasabi yozib qo'yilgan. Ancha burun menda shunaqa soat bor edi, o'g'irlab ketishgan... Oddiy matoh dunyoni aylanib kelganini qarang! - Gans boshini tebratib, jilmaydi. - Bizga shu yetadi. Bemalol turavering! - u cho'ntagidan uch-to'rtta qog'oz pul chiqarib, to'mba ustiga qo'ydi. - Bu hozircha yashash uchun! Qisinmang.

Ibrohim gangib qolgan edi.

Bir kunlar dunyoning yarmini qonga belagan vahshiy to'da olmonmi yoki bular olmon? Yer bilan osmoncha farq qiladi. Butun gap qayerda, qachon odamning, xalqning qanday ruhda tarbiyalanishi, qaysi yo'ldan borishida (ba'zan borishga mahkum etilishida) ekan-da!

Begona shaharda yaxshi kishilarni uchratgani, ishi o'ng kelgani Ibrohimni suyuntirgan edi. Albatta, yodgorlik-soat unga qadrli, buning ustiga, otasi berib qo'ygan omonat edi. Shuning barobarida, mol azizmi, jon aziz? - odam shart-sharoitga qaraysan.

Qolaversa, birovning mulkini egasiga qaytarishdan ezgu ish bormi?

Er-xotin xonani tark etgach, Ibrohim karavotga o'zini tashladi.

Qotib qolaman, deb o'ylagan edi. O'n-o'n besh daqiqa yota oldi, xolos.

Bir tomonda ota-onasi, ikkinchi tomonda Marvarid uning holidan bexabar, motam qilib o'tirishgandir? Ularga tirik ekanligi, sog' ekanligini tezroq bildirish kerak!

O'rnidan dast qo'zg'aldi.

Qo'liga soat, barmog'iga uzukni qaytib taqdi.

To'mba ustidagi pulni ham cho'ntagiga soldi.

Allanechuk bardamlik sezib, xonadan chiqdi.

\* \* \*

Avtobus naq eshik oldiga kelib to'xtadi.

Bekat shu yerda ekan.

Avtobusga minib, yo'lga tushgach, xayolga cho'mdi.

U Marvarid bilan ikki yildan buyon shunchaki tanishmi-do'st sifatida ko'rishib turgan, orada munosabat aniq emasligiga qandaydir beparvo qaragan edi. O'z navbatida Marvarid ham biron da'vo-talab qo'yagan, aftidan bunga jur'ati, hattoki botinishga holi yetmagan edi. O'zining вЂњBolalar uyib вЂќda o'sgani kam, qamab otib tashlangan ota-onaning farzandi ekanligi har kun, har lahma xayolida saqlangan qiz, hamma qatori oila baxtini ko'rishga haqli ekanligini goho o'ylashga ham qo'rqrar edi.

Ular har gal uchrashganda, bir xil вЂњashulab вЂќ:

- Qayoqqa boramiz?

- вЂњHayvonot bog'ib вЂќga.

Marvarid na kinoga qiziqadi, na teatrga. Bolalik gashtini surmagan-da! - вЂњHayvonot bog'ib вЂќ bo'lса, bas, yozmi-qishmi, qayta-qayta boraverar edi. Bu yerga kelib, faqat darrandalar emas, oddiygina parrandalarni ham umrida ilk daf'a ko'rayotgandek, hayajonlanib tomosha qilardi.

Ibrohim bir oz ayylanib, zerika boshlardi. Dunyoda shu вЂњHayvonot bog'ib вЂќdan boshqa narsa qurib qolganmi? Hayvonlar bilan ularning nima ishi bor? Bolalik payti uylari вЂњHayvonot bog'ib вЂќ yaqinida bo'lгани yodiga tushardi. Goh yarim tun, goh saharlarda dashti-sahrolar, kengliklar nafasi kelgan notinch, nolon o'kirik-bo'kiriklar eshitilar, kishining bag'rini ezar edi. Ibrohim erkidan ayrilgan hayvonlarga achinardi.

Marvarid xarrak chetida o'tirib, to'r-sim ichida vazmin yurgan filni tomosha qilishni ayniqsa yoqtirardi. Ibrohimni ham fil qiziqtirardi. Unga fil Hindistonni, Habashistonni eslatardi. Qadim shaharlar, shoh saroylari, odam to'la ko'chalarini eslatardi.

Sharqda va ajabki, Sharq hayotidan G'arbda ham sirlи, sehrli bir ohangda yozilgan kitoblarni eslatardi... Ibrohim endi Andersen,

Perro, Hofman, Shvars va b'Th'Ming bir kechab Th'king aniq b'Th'shidib Th'k ufurgan VilCh'gelCh'm Hauf ertaklarini eslardi. U, balsorlik Ahmad hikoyatini - tasodif o'z ismi (Ibrohim) ham borligi uchun emas, - Sharqqa cheksiz hurmat, mehr bilan yozilgani uchun! - yaxshi ko'rар, bor-yo'g'i yigirma to'rt yil yashab dunyoda nom qoldirgan olmon adibi qiyofasini tasavvur qilishga urinardi... Marvaridning yonida, xarrakda o'tirib, bir qo'shiqdagi: b'Th'Qanoatda Saida filcha bo'lurmi, hay-hayb Th'k - degan so'zlar ham Ibrohimning beixtiyor xayolidan kechardi. Buning baridan u ta'sirlanar, lekin baribir, yana zerikardi. Hayvonlar tutqunlikda bo'lgan b'Th'bog'b'Th'kni Ibrohim BOG' deb bilmas edi.

Marvarid bilan u ko'chada gaplashib yurgisi kelardi.

Nihoyat, Marvarid unga ergashardi.

Ko'cha kezayotib, yozmi-qishmi, Ibrohim Marvaridni muzqaymoq bilan siylardi. Bolalik gashtini surmagan-da! - muzqaymoq bu qizning joni edi. Shundan boshqa narsani kutmas edi.

Ibrohim o'z mayli, xohishidan ko'ra ko'proq Marvaridning ko'ngliga, ra'yiga qarardi. Haftada bir qur uchrashuv qiz uchun bayram ekanligini his etar edi.

Bir kuni...

qish o'rtasi edi.

Lap-lap qor yog'ardi.

Ibrohim korxonadan chiqib, odatdagidek Marvarid bilan bekatda ko'rishishdan oldin, toza kiyengani uyga birrov kirgan edi.

Ularniga Bokira - qarindoshlari kelgan ekan. U ba'zan b'Th'chol-kampirb'Th'dan xabar olib turardi.

Bu qizni har jihatdan Marvaridning aksi, deyish mumkin.

Hayvonlardan kasal yuqadi, deb umrida b'Th'Hayvonot bog'ib'Th'ga bormagan. Uydagi it bilan mushukka ham sal hurkib, ijirg'anib qaraydi.

Ko'chada, xiyobonda hech qachon qo'pol-dag'al xarrak ustiga o'tirmaydi.

To'q-to'kin oilada o'sgani butun xatti-harakatida seziladi. Choy ichganida - choy, ovqat yeganida - ovqat undan minnatdor bo'layoutganga o'xshaydi. Bunday qizlar haqida yigitlar, yegan-ichgani badanidan hovur bo'lib chiqsa kerak, deyishadi. Yomon o'yla borishdan o'zlarini tiyishadi.

Bokira bilan Marvarid kiyinishda ham biri-biridan farq qiladi. Marvarid toza-ozoda, lekin aksar eski kiyimda. Tartibga ham ko'p qaramaydi - egni bilan bosh va oyoq kiyimi rangi doim mos kelavermaydi. Bokiraning esa usti ilgakka ilib qo'yilgandek taassurot uyg'otadi. Boshidagi bo'rk qoshigacha bositgan - qiyofasidan o'tmish malikalarning suratini yodga soladi.

Albatta, Bokira b'Th'chol-kampirb'Th'dan xabar olgani kelib, qo'lini sovuq suvg'a urmaydi. Bunga uni qo'yishmaydi ham! Shunday latifa uchraydi. Bir chol bilan kampir kelinga saboq berishni o'ylab, uy ishlarini kim bajarishi ustida bahslasha boshlashibdi.

Shunda kelin: b'Th'To'xtanglar, - degan ekan. - Talashmanglar! Hamma ishni navbat bilan, bir kun siz, boshqa kuni siz qiling! b'Th' Bokira - shunaqa kelin bo'ladijan turqi bor.

Darvoqe, kelin...

b'Th'Chol-kampirb'Th' Bokirani o'z qizimiz, deyishardi. Ibrohim bilan uning boshini qovushtirib qo'yish niyatları yo'q emasdi.

Ko'pdan beri uuda shu gap aylanardi.

Ibrohim hali qat'iy qarorga kelmaganini aytib, faqat ojizgina bo'yin burayotgan edi.

U goh o'z uylari, goh qarindosh-urug' davrasida yoshlikdan Bokirani ko'rib-kuzatib yurganidan, tabiiyki, qizga nisbatan b'Th'begonalikb'Th' qilmas, bu qizni erkaroq o'sgani uchun tannoz deb ham bilmas edi. Bokira hozircha mehmon, xolos! Uy bekasiga b'Th'aylangachb'Th', ne-ne nozaninlar osmondan yerga tushmaydi. Sharoit taqozo qilsa, b'Th'qo'li kosov, sochi supurgib'Th' bo'lmaydi. Turmushning o'z yo'rig'i bor! Buning ustiga, Bokira, shubhasiz, aqlli, madaniyatli. Shahardagi koshonalarda o'tgan katta yig'inlar, anjumanlar, oliy maqomdag'i kishilar qatnashadigan tomoshalarga kanda qilmay borib turadi. Kerak bo'lsa, nutq ham irod qiladi. Bir so'z bilan, Bokira - yangi, zamonaviy shaxs! Marvarid esa - boshiga goh ro'mol tashlab, goh to'r qalpoq kiyib ham ketaveradigan, deylik, ming yillarda qaror qelgan oddiy-jo'n qiyofa!

Ibrohim ota-onha ra'yiga qarashi, ular bilan hisoblashishi kerak. Bokira bilan ham hisoblashishi kerak - b'Th'uydag'i gapb'Th'dan u xabardor, qiz bola, bildirmasa hamki, Ibrohimga ko'ngli moyil, ko'nglida shu xonadonni b'Th'tanlabb'Th' yuribdi. Ibrohimning yoshi o'ttizga borib qolgan, masalani uzil-kesil hal etish payti allaqachon yetgan. Ammo istihola uning yo'lini to'sayotgan edi. U Marvaridga b'Th'bog'lanibb'Th' qolganini ham ota-onasiga aytolmayotgan edi. b'Th'Ostonasi tillodan uyb'Th'ga kelin bo'lib tushayotgan qizning nasl-nasabi, qaysi daraxt mevasi ekanligini so'rab-bilish ota-onaning haqi-huquqi! Musulmonchilikda b'Th'ota-onasining tayini ham yo'qb'Th', b'Th'haromib'Th' yoki b'Th'valadi zinob'Th' degan gap keladi. Ota-onasi noma'lum bolaning (qizning) qayerdan, qanday bunyod bo'lganini bilmaysan. Shu bilan birga, uchragan yetimni, tamg'a bosgandek ish tutib haqorat qilish insofga kirmaydi. b'Th' Yetim qo'zi asrasang... b'Th' qabilidagi aybnomalar-ku, aniq nomard kishilardan chiqqan.

Musulmonchilikda yetim-esirlarga shafqat, ular boshini silash - ilk qatorda turadi. b'Th' Yetimlar, miskinlar va musofirlarb'Th' - bu uch so'z oyati karimalarda alohida ta'kidlangan! Ibrohim Bokiraning soyasiga ko'rpa to'shayotgan ota-onha ikki yo'ldan birini tanlab, Marvaridga quchoq ochishlariga ko'zi yetmaydi. Ularning ming xil fatvo-dalil keltirib, isyon ko'tarishlarini his etadi. Shuning uchun u vaqtini cho'zib, ishni paysalga solmoqda edi.

Odatda, qiz bolaning kechki payt uydan chiqishi qiyin.

Lekin yigitga ham oson ko'chavermaydi. Odobni buzmaslik, birovga ozor yetkazmaslikka majbursan.

O'sha kuni Ibrohim ota-onasi-yu, mehmon (Bokira)ning ko'nglini olib, ko'chaga sirg'alib chiqqunicha ma'lum muddat o'tgan edi. Yerga qor ko'rpa bo'lib to'shalgan, hamon bo'ralab yog'ayotgan edi.

Tanish bekat bo'm-bo'sh.

Ibrohim uchrashuvga kechikkan edi.

U Marvaridni qidirib, birga yurgan ko'chalarni aylana boshladi va...

beixtiyor b'Th'Hayvonot bog'ib'Th' eshigiga borib qoldi.

Uzoqdan qizning qorasini ko'rib, titrab ketdi.

Eshik berk. Ammo Marvarid devor-panjaraga bag'rini bosib, ichkariga mo'ralamoqda.

Ibrohim yaqinlashgach, payqadi:

qizning ko'zlarida bir olam hasrat aks etardi.

Yo'q! Ibrohim kutganiga zid, Marvarid o'pkalanmadı.

Shunchaki eshikka imo qilib, shikoyatlandi:

- Darrov berkitib qo'yishibdi!

Ro'y bergan holatdan ezilgan Ibrohim, buni bildirmay, erkalab:

- Keling. Tomosha o'rniqa bugun ikki hissa muzqaymoq yeymiz. Bo'ptimi?! - dedi.

- Bo'pti! - dedi Marvarid mutelik bilan.

Shu kuni Ibrohim, himoyaga muhtoj g'arib bir qizni himoyasiz, battar g'ariblikda qoldirolmashagini sezdi. U Bokira emas, Marvaridni yoqtirishini ham sezdi. Bexosdan hamma narsa xayolida oydinlashgandek bo'ldi. Mavridini topib, ota-onasiga yotig'i bilan ahvolni tushuntirishga, ularning qalbidagi вЂњmuzbЂќni eritishga qaror qildi.

Biroq Ibrohim bunga ulgurolmadi.

\* \* \*

Avtobusda shaharcha markazi, dengiz bo'yiga kelib, pochtaxonaga kirdi.

Tirikman, sog'man, deb uyga va Marvaridning yotoqxonasiga telegramma jo'natdi.

Keyin, batafsil xat ham yozdi.

Nihoyat, ko'nglida bir oz osoyishtalik tuyib, pochtaxonadan chiqdi.

Kech kirgan, havodagi hovur bositgan.

Shaharchada shug'ullanadigan biron kasbi-kor topishi kerakligini o'ylaganicha, sohil bo'ylab shoshmay yura boshladi.

Bir gap sira xayolidan ketmayotgan edi:

вЂњNafrat - shaytonning mulki!вЂќ

U o'z taqdiri haqida o'ylab, qayerdadir o'qigan bu gap yodiga tushgandi.

Sohil bo'ylab ketayotib, yana esladi:

вЂњQobil qizni sevardi, lekin Hobilga bermoqchi bo'ldilar. Qobil g'azab-nafratga to'lib (xusumat jihatidan) birodari Hobilni o'ldirdi.вЂќ

Demak, nafrat tarixi eng qadim, Odam Ato davridan boshlangan.

Demak, inson qonida nafrat (muhabbat bilan yonma-yon) avvaldan keladi.

Shuning barobarida, bora-bora dunyoda nafrat вЂњurchibвЂќ ketdi.

вЂњNafrat maktabibвЂќ degan tushuncha shakllangan. Shu nomda kitoblar ham bor. Bu - illatga emas, insonga nafrat tarbiyasidan iborat. Aslida, insonga bunday dars berish, insonni bu ruhda tarbiyalash jinoyatga tengdir.

G'ayrat Nusratu shotirlari ham, hatto bular bilan chiqishmagan Ibrohim ham shu maktabda o'qishgan. Bu maktab peshtoqiga:

вЂњKimki, bizga qarshi tursa, shartta-shartta otamiz!вЂќ deb oppa-ochiq yozib qo'yilgan. Ammo faqat Ibrohim emas, uning вЂњeski og'aynilarвЂќ emas, ancha mavqe egallagan o'sha G'ayrat Nusrat ham вЂњadashgan bandabвЂќlar, xolos. Katta bir daraxtdan shoxcha, xolos!

Daraxtning o'zi-chi?

Bir payt (kechagina, Ibrohimning bolalik, ilk yoshlik yillari edi), shunday siyosatchi вЂњdohiyibвЂќlar chiqdiki, ular olomonning nodonligidan foydalanib, ilg'or ziyoilarning millatparvarlik, vatanparvarlik tushunchasini o'ziga niqob qilib oldi. Eng avval, bu qayg'uli pok hissiyotni ommaviy tusga kiritdi. Keyin, go'yoki o'z millati, vatani manfaatini ko'zlab, rivoj topishga вЂњhalalibвЂќ berayotgan atrofdagi boshqa el-elatlarni buning uchun вЂњaybdorвЂќ qila boshladi. Shu yo'sin, bir odamni ikkinchisiga, bir xalqni ikkinchi xalqqa qarshi qo'yib, hammayoqqa adovat urug'ini sepdi. Odamlar qilt etmay jon berishga tayyor johil holatda qo'liga quroq oldi.

Dunyoning goh u-goh bu chekkasida вЂњniqobвЂќ yirtildi.

Jumladan, Olmoniyada vahshiy bir to'da ko'chaga, maydonga otildi. Sochlari ustara qirilgan, ko'pchilik yalangbosh edi. Ular har yer-har yerda to'planib, baqirib-chaqira boshladilar. Maydonlarda gulxan yoqdilar. Hech kimdan hayiqmay to'polon-tartibsizlik qilib, o'z hukmini o'tkazishga tushdilar. Yuz-ko'zlarida ularga yo'liqib shunchaki og'iz ochgan kishini yo'ldayoq вЂњnikkiga bo'lib tashlaydiganвЂќ bir ifoda muhrlangan edi. Ular вЂњfashistвЂќ deb nom oldilar. Dag'al etiklari bilan o't-alafni bosib, to'rt tomonga bostirib bora boshladilar. Lak-lak tirik jon o't-alafdek oyoq ostida qola boshladi.

Ana, hozir ham ba'zan Farangiston, ba'zan Amriqo, hatto Rusiyada, ayniqsa yana Olmoniyada xuddi kechagi vahshiy to'da qaytit bosh ko'tarishga urinayotgani ko'zga tashlanadi. вЂњYangi fashist (neofashist)вЂќlar vaqtி-vaqtி bilan ko'cha, maydonlarga chiqadilar. Ular goh Gitler, goh Stalin suratini qo'llarida ko'targan. Kiyimlarida, tutgan bayroqlarida aniq xoch shakli...

Bu gaplarning shu palla Ibrohimga keragi bormi?

Albatta.

Bir tomonidan, bu dunyo oldida banda xasdek yoki chumolidek bo'lsa-da, Butun Yerni yelkasida ko'tarib yurgandek holatni sezadi.

Kulasizmi, kuyasizmi inson qismati shu!

Ikkinci tomonidan, mohiyatan hayotda sariq chaqachalik ahamiyati yo'q вЂњqog'ozbozbЂќ bir idorada hayot bir maromda davom etayotgan, G'ayrat Nusrat xayoliga kelgan bema'nilikni qilib quturayotgan, atrofdagilar esa bu bedodlik qarshisida choraszlik, ojizlik sezib, qulga aylanayotgan edi. Ibrohim jamoaga вЂњsingishbЂќ o'rniqa barcha odatdagidek вЂњtinch yashashiga xalalibвЂќ bera boshladi. Muhimi, u itoatdan bosh burdi. Bu dunyoda hech bir eski muqim holat o'zgarishni istamaydi! Ibrohim faqat boshliq emas, ko'pchilikning noroziligini uyg'otdi. Mana, endi qochganiga qaramay, hamon xatarli holatda yuribdi. Orada nafrat tug'ilib, favqulodda sharoit yuzaga kelganida, afti-angori binoyidek kishilar fashist (yoki sadist) bo'lishi, g'isht qolipdan ko'chishi ham mumkin ekan!

Ibrohim hozir yana qanday savdolar chekida borligini bilmaganidek, bundan so'ng hayoti qay yo'sinda kechishini ham tasavvur qilolmayotgan edi.

Shu kayfiyatda u bandargohga kelib, ovqatlangani bir qahvaxonaga kirdi.

Qahvaxona deyarli bo'm-bo'sh, atigi uch-to'rt mijoz deraza oldida so'zlashib o'tirishardi. Ular Ibrohimga qiziqsinibmi, e'tibor beribmi qarashdi. Lekin bunga u ahamiyat bermadi. To'rdagi pastak sahnda sochlari yelkasini qoplagan yoshgina yigit yuzlab, balki minglab odam to'plangandek, zavqlanib-berilib qo'shiq kuylamoqda edi. Ibrohim yigitga yuzlangani zahoti negadir, olmon bo'lsa kerak, deb o'yladi. Va aksar bo'lganidek, beixtiyor sharqona ertaklari bilan nomi tarixda qolgan ValCh'gelCh'ym Haufni yana esladi.

Ayni damda, o'zicha iztiroblanib, iltijoli pichirlab ham qo'ydi:

- Xudoning o'zi madadkor bo'lsin!

\* \* \*

Xudoning o'zi madadkor bo'l sin...

Oldingi karvon emas, boshqa bir karvon - oradan taxminan ming yil o'tib, - dashti-sahroga yo'l olgan edi.

Sayyoohlar (savdogarlar, ziyoratchilar) tun bo'y iildam bosishardi. Kunduzi nihoyatda issiq, havo alangananib yotar, bir qadam surinish o'limdan qiyin. Tunlar aksincha, salqin, charaqlagan yulduzlar ham yo'l ko'rsatishar edi.

Har kuni oftob ko'tarila boshlashi bilan, ular to'xtab, chodir tiklashar, bir oz hordiq chiqargach, vaqtini tezroq o'tkazish uchun ko'rgan-kechirganlardan suhabat qurishardi.

Yo'lovchilardan har kim bir hikoya aytishi kerak edi.

Bag'dodlik Salim Barruh Laylak-xalifa to'g'risidagi hikoyasini tugatgan, balsorlik keksa savdogar Ahmadga navbat yetgan edi.

- Men sizlarga o'z hayotimdan bir voqeani aytib beraman, - dedi Ahmad. So'ng shoshmasdan hikoya qila boshladi:

- вЂњMening otam Balsorda mo"jazgina do'kon ochgan edi. U boy ham, kambag'al ham emas, o'rtahol kishilardan edi. Bor mulkini yo'qotishdan qo'rqb, o'zini ortiqcha urintirmas, biron tavakkal ishga qo'l urmas edi. Meni bolalikdan o'ziga yordamchi qilib olgan, halollik, to'g'rilikka o'rgatgan edi. Vaqtisi-soati kelib yoshim o'n sakkizga to'lganida, otam (aftidan, mening kelajagimni o'ylab) umrida ilk dafa dadil ish tutdi, dengizga savdo-sotiq uchun chiqayotgan kemaga ming tilla tikdi. U o'zining bunday jur'atlari xatti-harakatidan telbalanib qolgan bo'lса kerak, o'sha kunlariyoq joni uzildi. Oradan bir necha hafta o'tgach, otam (pul tikib) mato yuklatgan kema dengizda g'arq bo'lganini eshitdim va bu xabar yetib kelishidan oldinroq otamning dunyo bilan vidolashib qo'yaqolganiga shukr qildim. Men hali yosh, beparvo edim. G'am-hasrat meni bukmadi. Otamdan meros bor tanga-tillani belimga tugib, mendan hech ajralishni istamagan sodiq xizmatkorimiz (Ibrohim)ni yonimga oqanimcha, o'z baxtimni izlab olis safarga otlandim.

Biz esayotgan shamolga esh Balsor bandargohidan yo'lga tushdik. Mingan kemamiz Hindistonga qarab ravona bo'ldi.

Dengizda besh-o'n kun osoyishta yo'l kechganimizdan keyin, kema darg'asi kutilmaganda, bo'ronga duch kelayotganimizni aytди.

Darg'a ancha parishon. U chamasi dengizning ayni shu joydagи sharoiti, balandi-pastini bilmayotgan va bo'ronga yuzma-yuz turish uchun qurbi-tajribasi yetmayotgan edi. Uning buyrug'i bilan yelkanlar tushirilib, kema oqim ixtiyoriga topshirildi.

Tun kirdi. Sovuq. Osmonda esa oy porlar edi.

Ilk qarashda hech narsa ana-mana bo'ron boshlanishidan darak bermayotgan, darg'aning bashorati oqlanmayotgandi.

Xuddi shu palla bizning yonginamizdan oldin yaqin o'rtada ko'zga tashlanmagan bir kema shiddat bilan o'tib ketdi.

Biz xavotirlanib turgan bo'ron oldidagi dahshatluk sukulatda boyagi kema sahnidan kelgan vahshiy va xushchaqchaq qiyqiriqlar, allakimlarning baland tovushini eshitib, nima bo'layotganiga tushunmay men bahad ajablandim. Men bilan uzuq-yuluq so'zlashayotgan darg'aning-ku, kapalagi uchgan, hol-madori qochgan edi. вЂњBu ajaldan boshqa narsa emas! - deb xitob qildi u. - Kemamni Xudo urdi! вЂњ Darg'a nega bunday deyayotganini endigina so'rab aniqlamoqchi edim, yonimizga dengizchilar dabdurustdan yoqa yirtib, yugurib kelishdi. вЂњKo'rdinglarmi?! - nido qilishdi ular jon holatda. - Bizning kunimiz bitdi! вЂњ Darg'a kemani o'zi boshqarmoqchi bo'lib, barchadan qur'on o'qish, ichida kalima keltirishni so'radi. Lekin bunga ulgurib-ulgurmay, kuchli bo'ron qo'zg'alib, suv kira boshlagan kema chok-chokidan so'kildi.

Suvga darhol qayiqlar tushirildi va eng so'nggi kishi qutulishi asnosida, bizning ko'z oldimizda kemamiz dengiz tubiga cho'kib ketdi.

Men hamma qatori bor bisotimdan mosuvo holda, yalang dengizda qoldim.

Bu bilan ish tugamagan edi.

Bo'ron dam sayin quturib-avjiga minib, qayiqni o'yinga sola boshladi. Men va kelib pinjimga kirgan keksa xizmatkorim (Ibrohim) bir-birimizga yopishib, avvaldan mehrli bo'lsak-da, so'nggi nafasgacha ajralmaslikka ont ichdik.

Axiyri, tong ota boshladi. Kun qizarib chiqayotganida, qayig'imizni shamol qanotida ko'tarib bir yoqlarga surib-uloqtirib tashladi. Men telegramda qayiqlarda bo'lgan hamrohlariimizdan birontasini shundan so'ng qaytib ko'rmadim.

Qayiq bir gal pista po'chog'i bo'lib o'ynaganida hushimdan ketgan ekanman, qayiqni ham, meni ham qo'yvormay balo-qazodan saqlagan keksa xizmatkorim (Ibrohim)ning bag'rida o'zimga keldim.

Bo'ron tingen edi. O'z kemamiz janozasi o'qilganini ko'zimiz bilan ko'rgan, bu ayon edi, lekin taajjubki, bizning qiyig'imizdan sal narida bir kema turibdi. Yaqinlashganimizda, uni tanidim, tunda darg'ani vahimaga solib shiddat bilan yonimizdan o'tib ketgan haligi kema edi. Unga qaraganimdayoq yuragim vahimaga to'lgan bo'lsa, u yerda biron jon asari sezilmayotganidan, tars yoriladigan holga keldi. Shuning barobarida, uchragan kema bizni qutqarsa qutqarishi mumkin yagona umid dargohi edi va biz yo Muhammad! - deb g'ayratlanishga majbur edik. Shunday qildik ham. Qo'llarimiz, oyoqlarimizni ishga solib, kemaga intildik va ko'p o'tmay, uning ko'lankasiga borib qoldik. Men kuchim boricha ovoz berdim, ammo kema tomonidan hech bir sas-sado eshitilmadi.

Kemaning burun tarafida uzun arqon osig'liq edi. Men unga chirmashib, kemaga ko'tarildim.

Yohu! Bu ne hol!? Kema sahniga chiqib oqanimda duch kelganimni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Butun sahn qonga belangan, turkiy-arabiylibosga o'rangan yigirma-o'ttiz kishining jasadi uzala-cho'zila yotar edi. Kemaning bosh ustunida bashang kiyingan, qo'lida tig', rangi o'chiq, ko'zlar baqraygancha qotgan yana bir odam jasadi. U ustunga peshonasiga qoqilgan katta mix bilan biriktirib qo'yilgan edi. Oyoqlarim bo'shashib, esxonam chiqib ketdi.

Mendan keyin xizmatkorim (Ibrohim) kemaga ko'tarildi. Tirik bir jon emas, mozoristonni ko'rib, uning ham joni tovoniga tushgandek bo'ldi.

Biz duo o'qib, payg'ambarimiz ruhi poklari qo'llashini tilab, kemani ko'zdan kechirishga qaror qildik.

Har qadamda yana bir dahshatlil hol ro'y bermasmikan, deb orqa-o'ngimizga qarar, o'zi-o'zimizdan xavotirlanar edik. Biroq atrofda dengiz sokin chayqalib yotar, kemada ham og'ir sukunat hukmron edi. Bu jumjiltlikda biz tovush chiqarishga ham qo'rqrar edik.

Nazarimizda, ustunga mixlangan darg'a jasadi so'nik ko'zlar bilan bizni ta'qib qilayotgandek, sahnda yotganlardan kimdir tuyqusdan boshini ko'taradigandek edi.

Shu holatda pastki qavatga olib tushadigan zina oldiga yetib keldik. Ikkimiz ham to'xtab, biri-birimizga tikildik. Xayolimizdan o'tganini tilga ko'chirishga botinmayotgan edik.

- Ulug'im! - dedi nihoyat sodiq xizmatkorim. - Kemada xunrezlik bo'lgani ko'riniib turibdi. Lekin pastda mabodo qotillar tiqilib yotgan taqdirda ham, men bu yerdagi murdalar bilan uzoq muloqtdan ko'ra, o'shalar bilan uchrashishni afzalroq, deb o'layapman.

Men ham ochig'i, shunday fikrda edim.

Biz o'zimizni qo'lga olsak-da, hayajonlanib zinadan pastga tushdik. Bu yerda bizning faqat oyoq tovushimiz eshitilayotgan edi. Xonalardan biri eshigi oldiga keldik. Eshikka qulog'imni qo'yib, diqqat qildim - jimjit. Eshikni ochdim.

Xonada hamma narsa - qurol, kiyim-kechak, har xil buyumlar - oyoq ostida, atrofda tartibsiz sochilib yotar edi. Ozgina muddat ilgari darg'ami, yordamchilarimi xonaning changini chiqarib badmastlik qilishgan bo'lsa kerak, hatto dasturxonagi idishlar yig'ishtirilmagandi.

Biz yo'lakdan-yo'lakka, xonadan-xonaga o'ta boshladik va yo tavba! - hammayoqda marvarid, ipak, qop-qop shakar, boshqa boyliklar taxtlanib, to'lib-toshib yotganini ko'rdik. Men yosh, serhayajon bo'lganimdan, kimsasiz qolgan bu kemadagi egasiz butun mulk endi menga buyurar ekan, deb o'ylab xushnudlik sezdim. Lekin keksa Ibrohim hali suyunishga erta, quruqlikdan juda olisda bo'lishimiz mumkinligi-yu, birovning yordamisiz, yolg'iz holda ish tutish qiyin ekanligini eslatib, badanimni bir oz sovutdi.

Bu yerdagi mo'l-serob noz-ne'matlar, sharbatlardan tanovvul qilib, qornimizni to'yg'azib, qaytib sahnga chiqdik. Jasadlarga qarab, bizni yana g'am bosdi. Ularni dengizga tashlab xalos bo'lishga shaxtlandik va shu damda jonimiz halqumimizga kelib tiqildi.

Loshlardan bironatasini o'rnidan qimirlatishning iloji yo'q edi. Ular kema sahniga yopishib qolgan, ostidagi taxta bilan kesim-kesim qo'porib-ko'chirishga to'g'ri kelar, bu xatarli va buning uchun bizda yaxshi bir arra-teshaning o'zi yo'q edi. Ustundagi darg'anii ham qimirlatolmadik. Hatto uning qo'lidagi tig'ni tortib olishga kuchimiz yetmadi.

Kunni alam-hasrat bilan o'tkazib, kech kirganida keksa Ibrohimga uxbat-nafas rostlab olishni buyurganimcha, o'zim biron yoqdan yordam yetib kelmasmikan, deb kema sahnida navbatchilik qilishga chog'landim. Ammo oy chiqib, taxminan tun yarmiga borganida, meni qattiq uyqu bosib, shunchaki bir mundining orqasida cho'kkalagancha, pinakka ketdim. Endi ko'zim ilina boshlagan edi, bexos hushyor tortdim. Zeroki, shu soniyada yelkanlar shamolda shitirlab, kema to'shiga to'lqinlar shaloplab urilayotganini aniq eshitdim. Keyin, dabdurustdan qadamlar tovushi, odamlar ovozi ham eshitila boshladni.

Men o'rniidan sapchib turmoqchi, atrofga qaramoqchi edim, lekin qandaydir mubham kuch ko'zimni ochishimga ham, qimirlashimga ham yo'l bermadi. Shovqin-suron esa kuchayib bormoqda edi. Nazarimda, dengizchilar kema sahnida yugurib-elib, baqirib-chaqirgancha, o'z vazifalarini bajarishmoqda edi. Kimningdir burro tilda ularga buyruq berayotganini ham payqadim.

Arqonlar tarang tortilib, barcha yelkanlar ishga tushirilganini ham his etdim. Uyqu domiga tortib, boshim dam sayin og'irlashmoqda edi. Biri-biri bilan chaqishgan tig'lar, shamshirlar jarangi qulog'imga chalingan bir holatda, nihoyat qotib qoldim. Allaqaqachon chiqib yoyilgan oftob yuz-ko'zimga tushganida uyg'ondim. O'rniidan turib, u yon-bu yonga qaradim. Kema sahnida manzara o'sha-o'sha, jasadlar sochilib yotar, ustunga mixlab qo'yilgan darg'a ham o'z o'rnda edi. Bo'ron, tunda eshitilgan suron menga tushdek tuyuldi. O'zimcha kulib qo'yib, Ibrohimni qidira boshladim.

Xizmatkor darg'aga tegishli xonada faromushlanib o'tirardi.

- Ulug'im! - dedi kirib kelganimda, nadomat bilan. - Men bu jinni kemada yana bir kechani o'tkazgandan ko'ra naq dengiz tubida baliqlarga yem bo'lishga ming karra rozi edim! - Undan shikoyat boisini so'raganimda, bunday javob qildi: - Uch-to'rt soat uxlaganimdan keyin uyg'onib, boshim ustida tapir-tupur tovushlarni eshitdim. Avvalida siz yuguryapsiz, deb o'yladim. Lekin qarasam, to'pillayotgan yigirmatadan oz odam emas, buning ustiga, har xil qiyqiriq-qichqiriqlar ham diqqatimni tortdi. Ko'p o'tmay, zina tomondan oyoq tovushi baralla eshitila boshladni. Ana shu paytdan boshim g'uvillab qoldi, xud-bexud uzuq-yuluq bir narsalarni ko'rganga o'xshayman. Nima chin, nima ro'yo, bilmayman. Haligi ustunga birikkan kishi xuddi mana, bu yerda, dasturxon yonida o'tirib, may ichib, g'azalxonlik qildi. Tepada, uning yaqinida yotgan qirmizi nimchali kishi ham kelib, to'rdan joy olib, u bilan birga may sipqordi! - Keksa xizmatkor menga shularni aytib berdi.

Birodarlar! Yuragim-bechora endi ro'yi-rost qinidan chiqdi, desam gapimga ishonsanglar kerak. Men o'zi-o'zimni aldashimga ehtiyoj qolmagandi, murdalar tunda tirliganini ko'rganimga shubhalanish ortiqcha edi. Albatta, bunday jamoa bilan bir kemada sayri-safar qilishning maroqli-gashtli joyi yo'q edi!

Mening Ibrohimim yana g'amgin xayolga botdi. So'ng qo'qqisdan b'Thesladim! B'Tk deb yubordi. U dunyo kezib, dunyo ko'rgan o'z bobosining shayton vasvasasi va xurujini daf etadigan duoixayrini eslagan ekan. Keksa xizmatkorim yana menga sidqidildan, ixlos bilan Qur'on tilovat qilsak, bu kecha sehr-jodudan qutulishimizga yo'l ochilishini uqtirdi. Uning taklifi meni suyuntirdi.

Shuning barobarida, biz xavotir ichida kech kirishini kuta boshladik. Darg'aning xonasi yonida kichik bir bo'lma bor, biz shu yerda berkinadigan bo'ldik. Xona ichi ko'rindigan qilib, shu tomonga kattagina bir necha tuyruk ochdik. Keyin, bo'lma eshagini ichkaridan yopib, mustahkam tambaladik. Ibrohim bo'lma shiftining to'rt burchiga Rasuli Akramning muborak ismlarini yozib qo'ysi. Shu taxlit biz falokatli tunni qarshilashga shaylandik.

Taxminan yana tun yarmiga borganida, mening ko'zlarim o'zi-o'zidan yumila boshladni. Xizmatkorim Qur'on o'qishimni so'radi. O'qiganim sayin ruhim yorishib, ko'nglim ravshan tortib, sergaklandim.

Shu fursatda tepada jonlanish sezildi. Arqonlar g'iyqillab, kema surinib, kema sahnidan oyoq tovushlari-yu, har xil ovozlar yetib kela boshladni. Biz bir oz jon hovuchlab turgach, kimdir zinadan pastga tushayotgani sharpasi eshitildi. Shunda, keksa hamrohim o'z bobosidan o'rgangan duoi xayrni o'qishga tushdi:

Osmonturga uchmaysizmi,  
Yer qa'riga tushmaysizmi,  
Dengiz tubin quchmaysizmi,  
Bo'ronlarda ko'chmaysizmi -  
Yaratgandan bo'lak kim bor?!

Sizga Yolg'iz U Madadkor!

Tilovat, ibodat-iltijo - boshqa, duoixayrlar, azoyimxonliklarga men ko'p ishonavermas edim. Shu bois, yonimizdag'i xona eshigi ochilganida, tepe sochim tik bo'ldi. Xonaga kunduzi ustunga birikkan xushqomat kishi kirdi. Uning peshonasidagi mix olib tashlanmagan, biroq qo'lidagi tig' qingga solingenmi, ko'rindayotgan edi. Unga ergashib sipo kiyingan yana bir kishi - tepada, uning yaqinida yotgan biri keldi. Xonaga dastlab kirgan darg'a uzun qora soqol qo'ygan bo'lsa-da, rangi zahil edi. U ko'zlar chaqchayib, har yoqqa alang-jalang nigoh tashladi. Shundoq yonginamizdan o'tib ketganida, men uni bemalol kuzatdim, u esa biz berkingan bo'lma unchalik ahamiyat bermadi. Darg'a bilan unga ergashgan kishi xona o'rtasidan joy olishib, biz tushunmagan tilda asabiy, baland tovushda, hatto baqirib gaplasha boshlashdi. Yuqori pardaga ko'tarila borgan ovozlar xona devorlarini titratib,

nihoyat darg'azab darg'a xontaxtaga mushtini urdi. Biroq uning suhabatdoshi qah-qah otib kulganicha, o'rnidan turdi va darg'adan unga ergashishini so'rabb, yuqoriga imo qildi. Darg'a ham o'rnidan sapchib, qindan tig' chiqardi. Ular izma-iz xonani tark etishdi. Biz ular g'oyib bo'lishganidan sal yengil nafas oldik. Ammo bizning notinchligimiz hadeganda tugamadi. Kema sahnida uryonsuron boshlangan edi. Tepadan ancha payt yugur-yugur, hayqiriq, kulgi va dod-faryodlar eshitilib turdi. Axiyri, xuddi kema tars yorilib ketadigan jahannam shovqini ko'tarilib, qilichlar jarangiga aralash hammayoq go'yo ostin-ustun bo'lidi va... birdan qaytib zil-zambil sukunat cho'kdi. Oradan jilla vaqt o'tib kema sahniga ko'tarilganimizda, hamma narsa avvalgidek - chor atrofqa qon sachragan, jasadlar tarasha bo'lib qotgan edi.

Kemada bir necha kunni shu ahvolda o'tkazdir. Mening hisobim bo'yicha quruqlik (er) Sharq tomonda edi va kema shu yoqqa qarab borar edi. Lekin hamma balo shundaki, kunduzi ancha-muncha masofa bosib, kechalari u keskin orqaga surinib ketganga o'xshardi. Harholda, oftob chiqqanida biz o'zimizning eski joyimizda ekanligimizni sezardik - ehtimolki, kema ahli tunda butun yelkanlarni ishga solib, oldingi joyga qaytib kelishga erishardi.

Biz bu dahmazadan qutulish uchun kech kirishi oldidan yelkanlarni bog'lab, e'tiqod bilan charm o'ramasiga yana Rasuli Akramning muborak ismlarini yozdik va xizmatkorim taklifiga ko'ra, bobosi duoi xayrini ham qo'shib qo'yib, shu charm bilan barcha yelkanlarni qoplab tashladik. O'zimizning bo'lmda bu yog'i nima bo'lshini intiq kuta boshladik. O'sha kecha arvochlар har qachongidan ham yuz chandon jazavaga tushishdi. Lekin ajabo! - ertasi kuni tongda yelkanlar bog'liq - biz mahkamlagan holda turganini ko'rdik. Va endi kema bir maromda suzishi uchun kunduzlari yelkanlarni yetarli darajda ochadigan bo'lqid. Shunday qilib, besh kun ichida ancha ilgariladik.

Oltinchi kuni nihoyat, uzoqdan quruqlik ko'rindi.

Subhi sodiq edi.

Mo"jiza ro'y berib, jon saqlaganimiz uchun Alloh va Uning Rasuliga hamdu sanolar aytdik.

O'sha kun va o'sha tun qirg'oq bo'ylab suzdik va yettinchi kuni ertalab qarshimizda shahar qorasiga ko'zimiz tushdi. Mashaqqat bilan langar tashladik, xayriyat u o'rnashdi. Biz kema sahnidagi qayqlardan birini suvgga tushirdik. Keyin, zo'r berib eshkak eshib, shahar tomon suzdik. Yarim soatcha vaqt o'tgach, dengizga kelib tutashgan daryoga yetib olgancha, qirg'oqa ko'tarildik.

Darvozaxonada bizning qadam qo'yganimiz hind shaharlaridan bira ekanligini aniqladik. Aslida, bu biz safar qilishni mo'ljallagan joydan uncha uzoq emasdi.

Karvonsaroya borib, g'urbatlari sayohatimizdan keyin o'zi-o'zimizni siylab, ziyofat qildik. Shu yerda donishmand, ammo (xizmatkorimning ko'ngli to'lsin uchun) sehr-joduni ham bilgan bir kishini qayerdan, qanday topish mumkinligini saroybondan so'radim. U meni shahar chetidagi ko'rimsiz bir hovliga boshlab keldi. Eshikni taqillatib ichkariga kirganimda Mulley degan kishini surishtirishim kerakligini aytdi.

Hovlida meni burni uzun, oppoq soqollki kimsa qarshilab, nega kelganimga qiziqsindi. Donishmand Mulleyni qidirayotganimni bildirdim. Mulley uning o'zi ekan. Men unga kemadagi sharoitni tushuntirib, maslahat so'radim.

Bu dengizchilar qabih bir qilmishlari uchun dengizda tentirashga mahkum etilgan, dedi u menga. Ularning boshlari yerga tekkan zahoti alahlashlari tugaydi, lekin buning uchun (biz oldin o'ylaganimizdek) ularni yotgan taxtalari bilan qo'porib yerga olib tushish kerak, dedi yana chol. Keyin, donishmand Xudo oldida ham, insof yuzasidan ham topib olingen kema va butun boyligi menga halol, meniki bo'lishiga haqli ekanligimi tasdiqladi. Faqat, bu gapni hammaga doston qilib yurmasligimni tayinladi. Shunday so'ng, u serob davlatimdan kichik bir ulush sovg'a qilsam, o'z qullari bilan borib jasadlarni olib tushishga yordam berishini aytdi. Men unga o'zi xohlaganicha boylik in'om etishimni aytdim. Va biz arra, bolta ko'tarib olgan beshta qul hamrohligida yo'lga tushdik. Yo'lida Mulley, men bilan xizmatkorim (Ibrohim) Qur'onga murojaat qilib, yelkanlarga muqaddas so'zlarni yozganimizdan ta'sirlanib, zavqlandi. U, biz uchun bu yagona najot yo'li bo'lganligini ta'kidladi.

Kemaga yetib kelganimizda vaqt peshinga borgan edi. Ko'plashib ishga kirishdir. Hash-pash demay, jasadlardan to'rttasi kichik bir qayiqqa joylashtirildi. Qullarga ularni olib borib ko'mish topshirilgan edi. Tezda qaytib kelgan qullar jasadlarni dafn etishga ehtiyoj bo'limgani, yerga qo'yishgani zahoti ular bir hovuch tuproqqa aylanishganini ma'lum qilishdi. Biz taxtalarni ko'chira boshladik va kechgacha barcha jasadlarni yerga yetkazishga ulgurdik. Birgina bosh ustundagi jasad qolgan edi. Biz mixni taxtadan sug'urib-ajratib olishga qancha urinmaylik, bu ishdan hech natija chiqmadi. Mix o'nidan qilcha ham surilmas edi. Mening boshim qotgandi. Axir, darg'an yerga olib borish uchun kemani tutib - butun saqlab turgan ustunni kesmaysan-ku!

Bu tashvishdan ham meni Mulley qutqardi. U qullaridan biriga darhol qirg'oqqa borib, bir idishda tuproq keltirishni buyurdi.

Tuproq olib kelingach, sohir-donishmand allanimalarni pichirlab, kufladi. Keyin, tuproqni jasadning boshiga to'kdi. Darg'a shu ondayoq ko'zlarini pirpiratib, chuqr nafas oldi va mixni yonlab uning manglayidagi jirohatdan yuziga issiq qon sizib oqa boshladik. Biz endi mixni osonlikcha sug'urdir. Yarador darg'a qullardan birining qo'liga yiqildi.

- Meni kim o'nimdan qo'zg'adi?! - deb so'radi u, hushini yig'ib. Menga Mulley ishora qilib qo'ygach, darg'aga yaqinlashdim. - Ey notanish zot, tashakkur senga. Sen meni ko'p yillik azob-uqubatdan qutqarding, - dedi u. - Ellik yildirki, mening tanim dengizda suzib, bezovta ruhim tunlari unga hamrohdir. Mana endi ruhim tinchib, boshim yerga tegadigan bo'lidi. Ota-bobolardan meros so'nggi makonga bora olaman.

Men undan bu sargardonlik sababini gapirib berishini so'radim. U yana tilga kirdi:

- Bundan ellik yil burun Jazoirda yashar, davra ko'rgan, erka, bedard edim. Ochko'zligim, nafsi badligim meni bir kemani qo'lga kiritib, shu kemada hukmimni o'tkazgancha, dengizda qaroqchilik qilib yurishga undadi. Ma'lum muddat shu kasbi-kor bilan shug'ullandim. Kibru havoga to'lgan paytim edi, Zanta degan joyda puli-moli yo'q bir darvesh-qalandar kemaga mindi. Kemada ayovsiz-dag'al jamoa to'planganimizdan, qalandarning rutbasi bilan hech kim hisoblashgisi ham kelmadi. Men esa hatto uning ustidan masxara qilib kuladigan bo'ldim. U boshda indamadi, o'zini bosiq tutdi. So'ng bir kuni ko'pirib ketib, achchiq gapirdi, noloyiq, qabih, gunoh ishga berilganimni mening yuzimga soldi. O'sha soniya men ham unga hech narsa demadim. Biroq tunda yordamchim bilan ichib o'tirib, pirning tanbehi bexos yodimga tushdi va qonim qaynab ketdi. Sultonlar aytilishga botinmaydigan malomat gapni menga shu sassiq bir gado aytganiga chidab ketaveramanmi, deb o'ylab, qattiq g'azablanguanimcha, kema sahniga yugurib chiqdim. Uning ko'ksiga tig' sanchdim. U jon berayotib, meni va barcha sheriklarimni qarg'adi. Boshimiz tuproq iskamagunicha bizga hayot ham, o'lim ham nasib qilmasligini aytdi. Biz hamon undan kulib, loshini dengizga tashladik. Yohu! Shu tundayoq uning bashorati amalga oshdi. Odamlarimdan bir guruhi menga qarshi isyon ko'tardi. Tarafdarlarim tengsiz olishuvda ulardan yengilishdi va ular meni tutib, ustunga mixlashdi.

Shunday so'ng, hamma biri-birini chavoqlashga tushib, kemada tirik jon qolmadi. Mening ham nafas olishim to'xtab, joni chiqqandek edi. Biroq men ham, boshqalar ham karaxtlangan ekanmiz, xolos. Navbatdag'i tun kelib, biz darvesh-qalandarni

dengizga tashlagan vaqt yetganida, hamma qaytib tirildi. Biz odatdagagi hayotni davom ettirayotgandek edik, shuning barobarida, fojiali ayni o'sha tundagi manzara birdek qaytarila boshlagan, taqdir bizning xatti-harakatimizni kishanlab tashlagan edi. Oy-yillar o'tib, na tirik, na o'lik dengizda oqib yurgan edik. Yerga yaqinlashishga umid yo'q, bo'ronga yuzlanib, barcha yelkanlarni ochib, o'zni har yon otganimiz, suv ostidagi toshlarga urilib parchalanib ketishni kutganimizning ham foydasi yo'q - dengiz tubiga ham bosh qo'yolmayotgan edik. Ming shurkrki, endi jon taslim qilish mumkin. Minnadtorman sendan, xaloskorim! Sen g'oyibdan kelib, meni qutqarding. Bu kema, mol-mulk senga omad keltirsin. Buyursin.

Shularni deb, darg'a boshini egdi. Shu damdayoq joni uzilib, sheriklari singari u ham bir hovuch tuproqqa aylandi. Biz uning xokini bir qutiga solib, boshqalar qatori yerga olib borib topshirdik.

Men shaharda yollagan hunarmandlar kemaning kam-ko'stini tuzatishdi. Kemedagi ortiqcha yukni katta foyda bilan turli matolar, ashyolarga almashtirdim. Qadrdon tanishim Mulleyga mehribonlik ko'rgazdim va nihoyat, yangi kema xizmatchilari topib, o'z vatanimga yo'l oldim. Yo'lida shoshmay har xil mamlakatlardan orollargacha to'xtab, savdo bilan shug'ullandim. To'qqiz oy deganda Balsorga yetib keldim. Yo payg'ambar! Ishim yurishib, baxtiqaro darg'a qoldirgan naqdina-meros ikki hissa oshgan edi. Menga buyurgan omad, mening davlatimni ko'rib, vatandoshlarim bu odam mashhur dengizchi Sindbodning g'ordagi oltinlarini qo'lga kiritgan bo'lsa kerak, deb gumon qilishdi. Men ularni bu fikridan qaytarmadim. Shu paytdan balsorlik o'n sakkiz yoshga to'lgan yigitlar baxt izlab, safar qilishga odatlanishdi. Men ularni ham bu shashtidan qaytarolmadim.

Mana, endi osoyishtaroq yashaydigan bo'ldim. Lekin har besh yilda bir Makkaga, hajga borib, bizga doim o'zi madadkor allohimga shukrona aytaman. Rahmli va mehribon allohdan o'sha kema darg'asining ham gunohini o'zi mag'firat qilishini so'rayman...вЂЌ

\* \* \*

Ibrohim qahvaxonada derazaga, deraza orqali moviy dengizga tikilib o'tirganicha, Haufning ertak-hikoyatini eslab, dunyoga kelib guldek ochilmay so'lgan bu yigitcha ehtimol, islom dinini rasman qabul qilmagandir, lekin u mo'min-musulmon edi, bo'lmasa buni shunchalik e'tiqodli ruhda yozolmasdi, deb o'yladi. Yana o'sha ertak-hikoyat ta'sirida xayolidan kechirdi: вЂњHar qanday yovuzlik nomusulmonlikdir! Har qanday yovuz xatti-harakat uchun odam javob berishga mustahiq ekanligi barhaq! Balki, men ham bilib-bilmay yovuzlik qilganimdan jazoga tortilayotgandirman? Poco Parvardigoro, O'zing mag'firat qil!вЂЌ

To'rdagi pastak sahnda sochlari yelkasini qoplagan xonanda hamon berilib turli tillarda qo'shiq kuylamoqda edi.

Deraza yaqinida, yorug'likda o'tirgan yigitlardan biri o'rnidan turib, kutilmaganda Ibrohimning yoniga keldi:

- Kechirasiz. Siz kim, qayerdansiz?
- O'zbekistondan. O'zbek, - dedi Ibrohim.
- Sayohatga kelganmidingiz?
- Yo'q. Sargardonlik, - ochig'ini aytди Ibrohim.
- Bu yoqqa yuring-chi, - sheriklari o'tirgan tomon ishora qildi yigit.

Ibrohim yigitlar qo'shiq tinglab past tovushda suhabat qurayotgan davraga borib qo'shildi.

- Biz turkiy qabila. O'z qavmimizga mansub kishilarga befarq qaramaymiz, - dedi yoshi kattaroq yigit. - Keling, qo'lni ko'krakka qo'yib, samimiy gaplashaylik. Safardan maqsad?
- Men safar qilganim yo'q. Meni to'lqinlar shu qirg'oqqa keltirib tashladi.
- Vatanda ahvolingiz qanday edi?
- O'zim-o'zimga boshog'riqni вЂњsotib olmaguncha вЂќ tinch yurgan edim... Oliy ma'lumotim bor. Harbiy xizmatni ham o'taganman. Ma'lum muddat вЂњIqtisod va siyosatвЂќ degan idorada ishladim. Lekin so'nggi paytlar qora ishchi edim.

- Bandargohda ishlaysiz. Yuk tashuvchi kerak. Bu vaqtincha! Sizni kuzatmoqchimiz! Taklif ma'qul bo'lsa, bizning idoramiz shu yerdan ikki bino narida, ertalab uchraysiz... Istamasangiz, yo'lingiz ochiq, faqat biling, shaharda ekansiz, shu damdan boshlab baribir, siz bizning ko'zimiz ostidasiz...

- O'ylab ko'raman, - dedi Ibrohim.

U shaharda ilk dafa ko'chaga chiqqanidayoq bu yigitlarga yuzlashgani yomonlik nishonasimi yoki yaxshilik alomatimi, bilmayotgan edi. Tirikchilikni amallah kerak, shuning barobarida, hamma narsa mavhum ekanlididan, boshpana singari mana, darrov ish ham topilganiga ortiqcha suyunmayotgan edi. Uning jismi-jonini hali bezovtalik, vahm tark etmagan.

Yigitlar turkiy lisonda, ammo tildan ko'ra ko'proq allaqanday вЂњtomodqandavЂќ so'zlagan edi. Ayrim so'zlarni Ibrohim shunchaki tusmollagan, shunga qaramay, gapning mazmuniga tushungandi. Uning o'zbek tilidagi nutqiga yigitlar ham tushunishgani ko'rini turardi.

Sohil bo'ylab bandargohni, langar tashlagan ulkan kemalar, yaqin-olisda suzayotgan qayiqlarni bir oz tomosha qilib yurdi. Ko'cha oxirida topaliklar, ularga tutash - qorli tog'lar yuksalgan edi.

Nihoyat, ijara uyga qaytib keldi.

5

Qachon uxbab qolganini bilmaydi.

Qarasa, ro'parada pastga engan qandaydir uzun zina.

U zinadan tusha boshladi. Oyoq bosgani sayin atrof-olam qorong'ilashib, zim-ziyo bo'layotgan edi.

Axiyri, tor yo'lakka o'xhash bir joy ko'rindi.

To'rda katta-vazmin eshik.

Ochdi.

Keng-mo'l xonada birgina sham miltillar edi.

Ibrohim ichkari kirib, toliqqanidan sham oldida cho'kdi.

Shu payt birov uni yelkasidan tutib, qaytib oyoqqa qo'ydi.

Ibrohim qaradi.

Uning qarshisida farishtadek oq kiygan choyxonachi chol turar edi.

- Siz bu yerga qanday kelib qoldingiz? - deb ajablandi Ibrohim.

- Men hamma yerda borman. Men Nuhman!

- Nuh? - badtar ajablandi Ibrohim.

- Dunyoda bir hikmat bor. B'Thoshqindek falokat yaqin, insonlar, to'xtanglar, hushyor bo'linglar, gunohlardan asranninglar, tiyilinglar! B'Tk deydigan kishi doim kerak. Vaqtı-vaqtı bilan shundoq kishilar chiqadi. Ular borliqni g'aflatdan, yovuzlikdan poklaydi. Bundaylar qachon, qayerda bo'lmasin, ismi Nuh!
- Men tushundim. Yopirilgan balo-qazodan siz meni himoyatingizga oldingiz.
- Himoyat xudodan! - dedi qariya. - Mening vazifam faqat ogohlantirish.
- Ochig'i, xom sut emgan banda, og'aynilarim bilan ish bu darajaga boradi, deb o'ylamagan edim. Nazarimda, ular yomon odam emasdi. To'g'ri, ular avvaldan har biri o'z yo'lida o'rtacha iste'dodli, ba'zan iste'dodsiz, lekin chaqqonmi-korchalonmi, halol-haromga qaramay imkoniyat yaratib, yayrab yashashni yoqtirgan yigitlar edi. Biri-biriga halqadek bog'lanib, atrofdagi odamlar hayoti, taqdirini hal qiluvchi guruuga aylanishgandi. Ulardan qay biriga insoniy yuksak, muqaddas tushunchalar bobida so'zlasang, ko'zida sovuq bir uchqun chaqnar edi. Ularning ichiqora ekanligi, menga tuzoq qo'yishi mumkinligini xayolimga keltirmagandim. Mana, endi holim xarob. Uyim kuydi. Qachongacha sarson-sargardon kezaman? Ota-onam, singillarim, ukalarim ahvoli nima kechadi? Marvarid mensiz qanday yashaydi? Bilmayman.
- Sarson-sargardonlik qismat. Sizga osoyishtalik, farog'at harom. Albatta, haliyam orqaga qaytish, tiz cho'kib tavba qilish imkonim topiladi. Yengish yo yengilish ruhga, ishonch-e'tiqodga bog'liq. Dunyoda har kim ham sobit bo'lavermaydi. Ammo siz unday qilolmaysiz! U holda siz hozirgidan boshqa qiyofa kasb etasiz. Sharoitga qarab tusini o'zgartirgan buqalamunga aylanasiz... Sham nogoh lap etib so'ndi.

Qariya qayoqqadir g'oyib bo'ldi.

Teatr sahnasidagi bezaklar singari xona ham yo'qolgan edi.

Ibrohimning ko'zi qorong'iga ko'nika boshladi.

Boshini ko'tarib, yulduzlar charaqlagan osmonni ko'rdi.

U sahroda, naq qum tepaliklari orasida turgandek edi.

Bexos huv baland tepalikda sudralgan bir karvonga ko'zi tushdi.

Ibrohim tuyakashlarga yaqinlashib, e'tibor berdi. Karvon shu qadar boy, shu qadar boyki! Tuyalar ustidagi yopqichlargacha yaltir-yultir, osmondag'i yulduzlar yerga duv to'kilgandek! Bular qayoqdan kelib, qayoqqa ketayapti? Butun mamlakat boyligini bir yoqlarga olib ketayaptimi yoki boshqa yerlardan mamlakatga boylik olib kelayaptimi?

Ibrohim karvomboshiga yuzlanib, qo'lini ko'ksiga qo'yganicha, sipolik bilan so'radi:

- Birodar, yo'l bo'lsin?

Karvomboshi unga takilib beozor jilmaydi:

- B'Thohojatingni elga arz etmakka hojat bo'lmasun B'Tk.

- She'r o'qishingizdan, demak, bu bizning sharqona karvon ekan-da! - Ibrohim shunday deb razm solsa, karvomboshi begona emas, o'z ukasi Ismoil. - I-e! Sen bu yerda nima qilib yuribsan?

- Sizni qidirayotgan edim. Uydan ketganiningizga necha oy, necha yil bo'lganini bilasizmi, aka? Chol-kampir dunyoni tark etishdi. Singillar, ukalaringizdan ham bir men qolganman...

- O'ningdagilar-chi? Begonami?

- Ham begona, ham oshno... Bular hammasi butparast!

- Buddaga sig'inishadimi? - deb qiziqsindi Ibrohim.

- Buddaga sig'insa, go'rga edi. Qadim dunyo tarixida ham yagona Tangrini hech kim inkor etmagan! Bularning umuman dini yo'q, kofirlar. Lekin butparast. Turli rasmlar, haykallarga sig'inishadi. Qabristonlarida xuddi tirik odam qo'r to'kib o'tirgandek, haykallar o'rnatishadi.

- Dunyoda kim tushunib-tushunmasin, islom so'nggi, komil din! Biz mulla Abdurahmon Xo'janing bolasimiz. Shunday ekan, sen nega bularga qo'shilib yuribsan? Yana B'Thoshnob B'Tk deysan!

- Iloj qancha! - dedi Ismoil. - Hayot shunday shaklga kirib qoldi. Men bular bilan bir yo'ldan borishga majburman.

- Menga qara! Meni oilamizning ahvoli qiziqtiradi. Nahotki, butun boshli oiladan birgina sen qolgan bo'lsang?

- Qiziq gapirasiz, aka. Go'yoki bunga men aybdordek! Eslasangiz, Qulijon misgar degan otamning qadronlari bor edi. O'n sakkizta boladan uyida uchtasi yashab, qolgani qirilgan, yo'qolgan, xastalangan. Dunyoda har kuni ming-minglab kishi nobud bo'ladi. Ayniqla, himoyasiz bolalar. Norasidalar! Xastaliklar, falokatlardan tashqari, isyonlar, bosqinlar, oddiygina ochlik, yununlik, muhtojlik...

- Bokira degan qiz bo'lар edi? - deya mavzuni o'zgartirdi Ibrohim.

- Bokira masalasi sal murakkab... Otam bilan onam yillab sizni qidirib, yillab eshik poylagandan keyin, sizga aza ochgan edilar. Ular Bokirani yaxshi ko'rishardi. Nima desam ekan... Qisqasi, meni uylantirishdi. Uzr, albatta.

- Bolalaring ham bormi?

- Ikki qiz, ikki o'g'limiz bor. Mavluda va Mavjuda, Hasan va Husan.

- Yaxshi. Bizning tashkilot qaysi holda?

- Eshitishimcha, G'ayrat Nusrat ketgan. Hozir uning o'mida tashkilotni Nusrat G'ayrat degan kishi boshqaryapti.

- Mening eski og'aynilarim-chi?

- Yurishibdi. Ular endi yangi boshliqning shotiri. Lekin o'sha, vaqtidayoq sizga qarshi hukmnomaga yozilgan. Sizni kechirishmaydi.

- Sen Marvaridni bilarmidin?

- Men bilganim, bu qizning uch-to'rt yoshida ota-onasini qamab otib tashlashgan. U allabir xolasimi, ammasi qo'lida qolgan.

Keyin, nochorlikda yetimxonaga berishgan. Hozir qayerda, qanday yuribdi, aytolmayman.

Karvon rivoyatlar, afsonalardagi kabi niyoyat, yo'lga tushdi.

Yengil tun shamolida qum dengiz mavjolaridek chayqalmoqda edi.

Bu - tushmi, xayolmi, tasavvurmi?

Ibrohim yelkalarini dir-dir titrab, qumga cho'kkanicha, kaftlarini ko'zlariga bosdi.

\*\*\*

Dengiz bo'yidagi shaharcha ko'rkam.

Bu yerda qishin-yozin havo mo'tadil.

Uylar B'Thötepalikka qarab o'sib B'Tk borganidan, hammayoqdan dengiz yalang ko'rinati.

20 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Yo'llar chetida azim chinorlar.

Bog'lar. Favvoralar. Buloqlar.

Aholi zich, buning ustiga bu yer karvonsaroy qabilida bo'lganidan, ko'chalar ari uyasi. Ba'zan surinmay-turtinmay yurish amrimahol.

Har qadamda magazinlar, do'konlar. Ko'cha betlarida ham anqoning urug'idan bo'lak narsa sotiladi.

Turfa rangin binolar. Tomoshaxonalar. ВЂњEng bema'nib ёк tomoshaxona eshigida ham odam tirband.

Qirg'oqning cho'milishga mo'ljallangan joylarida ham odam g'ujg'on o'ynaydi. Erkak-ayol, hatto oyog'i chiqmagan bolalargacha yarim yalang'och aralash-quralash, biri-birining pinjiga suqilib, cho'zilib yotishadi.

Ibrohim talotumni xush ko'rmay ishdan bo'sh paytlarida ko'pincha ko'cha oxiridagi tepaliklar tomon yo'l olar, bu yerda atrof jimjit, sohil tinch edi. Birinchi kundayoq bu yerni и йќашф etgan ёк, и йќо'зиник ёкга и йќайлантирган ёк.

Mana, endi bot-bot shu yerga kelar, katta, bujur bir tosh ustida soatlab cheksiz, haybatli dengizga tikilganicha, xayol surib o'tirar edi.

Uning bobolari aslida qadim-buyuk, yodgorliklarga boy Buxoroi sharifdan. Abdurahmon Xo'ja (qaysidir karvonga ilashib)

Toshkentga kelgan, bu yerda Shamsiya bonu degan qizga uylanib, qo'nim topgan edi. Ibrohim ota-bobolari o'tgan joylarni yaxshi bilardi, otasi bilan, goh-goh bo'lsa-da, sayri-sayohat qilgandi. Ota va ona endi shu yerlik - toshkentlikka aylanishgandi.

Ibrohim ukasi Ismoil dan to'rt-besh xat olgach, orada и йќузлиш ёк ro'y berdi, Ismoil aftidan bir payt otasi (Abdurahmon Xo'ja) tark etgan Buxoroi sharifga qaytib ko'chib ketgan edi. Qisqasi, Ibrohim и йќиурт bilan aloqa ёкни uza boshlagandi.

Marvarid uning xatlariga javob yozib turardi (ammo u Ibrohimning oilasi bilan tanish ham bo'lmanidan, ularning ahvoldidan bexabar edi). Nihoyat, kutilmaganda qiz telegramma berdi: и йќистасангиз, yoningizga borish, siz uchun jonimni qurban qilishga tayyormans ёк.

Ibrohim, kel, jonim, deb javob telegrammasi yubordi.

и йќирайапман ёк deb ogohlantirdi Marvarid.

Ibrohim begona yerda aksar zerikar, o'z yurti, o'z и йќодamlarib ёкни sog'inardi. Ayniqla, Marvarid! U Marvaridni sevganiga endi-endi zig'ircha ham shubhalanmay qo'ygandi.

U и йќибгилangan kun ёкда mashina yollab, aeroport tomon jildi. Biroq mashina yo'lda har xil sabablar bilan bir oz tutilib, Ibrohim aeroportga sal kechikib keldi.

Ammo gap bunda emas.

U aeroport zalida biri ko'ksini changallab yig'layotgan, biri telbarcha ayyuhannos solayotgan kishilarni ko'rdi. O'ziga и йќикеракли reysb ёк haqida surishtirgach, boshidan hushi uchdi.

Samolyot shaharchaga qo'nish oldidan dengiz ustida bir qur charx uradi. Ayni shu damda Dengiz bilan Osmon и йќиблашиб ёк ketgandek taassurot uyg'onadi.

Qanday bo'lmasin, shaharchaga uchib kelayotgan samolyot Osmon bilan Dengiz orasidagi tafovutni yo'qotib, to'ppa-to'g'ri Dengiz Tubiga вЂњо'здек ёк sanchilib kirib ketgan edi.

Aeroportda kimdir ro'y bergen halokatni и йќиженик sabablarib ёкga yo'yar, birov uchuvchini ayblar, boshqasi и йќиоб-havob ёкdan o'pkalanardi (hech kim shaharchaga dam olgani и йќо'зимиз ёкning Nusrat G'ayrat - oldingi G'ayrat Nusrat emas! - uchib kelayotganida и йќибмон bo'shatib qo'yilganib ёкни tasavvur ham qilmas edi).

Bir yuz ellik to'rtinchi samolyotda uchgan bir yuz ellik to'rt kishi Dengiz tubiga cho'kib halok bo'lgan edi.

Ibrohim halokat to'g'risidagi ortiqcha tafsilotlarga berilmay, shaharcha markaziga qaytib keldi.

Albatta, halokatga uchriganlarning barcha yaqinlari yonida oh-uh tortib, ko'zyosh to'kib yarim kun-bir kun aeroportda turishi, ma'muriyatning og'zini poylab endi nima gap chiqishimi kutishi mumkin edi. Biroq toqat qilolmadidi. Yuragi tars yoriladigandek holatni sezdi. Ezmalanishga hojat yo'q, shusiz ham ro'y bergen fojea ayon edi.

Mana, endi Ibrohim yetim holatiga tushgan edi.

Bo'sh qoldimi, o'zi вЂњкашф etgan ёк sohilga kelib katta, bujur toshga o'rnashar, dengizga tikilganicha, ko'zlaridan vijir-vijir yosh oqardi. U Marvaridni qanchalik yaxshi ko'rishini ilk bora teran his etmoqda edi.

Murg'ak-norasida paytidayoq ota-onasidan ayrilgan, qarovsiz qolgan, ulg'aya boshlagach ham muhtojlik, och-yupunlik, himoyasizlik mashaqqatidan boshi chiqmagan sho'rlik Marvaridga oddiy-odamiy nasiba - go'ri-kafan ham buyurmagan edi. Dengiz bu kun Marvarid va unga o'xshaganlarning qabristoni! Dengiz bu jihatdan sahroni eslatadi. Odatda, sahro qa'rida yo'qolgan kishilar ham hayvon-hasharotlarga yem bo'lib, biron gunohlari bo'lganidan emas, taqdir ayovsizligidan, dunyodan go'ri-kafansiz ketadilar!

Shu kunlar samolyot halokati sababidanmi, boshqa bir boisi bormi, har qalay dengizga g'avvoslar ko'p tushishayotgan edi. Ular singari, ularga ergashib Ibrohim ham endi necha bora dengizga tushdi, suv ostiga sho'ng'ishga urindi. Jilla qursa, Marvaridning и йќибаби ёкни ziyyarat qilmoqchi edi.

Dengiz tubi qop-qorong'i. Barqutdek.

Biroq unda turli nur bor. Zar, o'tdek.

Qizg'ish-yashil. Gunafsharang. Ko'k-sariq.

Baliqlarning и йќимаш'алб ёклари ko'p yorug'...

Ibrohimga dengiz - и йќиески tanishb ёк. Hali uncha vaqt o'tgani, unutgani yo'q, u devordek suringan to'lqinlar bilan, o'lim bilan olishgan. Dengiz osti qanday ekanligini bilar edi. Lekin qirg'oqqa yaqin, odam suzadigan joyda dengiz osti tog' etagimi-yon bag'rigami o'xshar, faqat uyum-uyum toshlar, epkindek vaznsiz giyohlar ko'zga tashlanardi. Bu hali chinakam dengiz tubi emasdi.

Dengiz tubi qop-qorong'i. Barqutdek.

Biroq unda turli nur bor. Zar, o'tdek.

O'ritadi и йќиуч yulduzli ёк qarmoqchi -

U nur sari har baliqcha bormoqchi...

O'nlab katta-kichik qayiqda erta sahardan dengizga chiqqan baliqchilar yoki dengiz ostidan chig'anoq terib bozorda bezab sotgan havaskor g'avvoslar dengizni qanchalik вЂњo'rganishganвЂќ? Aytish qiyin. Harholda, Ibrohim oldin duch kelgan va endi yana ko'rayotgan manzara odamlardan eshitib yurgan hikoyalardan farq qilar edi.

Sal balandda qalqib-qalqib jim suzar -  
Nozik shohi parashyutdek meduza.  
Qimirlaydi go'zal вЂњdengiz yulduzibвЂќ,  
Qizg'ish-sarg'ish tusda ekan u o'zi.  
Ham yashil rang nur to'karkan har yonga.  
Bu yer kondir qisqichbaqa, marjonga...

Umrida qum tepaliklarini oralagan kishi sahroning вЂњo'likвЂќ emas, tirik bir rangin vujud ekanligini his etadi. Sahro bepoyon bo'lgani uchunmi, uni osmonga ham mengzaydilar.  
Ibrohim har gal dengizga sho'ng'igani sayin shu - sahrodagi kabi holatni tuyar edi.

Dengiz tubi seryulduzli osmondek,  
Baliq yuzsa, xuddi yulduz uchgandek.  
Ham yasharkan bunda jayhun - akula,  
Xullas, bu joy, tariklikka boy, to'la...

Tiriklikka boy, to'la! Shu bilan birga, qancha kemalar, samolyotlar, odamlar uchun qabriston!  
O'zini tuproq deb bilish, tuproqqa ehtiyyotkor munosabat quruqlikka xos. Dengizlar, ummonlarda-chi?  
Ibrohim nega dunyoda har kuni ming-minglab kishilar benom-benishon yo'qolayotgani, asosan, insoniyat o'zi-o'zini nega azaldan to bu kun qirib tashlayotganiga tushunolmas edi.  
U hayotida (yuragida) hamon bezovtalik, vahm borligidan, orqaga dadil qaytolmagan, o'zi Marvaridning yoniga borolmagan edi.  
Marvarid uning yoniga kelishiga izn bergen edi. Endi sevgan qizi qarshisida o'zini aybdor sezayotgan edi. Qizda topilgan jur'at, jonfidolik unda yetishmaganidan iztirob chekayotgan edi.  
Ibrohim yer bilan yakson holatda edi.  
Lekin insoniyatning ezgulik istagan, bu yo'lga kirgan farzandlaridan qay biriga hayotda oson kechgan?  
Biri dorda, bri badarg'a...  
Chidash kerak.

\* \* \*

Bir kuni odaticha вЂњo'zinikibвЂќga вЂњaylanganвЂќ sohilga borib, har galgidek dengizga tikilib o'tirgan edi.  
Olis bir nuqtadagi kema xuddi oq imorat - u qaysi tomon surinib borayotganini bilib bo'lmas edi. Undan ham olisda parda tortib turgan pushtirang bulut esa qirg'oqdagi tog' tizmalarini eslatar, go'yo tik boraversangiz, chindan yana tog'larga yo'liqadigandek taassurot uyg'onardi.  
Dengizda kema-yu, shu bulutdan bo'lak narsa yo'q.  
Suv oftob nurlariga qorishib oynadek yaltirar, to'lqinlar shaloplagancha, sohildagi toshlarga ohista bosh urardi.  
Nihoyat, kema bulut bag'riga singib ketgandek bo'ldi. Lekin shu asnoda siyoh to'kilgandek, bulut etagida nimadir qorayib ko'rindi.  
Nuqta dam sayin kattarib borganicha, aniq shakli-shamoyilga kira boshladi. Qayiq!  
Dengiz bo'yida yashagan baliqchilar ba'zan kech tun, ba'zan tong-saharda dengizga chiqib uzoq-uzoqlarga ketib qolishlariyu kun yeyilganida qirg'oqqa qaytishlarini Ibrohim bilardi. Bu qayiq ham baliqchilarniki bo'lsa kerak, deb o'yldi.  
Ammo qayiq yaqinlasha-yaqinlasha uning ro'parasiga kelib to'xtadi. Qayiqdan u kutganidek keksami-yosh horg'in baliqchilar emas, allanechuk mammun, baxtiyor - kelishgan kishi va niroyatda ko'hli juvon tushib, u yon-bu yon ko'z tashlashdi. Odamlar biri-biriga asosan begona deb qaraydigan shaharchada salomlashib gaplashishga har kimda maylu rag'bat topilavermaydi. Boyagilar esa Ibrohimni payqab jilmaygancha salomlashishdi. Sizga xalal bermaymizmi, deb ham so'rashdi. Keyin, qayiq burnidagi arqonni yarmi suvga botgan toshga shoshmasdan bog'lab, o'zlariga o'tirgan joy hozirlasha boshlashdi.  
Ibrohim o'rnidan turib, tepalik tomon yurdi.  
Tepalikdagi kaftdek maydonchadan ilang-bilang ipdek so'qmoq toqqa o'rلان edi. Ibrohim bandargohdagi yigitlardan huv tog' or'kachida ikki qabr - bir rassom va uning xotini qabri borligini eshitgandi. Xotini vafot etganida rassom uni o'sha yerda dafn ettirgan, qabr yonida o'tirib rasmlar chizgan va o'zi ham ko'z yumganida shu yerga qo'yishlarini vasiyat qilgan. Bu holatdan er-xotin orasida bo'lgan katta muhabbat nafasi kelar edi.  
Ibrohim so'qmoqdan yuqoriga ko'tarildi.  
Bu - supadek bir joy. Jarlik bilan dengiz o'rtasida qo'nqaygan. O'rkhach, xolos.  
Ibrohim qo'sh qabr poyida cho'kib, bular ikkisining millati, dini qaysi ekanligini ham o'ylamay, ularga bag'ishlab tilovat qildi.  
Yuziga fotiha tortgach, qo'zg'alib o'zi kelgan so'qmoq tomon qaradi.  
Bir qizmi-juvon yuqoriga ko'tarilayotgan edi.

Ibrohim diqqat qildiyu...  
nafasi bo'g'ziga tiqildi.  
Marvarid!  
Dam o'tmay, qiz uning yoniga yetib keldi.  
Bag'riga otildi.

Xudoyim!

Shu payt qilichdek keskir, kuchli bir shamol turib ularni qamraganicha, oyoqlarini yerdan uzdi.

Dengiz tomon uchirib ketdi.

Biri-birining bag'riga singigan Ibrohim va Marvarid dengiz ustida uchib borishar...

ular inson naslidan emas, biron qush ham emas...

osmonda charx urayotgan -

fillarni eslatishar edi.

Ikkinci Qism - Nay Sadosi

6

Unga avvalida olisdan ot dupuri eshitilayotgandek tuyuldi.

So'ng, nazarida, darvoza keskin taqilladi.

Nihoyat, otning kishnaganiyu odamlarning g'ala-g'ovuri eshitila boshladi.

Tushmi? O'ngmi?

U bir yondan ikkinchi yonga ag'darildi. Ayni damda sassiz bir sharpa xonada g'imirlayotganini sezdi. Istar-istamas ko'zini ohib, mulozim tashvishlanib turganini ko'rdi.

- Sizni so'rashayapti, begin.

Mahal-bemahal har kim uni bezovta qilmasdi. Shu boisdan, so'ragan kim bo'ldi-yu, qanday yumush chiqdi ekan, deb o'ylab, o'rnidan malol bilan qo'zg'aldi. Poygakda endi mulozimi tutgan obdastadan qo'lini chayib, yuzini yuvdi. To'nini shoshmasdan kiyib, tashqari chiqdi.

Tong yorisha boshlagan, lekin hali fonuslar o'chmagan. Ilk navbatda oq ot oldida qomat tiklagan sipohiga ko'zi tushdi.

Tush emas, o'ng ekan!

Uni bexos yo'qlashga sabab bormi?

U oldinga bosar-bosmas, hovlida to'planganlar nafas yutib, orqaga chekinishdi. Faqat sipohi otni qoldirganicha, qo'li ko'ksida ildam yurib, tiz cho'qdi:

- Shahzodam! Ming qatla u兹. Turg'izishga to'g'ri keldi.

- Nima gap?

- Onhzrat sizni qistov kelsin dedilar.

Indamay iziga qaytdi.

Mulozim tez kiyintirdi. Yo'l uchun suv va tomoq ham tayyorlangan edi.

Eshikdan chiqib bir dam parishonlandi.

Ro'paradagi uy eshigi, derazalariga qaradi. Uyda sham yoquvli, yuqori deraza yaqinida enaga joynamoz ustida ibodat bajo keltirmoqda. Bolalikda validasi vafot etgan. Bu ayol shundan buyon ona o'rniga o'tar edi.

Enaga yuziga fotiha tortib, derazani ochdi:

- Begin! Boshingiz toshdan bo'lsin. Parvardigorumning O'zi sizni uchragan balo-qazodan asrasin. Do'stu dushman oldida xorlikdan, zabunlikdan xalos etsin. Har qadamda madad bersin. Omin.

Enaga qo'llarini yuziga suykagach, negadir barmoqlarini lablariga bosdi.

Haybatli hovlining baland gujum darvozasidan boyagi otga boshqa bir oq ot qo'shilib chiqqanicha, Madora shaharchasidan Toshqo'rg'onga qarab yo'l oldi.

Madora Toshqo'rg'onga nisbatan ham qadimiy, obod va orasta joy. Otliqlar ko'chadan-ko'chaga o'tib, choyxonalar, katta-kichik ishratxonalar, do'konlar, usti ayvonli uylar, yashnab yotgan bog'larni oralab borisharkan, shahzoda hozir hamma narsa bilan xayrlashayotgandek holatda edi. Ular quyuq bir daraxtzorni yonlab, sher shaklidagi tarnovlaridan sharillab suv quyilayotgan hovuz bo'yiga chiqishganida, u beixtiyor otning jilovini tortdi. Uning xayolida yarqiragan jodu ko'zlar, soyadek nozik vujud jonlangan edi! Shahzoda hamma narsa bilan xayrlashishga chog'langani holda, hatto ishqil tushgan, o'zi uchun Madorada tanho, aziz siymo bilan xayrlashmagani va xayrlasha olmasligini mana endi his etdi.

So'nggi paytlar mamlakatga dushman bostirib kelayotgani to'g'risida sovuq mish-mish tarqalgan. Hammayoq notinch, cho'p suqilgan ari ini.

Shahzoda bundan bexabar emasdi.

Lekin u hali juda yosh, mo'ylabi endi sabza ursan yigit edi. Sho'x. O'yinqaroq. Bedard! Dushman kelsa, otam bor, o'zi chora ko'radi, bizni himoya qiladi, deb o'ylar edi. Uning hayoti bu kungacha tinch edi. Bu kun sahardan halovati buzildi. Shu asno otga qaytib qamchi solarkan, mahzun bir holat uni chulg'adi. Shahzoda shu pallada onhzrat nega chaqirganiga ham tushunib yetgan edi. Yuzlashgan soatda shoh ota nima deyishi mumkinligini bashorat singari tasavvur qildi:

- O'g'lim! Dushman makkor, ayovsiz. Buning ustiga, shahar darvozalari kalitini unga qo'shqo'llab topshiradigan xoinlar topiladi. Men qarib qoldim. Holim yo'q. Sen yoshsan. Yurtni asra, xalqni asra! Birovlar toptashiga yo'l berma! Senga nasihatim ham, vasiyatim ham shu...

Otliqlar Madorani orqada qoldirib, ochiq dalada keta boshlashdi. Va ko'p o'tmay, bepoyon sahro boshlandi.

\* \* \*

Misdeq qizib yotgan majnun-sahroda Darvesh oldin qo'lidagi irg'ay tayog'i, keyin ozg'in oyoqlari tizzagacha qumga botib, imillab borar edi:

- Haq do'st! O' alloh!

U charchagan, chanqagan, och. Unga qo'nadigan bir manzil kerak. Harholda jismiga jon kiritadigan o'sha manzilga yetib olishni umid qilib, qolgan-qutgan butun kuchini sarflamoqda edi.

Axiyri, olisdan shahar qorasiga ko'zi tushdi.

Ammo shu lahzada orqadan bulutdek yopirilib kelayotgan bir to'p otliq ko'rindi.

Darvesh ajablanib to'xtadi.

Ko'p o'tmay, otliqlar yaqinlashishdi. Darvesh o'rtada kelayotgan kishi qo'shin boshlig'i ekanligini ko'nglida sezdi.

- Haq do'st! O' alloh!  
 - Biz dunyoni egallayotgan mamlakatmiz! Sening yurtingni ham bosib olmoqchimiz! - dedi o'rtadagi kishi. - Sen kim?  
 - Iskandarning shoxi bor.  
 - Sen kim deyapman.  
 Darvesh boshliqqa tirjayib qaradi.  
 Bu odam qiziq ekan!  
 U - Yassaviy bo'lishi mumkin.  
 Ollohyor bo'lishi mumkin.  
 Mashrab bo'lishi mumkin...  
 Sen ularning kimligini, aqalli nomini  
 bilmaysan-ku!  
 O'z ulug'laringni bayroq qilib ko'tarib,  
 hammayoqqa shu bayroqni qadaging keladi.  
 Buzga begona bir olamni tiqishtirib,  
 yana kimligimni so'raysan!  
 - Men Darveshman.  
 - Ozib-to'zib ketibsan, og'ayni. Senga ko'nglim achiyabdi. Tila tilagingni, - dedi bosqinchi.  
 - Boshingizni bir ko'rsating, - dedi Darvesh.  
 - Boshimni? Boshni nima qilasan?  
 - Shox bormi, yo'qmi?  
 - Ey, odam kiyik emas. Echki emas!  
 - Baribir. Uchraydi. Ana, yaqinda, Surxonda...  
 Boshliqning jahli chiqdi.  
 - Tentak... Olib borib zindonga tashla, - imo qildi askarlariga. - Har xil ahmoq gaplarni gapirib yurmasin.  
 Oradan uch-to'rt kun o'tgach, sarkarda boshi qichib shox o'sayotganini payqadi.  
 Askarlaridan Darveshni olib kelishlarini so'radi.  
 Ular yerga cho'kkan zim-ziyo zindonga kirib, kutilmagan holatga duch kelishdi.  
 Darvesh o'zi-o'zidan qayqqadir g'oyib bo'lган.  
 Zindonda faqat uning juldur jandası qolgan edi.

\* \* \*

O'sha kuni - aytishlaricha, - zindondan olib chiqib ketilgan janda goh-goho qaysidir zindonlarda вЂњqaytit jonlanganвЂќ emish!  
 Darvesh-chi? U, eshilgan arqondek tuynukdan tushib-tortilib turgan nurga chirmashib, zindondan chiqib ketgan emish!  
 Bunga kim ishonib-ishonmasligi o'ziga havola. Lekin...  
 Toshqo'rg'onga nihoyat yetib kelgan shahzodaga keksa shoh ota shunday degandek bo'ldi:  
 - O'g'lim! Har qanday dushman o'z yurti, xalqini sening yurting, elingdan ustun deb biladi. Bepisand qaraydi. Lekin boshida shoxi  
 bo'lган hatto biron jahongir ham yuragida o'ti bor, erkni tanigan odamni yengolmagan. Toptayolmagan! Yana bilginki, tashqi  
 dushmanidan ham ko'ra ko'proq ularning aravasiga minganlar yomon. Ulardan ehtiyyot bo'l. Har kimning oldida o'zingni yo'qotma,  
 o'g'lim...

\* \* \*

Bu rivoyatlarmi-hikoyatlarni Voris bobosi Ismoil Xo'jadan eshitgan edi. Bobosidan yana Ibrohim degan uning akasi bir paytlari  
 yo'qolganini ham eshitgan.  
 To'zon xas-xashakni yig'ib-jamlab, shar shakliga keltirib allaqayoqlarga eltilb tashlaganini ko'rganmisiz? Ba'zan insonni ham  
 shamol-to'zon shunday uchirib ketgan, o'rnidan ko'chirgandek bo'ladi. Girdibodga tushib, bir necha qadam bosishning o'zi naqadar  
 mushkul ekanligini sezasan.  
 Biroq inson chidamli, bardoshli. U sahroda izsiz yo'qolib ketmaydi. Sarson-sargardonlik, butun mashaqqatlar, kulfatlar, ozorlarga  
 qaramay, ko'ksini shamolga tutganicha, ildam boraveradi. Boraveradi.  
 Sahroda uch belgi: yolg'iz darvoza, keyin sardoba, keyin chor atrofdagi telpakka o'xshagan tepaliklar, bu - bosib o'tilgan yo'l,  
 tarix.  
 Bir kunnardagi shon-shukuhini hamon yo'qotmagan yodgorliklar, xarobalar. Siniq sopol idishlar. Haykal va haykalchalar.  
 Tangalar. Bu ham - tarix.  
 Osmondan turib yerga ko'z tashlasangiz, tarix va bu kun tutash, ikkisi yonma-yon yaxlit bo'lib tuyuladi.  
 Biz ko'priq ustidamiz. O'tib-o'tmasimizdan, yangi-yangi avlodlar ko'priknii egallaydi.  
 Ular yana shamolga ko'ksini tutib, ildam boraveradi. Boraveradi...  
 Voris har gal bobosidan eshitganlarini, ayniqsa Ibrohimni eslaganida shu gaplar xayolidan kechar edi.  
 Bu gal ham uydan ketayotib uning xayolini, aslida o'zi ko'rmagan-bilmagan - Ibrohim band etgandi.  
 Voris ich-ichida Ibrohimni qandaydir yaxshi ko'rardi.

7

Husan ko'chada boshini egib, yer chizib borayotgan edi.

Xayol suri-ib!

Aniq nimani o'ylayapti? O'zi ham bilmasdi. Kishi yo'lida ketayotib uzuq-yuluq har narsa yodingga tushadi.

Qanday bo'lmasin, bir misra uydan chiqqanidan buyon qulog'i ostida yangrayotgan edi:

To'kulg'onimiz bu davrda to'lg'usidur...

Husan axiyri fikrini jamlab, bir zamonalr Xoja Abulbaraka mushoirada aytgan misraning ma'nosi ustida bosh qotira boshladı...

Falsafa bo'yicha, odam idishga qiyosmi? вЂњTo'kG'ladijanвЂќ va вЂњto'ladijanвЂќ? Gap вЂњidishвЂќ ichidagi suv - hayot  
 to'g'risida borayaptimi yoki hayotdagi insoniy nasiba - yo'qotish jabriyu erishish baxti haqidami? Balki, umuman, gap komillik

ustida borgandir? Biz aksar BoshdonobTólik qilib yuramiz-ku, eski kitobdag'i birgina misraga ba'zan BoshdonobTólik o'tmaydi. U manzilga yetib kelganini sezmag'an edi.

Boshini ko'tarib to'g'riga qaraganicha, angraydi.

Husanning opalari - Mavluda va Mavjuda bilim dargohi yaqinidagi bir tosh ustida o'tirishardi.

U opalarini ko'rgan lahzada opalarning ham unga ko'zi tushdi. O'rinnlaridan turib, etak qoqishdi.

Husanga shu soniyada opalari qarib, bir oz aftoda bo'lib qolgandek tuyuldi. Yuragi allanechuk achishdi. Shuning barobarida, ikki opa unga onasi Bokira bonu va otasi Ismoil Xo'jani eslatishdi. U jigarlarini oldin bu eshikda biron payt uchratmaganidan, sal sarosimalangan edi. Lekin o'nglanib, darhol ular tomon yurdi. Opalarning ham chehrasi yorishdi. Husanni onadek bag'irlariga bosishdi.

- Bu yerda nima qilib turibsizlar? - deb so'radi Husan nihoyat.

- Seni ko'rgani keldik.

- Nega uya boravermadinlar?

- Sizlar uydamiyo'q, bilmadik, - dedi Mavjuda. Mavluda qo'shib qo'ydi:

- Hozir poyezddan tushdik.

- Shoira uyda. Sizlar boringlar. Men, ikki soatgina darsim bor.

Opalar ko'tarib kelgan tugunlarini qollariga olishdi.

Husan oynavand eshikdan uzun yo'lakka kirib borarkan, opalarini uchratganidan noma'lum bir hayajon tuymoqda edi. U negadir yana onasi Bokira bonu, otasi Ismoil Xo'jani esladi.

Husan otasi oldida mehrli va itoatl'i farzand edi.

Urushda bo'lga, keyin qamoqda ham yotib chiqqan (bobosi urush qahramoni bo'lsa, nega qamashadi? Jinoyatchi bo'lsa, nega orden-medal beradi? Husan to hozir bu mantiqsizlikka hech tushunolmasdi. Qisqasi), egnida gymnastyorka, shinel, boshida salla, yarim mulla-xudojo'y, yarim ishchi-dehqon Aburahmon Xo'janing o'g'li ekanligi uchunni yoki butun oilasi qirilib, akasi Ibrohim ham badar ketgani uchunni, Ismoil Xo'ja sodda, mehnatkash, xokisor, gunoh qilgan boladan ham uzr so'raydigan beozor kishi edi. Bir oz jur'atsizmi-ehtiyotkor ham edi, shunchaki eshik taqillaganda cho'chib tushishga odatlangandi. Eski-arabiylar kitoblar o'qir, aytadigan gapi asosan, ota-babolardan kelgan tartib-odob bobida bo'lardi. Husan hali yosh, murosasiz edi. U tun-kun otni qamchilagisi kelar, unga otasi BoshdonobTólikidan doim aravani orqaga tortayotgandek bo'lib tuyulardi. Mana, endi o'ylab ko'rsa, ot chopgani bilan aravaning o'zi orqada ekan! Husan otasining fe'l-atvordan vaqtida norozilangani ko'pincha yodiga tushib, o'zi-o'zidan xijolat chekardi.

U validasi oldida ayniqsa mehrli, itoatl'i edi.

Bokira bonu erining aksi, dadil va faol. Bola o'stirish, uy yumushlaridan tashqari, atelCHbeda tikuvchi edi. Oila hayotida biron chigallik chiqsa, eriga qarab o'tirmay, hal qilib ketaverardi. Afti-angoridan katta bir davralarda yurish, ko'rkam bir sharoitda yashashga munosib ayol, lekin mashaqqatli ro'zg'or girdobiga tushib qolgandek edi. Mana, endi Husan har gal onaizorini eslab yurak-bag'ri ezildi.

Ma'ruba o'qiydigan xonaga qarab ketayotib, tabiiy holda Husan oilaning yana bir a'zosi - o'z birodari Hasanni ham esladi. Rangin bir manzara ko'zi oldidan o'tgandek bo'ldi.

Ha, ular egizak edi.

Hasan va Husan!

Avvaldan elda bor tartib: bolalikda ularning ikkisini kamsitmay-o'ksitmay qo'g'irchoqdek bir xilda yasantirishar, ikkisiga uyda teng mehr ko'rgizishardi. Egizaklar bir bog'chaga qatnab, bir maktabga borgan, o'n yil bir sinfda, bir partada o'tirib o'qigan edi. O'sha bolalik davrida begonalar tugul sindoshlardan muallimlarga uchun adashtirishganidan, ko'p kulgili va zavqli holatlar yuz bergen. Bu emas, hatto padari buzrukvor Ismoil Xo'ja Hasanni Husan, Husanni Hasan deb murojaat qilgan paytlar ham uchraydiki, yoqa ushlashga majbursan. Faqt miskin ona Bokira bonu boshini ko'tarib tik qaramay ularni farqlay olar ediki, qanday buni eplagani uning o'ziga va O'lg'iz xudoga ayon!

Bolalik kunlari o'tib, maktabni bitirgan Hasan va Husanga ota-onasi aftidan hamon birdek libos kiydirib, ularni bir yo'lga solishmoqchi edi-ku, iloji bo'lindi. Bu dunyoda vaqtি kelib jon-jigarlarning ham turqi-tarovati o'zgarib, hayoti va qismati turlicha shakllanan ekan! Hasan ota-onasi yonida, oila ko'chib kelgan Buxoroda qolib, gazchilar bilim yurtiga o'qishga kirdi. Husan bir payt bobosi Abdurahmon Xo'ja, buvisi Shamsiya bonu yashagan, qabrlari ham qolgan poytaxtda o'qishni orzu qilib, dorilfunun eshagini qoqdi.

Ko'z yumib ochguncha ular ulg'ayib, har biri hayotda o'z o'rmini egalladi.

Hasan hozir Navoiy viloyatida obro'li rahbar. Taniqli kishi.

Husanning ham mavqeい undan kam emas. E'tibor topgan olim. Kitob yozadi. Tanish-bilishi son ming.

Bu kun avvalgidek egizaklarni ikki tomchi suv deyolmaysiz. Yaqin birov o'xshatmasa, qolganlar xayoliga ham keltirmaydi.

Hasan sportchilar kabi yo'g'on, miqti. Kibor, ba'zan keskin.

Husanni ham mabodo sportchiga qayoslasa, kurash tushadigan yoki mushtlashadigan emas, sakraydigan yoki uzoq masofaga yuguradigan xilidan. Kamtar, xokisor (yillar o'tib, suyagi otasiga tortgani bilingan bo'lsa kerak).

Endi faqat opalar Buxoroda yashaydilar. Ular, pochchalar, jiyanlar goh-goh Toshkentga kelib turishadi. Biroq Navoiyga ko'proq borishadi. Navoiy yaqin. Qolaversa, Hasanning imkoniyati boshqacha.

Albatta, egizaklar ham ko'rishib turadilar. Ko'rishmay qayoqqa borasan!

\* \* \*

Husan eslaganlarini BoshdonobTólik qilib-qulflabB Tólik darsxonaga kirdi.

U qariyb chorak asr talabalarni BoshdonobTólik davomida o'zi ham go'yoki muntazam imtihon topshirardi. Bir O'zuvchi aytgan ekan: BoshdonobTólik oldinda yuradilar. Hayotdan chetlanmaslik uchun birga bo'lish kerakB Tólik.

Ular oldindamni - orqada ekanligi bahsli masala. Ta'lif-tarbiya butun dunyoda yildan-yil qiyinlashib borayotgani aniq gap!

Bunisi mayli.

Falsafa - tafakkur demak.

Tafakkur esa - simob.

Ana, yuzlab kitob. Birgina din bobida munosabatning ming bora o'zgargani. Goho rohibona, goho dahriyona.

Turfa mazhablar. Oqimlar. Yana rindlik.

В ТибIslom ekstremizmib Тк degan gap chiqqan. Bu ikki so'z biri-biriga zid.

Falsafa (agar u chindan qatordagi bir fan bo'lsa) hech qachon tugal shakllangan emas. Bu kun talabaga bir fikrni tushuntirib, ertaga teskarisini aytish subutsizligidan xunukroq holat bormi? Toki insoniyat komil bo'lmagunicha falsafa yetuk bo'lolmaydi! Qo'liga kitob olishga ishtiyoqi yo'q talabani bu keti berk ko'cha (labirint)ga qanday boshlab, qanday yetaklab chiqib ketasan?

Dars soati tugab qo'ng'iroq chalinishiga oz qolgan edi, Husanni do'sti Qurbon domla yo'lakka imladi:

- Eshikda sizni kutishayapti. Jigarlar kelgan ekan!

Obbo...

Husanning joni xuddi tovoniga tushdi.

Mavluda va Mavjuda qaytib bu yoqqa kelishganmikan? Sabab?

Shoira uyda bo'laman degandi. Ko'chaga chiqqan ekanmi? Xudo saqlasin, u...

O'zi yaxshi ayol! Lekin tuyqusdan mehmon kelishini yoqtirmaydi.

Odatda, uyga в Тибostirib Тк kelgan mehmonni noxush, qosh-qovog'i bir qarich osilib qarshilaydi. Unga, taomil shu, mehmon otangday ulug', degan gapni tushuntirolmaysan. В ТибNega har kim otamday ulug' bo'lar ekan, bir og'iz aytib kelsa, o'lmaydi-ku! В Тк deb turib oladi. Umuman, uyda istagan palla mehmon kutadigan sharoit ham topilavermaydi. Domla (olim)ning bir oylik maoshi ba'zan bir haftaga yetib-etmaydi. O'zingni har yonga urib sal tayyorgarlik ko'rmasang, uyalib qolasan! Bu jahatdan, Shoira albatta, haqli.

Husan shularni o'ylaganicha, eshikdan chiqdiyu...

qaradi.

Pastda, ancha narida sut bilan chaygandek yangi mashina...

mashina yonida, daraxtlar tomon yuzlangan Hasan turar edi!

Birinchi navbatda Husan ko'zlariga ishonmadi. Opalar izidan bu kun Hasan ham kelishi aqlga sig'masdi. Nima, shunchaki tasodif tufayli bunday bo'ldimi yoki qandaydir munosabat boru jigarlar atay shunday qilishdimi?

Keyin, Husan bu gal Hasan ham xabarlashmagani va uyga bormay, to'g'ri bu eshikka kelganini o'yldi.

Egizaklar biri-birini quchishdi.

Husan mashina yonida kuymalayotgan haydovchiga ham qo'l uzatdi.

Qachondan bu rasmga kirdi? Husan sezmay qolgan, u в ТибsizB Ткssirar, Hasan uni в ТибsenB Ткssirab gaplashardi:

- Yaxshi yuribsanmi? Tinchmisan?

- Rahmat. O'zingiz? - Husan beixtiyor в Тибgulladib Тк - Ertalab opalar kelishgan edi.

Hasan bexabar ekan, ko'zlarini yirdi:

- Opalar? Uydami?

Husan qisinib bosh tebratdi.

- Men vaqtim ziq, yarim kunga kelganman. Hozir qaytib ketaman, - dedi Hasan. - Opalarga indama. Xafa bo'lismadi. - U yaqin kishilar gapiga xalal bermaslikka fahmi yetmagan haydovchiga ko'z qirini tashlab qo'yib, Husanni qo'ltilqlagancha daraxtzor tomon boshladи. - Senda ishim bor. Iltimos, - dedi shundan so'ng. - Voris meni qon qilib yubordi. Qayoqlardadir yuribdi, - dedi o'g'li haqida. - O'zini tutishi betartib! O'ylamay gapiradi, aljiydi! Shu yoqda ekan, odamlar ko'ribdi. Sen uni top. Domlasan, olimsan, nasihat qil. Mening boshim qotgan.

Hasanni idora ishlaridan bo'lak bu tashvish poytaxtga olib kelganini his etgan Husan faromushlandi.

U Vorisni kam ko'rgan, kam kuzatgandi. Yaxshi bilmasdi.

- Men bir surishtiray-chi! - dedi.

- Surishtirish kam. Uzil-kesil! - dedi Hasan. - Opalarga buni ham aytma. Ayollar og'zi bo'sh, gapni ko'paytirishadi. Uch-to'rt kun ichida yana qo'ng'iroq qilarman.

Boyagidan ham o'ychanroq ko'yda mashinaga qarab yurdi.

Orqa o'rindiqdan qandaydir xaltani olib, qaytib Husanga yaqinlashdi:

- Sovg'a! Bilasan, quruq qo'l bilan kelolmayman, - bu gal tez odimlab, mashinaga mindi.

Haydovchi endi o'z o'rnida o'tirardi.

Mashina dam o'tmay, zuv etib daraxtlar panasida berkindi.

Bu kun opalari bilan diyordorlashganida suyungan Husan birodari Hasanni ko'rganidan ham hayajonlangan edi.

Ular hech mubolag'asiz, bir qorindan talashib tushgan. Faqat bu emas, bor-yo'g'i uch daqiqa farq bilan dunyoga kelganlar.

Egizaklardan kim dastlab, kim keyin ko'z ochganini bilib bo'lmaydi. Bunga vaqtida ahamiyat berilmagan. Ism taxminan qo'yilgan va aslida, Hasan qolib, Husan uch daqiqaga katta bo'lishi ham mumkin! Dunyoda shunday sodda haqiqatlar uchraydiki, hech qachon hech kim tagiga yetmagan va yetishga ortiqcha urinmagan! Zeroki, har bir haqiqat olamshumul hodisaga aylanavermaydi! Ular egizaklar, xolos. Buni tan olishga burchli edilar.

Sut bilan chaygandek mashina daraxtlar ortida g'oyib bo'lgach, Husan qiziqsinib xaltani ochdi. Olma-anor, holva-novvot. Bir bog'lam pul ham... Hasan shunaqa, barcha jigarlariga mehribonlik, g'amxo'rlik ko'rsatib yuradi!

Lekin Husan bir dam burungi mammuniyat aralash qisinib-ezilgandek holatni sezdi. Birovdan, ayniqsa o'z yaqinlaridan pul olishni or deb bilmaydigan kishi ko'p - balki, muhtojlik, balki, ochko'zlikdan! Ayrimlar porani ham gunoh deb bilmaydi - olishga o'rganib ketgan. Ayb ustida qo'lga tushirish qiyin, ko'pincha baliqdek qo'dan sirg'alib chiqib ketadi ham!

Husan aqlini taniganidan buyon ter to'kib, biri ikki bo'lмаган, kosasi oqarmagan. U ota-onasi singari qo'li qisqa ekanligiga qaramay, bu borada mag'rur edi. Hasanning e'tiborini qadrlardi. Shu bilan birga, pul to'g'rimi-egri yo'l bilan topilgan? - o'ylashga ham majbur edi. Har qadamda halol luqma, degan gap ko'nglidan kechardi. Hozir ham ko'cha o'rtasida serrayib, shu haqda xayolga cho'mdi.

Nihoyat, yo'lga tushgach, Voris to'g'risida o'ylay boshladи.

Poytaxt shaharda, kelgan manzili, maqsadi noaniq birovni uchratishga urinish somon g'arami ichida ignani yoki deylik, daryomi-dengizga tushgan uzukni qidirish bilan barobar! Voris qayerda? Uyidan ketib, nima qilib yuribdi? Kimdan, qanday surishtirish kerak? Hasan vazifani unga yukladi, tamom! Bajarmasa, u aybdordek, o'pkalanadi. Shunaqa nozikmizojojligi yo'q emas!

Qiyos o'rinli bo'lmasa-da, bolalikdan eshitgani - bir kunlar amakisi Ibrohimni otasi Ismoil Xo'ja uzoq qidirib topolmagani beixtiyor Husanning yodiga tushgan edi.

Uni negaligini o'zi ham bilmagan bir g'ussa chulg'adi.

\*\*\*

Uyga kirib kelganida kayfiyati o'zgardi.

Dasturxon yonida opalari bilan Shoira xushchaqchaq suhbatlashib o'tirishardi. Xotini odaticha qosh-qovoq solmaganiga Husan xursand bo'ldi.

U xalta ko'tarib kelganiga Shoiraning yanada chehrasi ochildi. Eskidan ayol zoti shu, uyda to'kin-sochinlikni ko'rsa, o'zini baxtiyor his etadi.

Davraga qo'shilgan Husan opalarini gapga solib, Hasan bilan Vorisdan og'iz ochmagan holda ba'zi narsalarni aniqlab olishga umidlandi. Gapni opalarning o'zi boshladi.

- Buxoroga bormay qo'ydingiz, - deb shikoyatlandi Mavluda. - To'y-ma'rakaga aytganda ham, bormaysizlar.

- Boramiz. Bu yil albatta boramiz, yozda, - dedi Husan shoshib. - Xudo xohlasa, Shoira, qizlar, hammamiz...

- Bultur to'y qilganda ko'p kutdik, - gapga aralashdi Mavjuda. - Odamlar so'raydi, kim keldi, kim ketdi? Dunyo g'animat. Biz ham qarib goldik...

- Ey, sizlar hali yosh qiz! - hazillashib kului Husan. - Erkak kishi uka bo'lsa hamki, aka o'rniga o'tadi. Qarigan ana, biz! Vaqt bo'lsa, hafsala yo'q, hafsala bo'lsa, vaqt...

- Ellikka kirib-kirmay qariydimi? Sizlar hali yigit! Unaqa demang, uyat bo'ladi...

- Hasan ham doim shamoldek kelib, shamoldek ketadi. Qachon qarama, ish! Ish! - dedi yana Mavjuda. - Lekin ba'zan har birimizga yarim moshin qovun-tarvuz, meva-cheva tashlab ketadi. To'y-ma'raka payti mol so'yib yuboradi. Yana bir qop guruch, bir qop un...

Ha! Husan hech qachon Hasan bo'lolmaydi. Birovga bunday himmat ko'rsatolmaydi. Ular oilasida barcha mehnatkash, tirishqoq (hayotda Hasanga nisbatan Husan kam xizmat qilgani yo'q). Lekin xudo omadni kimga berib, kimga bermas ekan! Kambag'alda odamgarchilik nima qilsin, degan gap yuradi. Kambag'al-ku, odamgarchilikni biladi, cho'ntak quq-quruq. Qo'li qisqa kishining tili ham qisqa! Qo'tir bu dunyoning hikmatiga kishi ba'zan tushunolmaysan.

- Hasan Vorisni uylantirmoqchi, - deb Husanning xayolini bo'ldi Mavluda. - Kelin ham topib qo'ygan. Yaqinda xabar qilsa kerak.

- Mening gunohim bo'ynimda, Voris qanaqaligini yaxshi bilmayman, - dedi Husan ehtiyoitlanib. - Borsam, atrofimda besh-o'nta kishi, doim chalg'iymen.

- Voris otasining bolasi! - mavhum gap qildi Mavjuda.

Choydan keyin opalar shoshqin o'rinlaridan turib, kiyina boshlashdi.

- O', baxayr (qayoqqa)?

- Xumsonda bir dugonam bor. Bu kecha o'shalarnikiga borib yetamiz, - dedi Mavluda. - Ertaga kechqurun kelib sizlarnikida qolamiz.

- Shoiraxon ham yursin. Qarshi bo'lmasangiz, - dedi Mavjuda.

- Mayli, borging bo'lsa, bor.

Ayollar ketishgach, Husan yana Voris to'g'risida o'ylashga tushdi.

\*\*\*

Yigitning ismi - O'monqul.

Duppa-durust, nasl-nasabli oilada tug'ilgan bola o'lavergach, o'limni вЂњaldamoqchibЂќ bo'libmi, unga shunday ism berishgan.

Bu - Itolmas, Xunukboy degan ismlarga o'xshab qadim-qabilachilik davrlaridan kelgan. O'zimiz uchun ham buning qadri yo'q, mazmunida kamsitsa, bola yashab ketishiga sodda ishonch bilan qo'yilgan ism.

O'monqul uch-to'rt yil burun Husanning qo'lida o'qigan. Hozir bir do'konda tamaki sotadi.

Talabalik yillari uyga bot-bot kelib turganidan, Husan uni o'ziga yaqin tutadi. Shogirdining qaysidir yo'sinda Voris bilan og'ayni ekanligini eshitgan, bu ham oradagi вЂњyaqinвЂќlikka ko'priq bo'lgan edi. Keyingi yillarda yigitlar uzoqlashib ketganmi yoki hamon do'stmi? Husan bexabar. Ammo bir narsa ayon: shahri azimda Vorisga tegishli gapni bilsa - O'monqul biladi.

Shogirdi do'konini Husan eslamaydi (do'kon bir necha bora o'zgargan ham). Uyiga aksincha, otasi o'lgandami, uylanganidami ikki-uch borgan.

Vaqtni bekor o'tkazmay, uyda yolg'iz zerikib ham o'tirmay tezroq masalani hal etish uchun kechga tomon u ko'chaga chiqdi.

Quyosh endigina botgan. Yerda son-sanoqsiz chiroqlar yoqilib, osmonda yulduzlar ko'rina boshlagan.

U xayol domida uzun yo'lkada ketayotgan edi, bexosdan ko'ngilsiz voqeaga duch kelib to'xtadi.

Rastadagi savdo majmui boshlanishida oq ko'ylak, oq shim kiygan, favqulodda gavdali, kuchli bir kishi it mushukka tashlangandek, besh-olti yoshlardagi nimjongina bolani changalida tutganicha, yerga otib yuborar, urar, tepar, ko'tarar va yana otar edi.

Maydonchada hovli-bog'dan chelakda o'rik-olcha keltirib sotgan ayollarni to'rtta bo'lib quvib yuradigan mirshablarning qorasi ko'rinnasdi. Atrofda odam g'uj-g'uj. Biroq ro'y berayotgan voqeani barcha gangib tomosha qilmoqda.

Husan ham oddiy tomoshabing aylandi.

Shu asnoda u voqeaga darhol aralashib chora ko'rishni istar edi-ku, oq kiyimli kishiga bas kelolmasligiga aqli yetayotgandi. Qarshi turishga Husanda jisman kuch yo'q. Ruhan ham (otasi Ismoil Xo'jaga xos jur'atsizlik, ehtiyoitkorlik uning qoni-jonida namoyon bo'lmoqda). Bir qadam bosishga kuch topolmayotgandi. Faqat ko'rib turgan manzaradan dovdirab, o'zini quldek nochor-notavon sezganidan ezilayotgan edi.

Nihoyat, boyagi chelak ko'targan ayollardanmi birov baqirdi:

- Hayvon! Axir, u bola-ku. O'ldirib qo'yasan!

Husan shu damda his etdi... Chindan gavdali kishi bolani ana-mana o'ldirib qo'yishi ham mumkin.

Ayolning so'zi ta'sir qildimi, o'zi bolani вЂњezg'ilabbЂќ to'ydimi, shundan so'ng harholda arvojni eslatgan kishi do'kon eshigidan chetlashdi. Bola ham o'midan turib, chayqalganicha, bir tomonga sudralib keta boshladi.

Shunday yakun qanoatlantirgandek, Husan ham tarqalayotgan xaloyiq orasida bu yerdan jildi. Sal nariga borib non, meva-cheva xarid qilgach, yo'lida davom etdi.

Biroq unga daxli bo'lмаган, o'tkinchi voqeа ko'zi o'ngida, xayolida qotib golgan edi! Yuragiga g'ulg'ula tushgan, jismi va ruhini

allaqanday notinchlik egallagandi. Ko'chada u dahshat tuyib borar edi.

Odamni odam urishi (urush buning katta shakli!) insoniyat tarixida ibtidoiy davrdan kelgan sharmandali holat... Biz jilla burun (yoshlar borasida) eslagan O'zuvchi aytgan edi: вЂњTil o'z vazifasini bajarolmaganida, qo'l ishga tushadib ѕuk. Ya'ni, insoniy munosabat o'rmini hayvoniy xatti-harakat oladi... Qadimdan mulkdorlar o'z qullari, xo'jayinlar qarollarini urchanlar. Hamon ba'zan qo'l ostidagi xizmatchilarini uradigan boshliqlar topiladi. Ba'zi erlar qo'l qichib xotinini uradi. Xotin erini urchan paytlar ham oz bo'lsa-da, uchraydi. Xudo kechirsin, nobakor farzand otasimi, onasini urgani goho qulqoqa chalinadi.

Ayniqsa, bolalar. Dunyoda bolani urish odamzodga go'yoki avvaldan muhrlab berilgan. Bir vaqtlar maktabdor-mulla uzun kaltak (xoda) bilan bolalar boshiga tushirar edi. Hozir ham muallim o'quvchini jazolashga o'zini haqli deb biladi, qo'lida cho'p yo xivich o'ynatib, hech bo'lmasa, jild qo'litiqlagan bolani maktab atrofida yogurtiradi. Ota-onalar bolalarini do'pposlaydi. Bolalardan katta yoshlisi kichiklarini uradi... Bu yovvoyilik, jaholat, zo'ravonlik tuyg'usi hamon odamlarda saqlanib qolganiga aql bovar qilmaydi! O'monqulning shahar markazidagi uyi tomon ketayotgan Husan hali o'zi-o'z holatini to'la anglamagan edi. U ko'chadagi voqeadan sarosimalangan, ich-ichidan ezhilgandi. Bundan tashqari, oq kiygan kishi unga dabdurustdan tashlanadigandek, allanechuk qo'rqqan ham edi. Vaziyatni hisobga olmaslik, birovning vajohatl-i-vahshiy, achchiq ustida ekanligiga parvo qilmaslik yomon oqibatga olib borishi mumkin, bu yengiltaklik, deb o'ylagan, bir tomondan, o'zini umrida jaholatga qarshi turgan olijanob ziyoli turqida ko'rganidan, dadil o'rtaqa tushgisi kelib, ikkinchi tomondan, biron payt nizoga aralashishdan yaxshilik chiqmasligi aqidasiga ko'ra, ko'pchilik qatori bosiq-beparvo turaverish unga afzal bo'lib tuyulgan edi... Lekin ana, voqeа kechgan joydan, rastadan uzoqlashib o'z yo'lidan borayotganicha, endi Husan dahshat tuyish barobarida, ojizgina bolani himoya qila olmagani, aralashmaganidan qandaydir uyalayotgan edi. Tarixda (faqat uzoq tarix emas, fuqarolar urushi davrida, keyingi to'polonlarda ham) o'zbek yigitlari (ko'ksida yoli bo'lganidan) bir kishi hech gap, butun boshli to'plar-to'dalarga qarshi turishga botinganini eslab, yurakkagi olov qachon, nega so'nganiga hayratlanayotgan edi. Chelak ko'targan ayol ko'zi oldida jonlanib, hozirgi ayollar erkaklarga nisbatan o'ktamroq ekanligidan qisinib, xijolat ham chekayotgan edi.

Inson tabiatan ozmi-ko'pmi o'zini oqlashga moyil. Shundan, Husan ehtirosga berilmayapmanmi, bekorga ezilmayapmanmi, deb ham o'ylashga urinayotgan edi. вЂњGavdali kishi o'zi kim? Bola kim? To'qnashuv nima sababdan ro'y berdi? Men bilmayman. Birovdan hatto bunday so'rayolmadim! вЂќ degan gap xayolidan o'tib, his etgan (hamon his etayotgan) dahshatning вЂњpilibig ѕukni pasaytirishga, butun-bor voqeani unutib yuborishga ham harakat qilayotgan edi... Shu kayfiyatda O'monqulning uyiga kirib bordi.

O'monqul tomi qanot shaklida, ikki qavatlari chiroqli, mo"jaz hovlida turar (shogird ko'p qavatlari binoda el qatori yashagan ustozidan badavlatroq) edi. U kutilmaganda ustoz qadam ranjida qilganidan boshi ko'kka yetib, darhol dasturxon yozishga tutindi. Husan bir zumga bemavrid eshik qoqqanini aytib, uzr so'raganiga qaramay, qozon ostirdi. Xotini (kelin) ovqat qilib kelgach, devor-tokchadan aroq ham oldi. Ikki piyolaga to'ldirib quydi:

- Oling, ustoz.
- Men ichmayapman, - dedi Husan.
- Oling, hech narsa qilmaydi.

Husan O'monqulning ozgina kayfi borligini endi payqadi. Shogirdi ko'ngli uchun piyolani urshtirib, bir qultum ichdi.

- Oxirigacha olasiz, ustoz, - deb qaysarlandi O'monqul. - Siz mendan ilmdan kechib do'konda o'tirganim uchun xafa bo'l mang. Tirikchilik! Oila boqish kerak. Umuman, odamga munosib yashash kerak! Bilaman, kechagi kun emas, eski zamonlardan olimlar, shoirlar o'zi shohmi, gadomi kambag'alni ulug'lab, boylarni turtishgan. вЂњBoy boyga boqarвЂќ, вЂњboyonlarga tufвЂќ, shunga o'xshagan! Noto'g'ri. Odamning yaxshi-yomonligi boylik-kambag'allikka qaramaydi. O'vuz boylar bo'lgan. Lekin kambag'allar ham shunday yovuzliklar, johilliklar qilganki... вЂњKambag'alning xirqasidan or qilmoq shunchalarвЂќ. Bunisi yaxshi aytilgan. Or qilish kerak ham! Yirtiq kiygan biron kishi uchramagani durust! Bizda odamlar qadimdan asosan, dehqonchilik, hunarmandlik, yana ko'cha-bozor, savdoga o'rgangan. Savdogarlar himmatli, olijanob toifa... Mendan xafa bo'l mang, ustoz.

- Xafa bo'l mayman, - dedi Husan. O'zicha, Voris ham shunaqa qaysarlik, gapdonlik qilarmikan, deb o'yladi. - Ba'zi so'zlariningiz bahsli. Lekin men buning uchun kelganim yo'q. Voris to'g'risida so'ramoqchi edim.

- Voris?
- Jiyanim. Sizlar qachon, qayerda tanishgansizlar?
- Buxoroga bir borganimda tanishganman. U Buxoroda edi.
- Hozir Toshkentda ekan.
- Juda xokisorsiz-da, ustoz. Betayin jiyanni qidirish bir, katta boshingizni kichik qilib... U shu yerda. Hali ko'risholmadik. Qo'ng'iroq qilgan edi, ovoz hech eshitilmaydi. Kasalxonaga yotmoqchiman, degandek bo'ldi. Qaysi kasalxona? Nega yotadi? Tushunmadim. Qaytib qo'ng'iroq qilishini poylab o'tiripman.
- Shunisiga ham rahmat, - dedi Husan.

\* \* \*

U ko'chadagi ko'ngilsiz voqeani batamom unutgan edi.

Shogirdi uyidan uzoqlashib katta ko'chaga chiqqani zahoti, oq kiygan gavdali kishi va mushtdek bola yana xayolida jonlandi. Dahshatli manzara ko'zi oldiga keldi.

Ichgan kishi sherga aylanadi. Ayniqsa, ichmay yurgan bo'lsa! Husan mabodo endi boyagi voqeа ustidan chiqsa, ikkilanmay shartta o'rtaqa tushadigan holatda edi. Buni y hatto tasavvur qilayotgandi.

Shuning barobarida, uning xayoli tubida bunday savollar cho'kib yotardi:

Gavdali kishi o'zi kim? Bola kim? To'qnashuv nega ro'y berdi?

Bu savollarga yangi savollar qo'shila boshladi.

Birinchi galda:

Bola rastadan sudralib qayoqqa ketdi? Uyigami?

Keyin:

Uyga borib yotib qolmadimi? Biron kasalxonaga olib ketishdimikan? Uyga yetib-etmasdan yoki yetgach, o'lgan bo'lsa-chi?

Xo'p. Yana:

Uning ota-onasi bormi? Ular qayerda? Bolasini birov o'iasi urganidan xabardormi yoki bexabar?

Umuman:

Gavdali kishi bilan bolaning o'zaro munosabati? Bular tanishmi, begonami?

Tanish (biri-biriga daxldor kishilar) bo'lsa, shunday ayovsizlikka boriladimi? Begona bo'lsa, nima qilib oradan o't chiqdi?

Tuyqusdan Husanning xayoliga muhim bir gap keldi. U taxmin qildi:

Gavdali kishi (O'monqul maqtagan savdogar) tijorat do'koni boshlig'i (xo'jayini)! O'g'rilik yuz berayotganini payqagan, poylab yurib bolani qo'lga tushirgan. Unga umrida esdan chiqmaydigan saboq berishga chog'langan. Mol achchig'i - jon achchig'i. O'zini to'xtatmagan!

Voqeа shu taxlitda kechganligi ehtimolga yaqin edi.

Vaqt kech bo'lib qolganidan, ko'chada odam siyrak tortgan. Yo'l ustidagi rastaga Husan ana-mana yuzlanadi. Shuning uchun u Do'kondor va O'g'ri to'g'risidagi o'zi topgan taxminga libos kiydirib, go'yoki вЂњbezayвЂќ boshladi:

Demak, bu yakka holda qo'llangan jazo!

Jinoyatga qarshi!

(Bola - jinoyatchi!)

Chindan shunday bo'lsa, kimni - Do'kondornimi, Bolanimi? - oqlashni o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi.

Sharqda (balki, qaysidir davrlar G'arbda ham) qadimdan goh u, goh bu yerda o'g'rilik (qo'li egrilik) qilganlarning qo'lini kesganlar (chopganlar). Boshqalarga ibrat tariqasida shu yo'sin chora ko'rigan... Ba'zi joylarda bu tartib hozirgacha saqlanib keladi! Lekin bunday jazo (yoki ko'chada sazoyi kilish)ni odatda, bir kishi bajarmagan! Bunga haqli emas! Ko'pchilik kelishib, adolat yuzasidan hukm chiqqargan (o'shanda ham ba'zan nohaqlik ro'y berib turganini kitoblardan o'qiganmiz. Ana, Kolumbiyada bir yigitni hayosizlikda ayblab, sazoyi tarzida chavoqlab tashlashadi. Keyin, uning gunohi yo'qligi oshkor bo'ladi). Bu - baribir, jaholat.

Chunki, olomon - yovuz, shafqatsiz. Olomon lahzalik telba holatda ba'zan yo'lida uchraganni seldek surib ketishi mumkin.

Husan katta yo'l yoqalab odimlaganicha, rastaga kirib keldi.

Savdo majmui oldidagi maydonchaga qadam qo'ydi.

Xayolidan ketmayotgan fikr: Do'kondor va O'g'ri haqidagi taxminning to'g'ri-noto'g'rilingini kimdandir so'rab, tasdiqlatib olmagunicha ko'ngli tinchib bu yerdan ketolmaydiganga o'xshardi.

Endi do'konlar yopiq.

Chelak ko'targan ayollar ham ko'rinxaydi.

Faqat bir chetda ikki-uch ayol tamaki, qurut, saqich sotib o'tirishardi. Bular erta-kech shu yerda, hamma gapni bilishadi!

Savolga tutsa-chi?

Yo'q.

Gap unmadi.

- Yaxshi o'tiribsizlarmi, singillar? - deyishi bilan, ayollar chuvillashdi:

- Nima ishingiz bor? Bir narsa olmoqchi bo'lsangiz, oling. Bo'lmasa, ketavermaysizmi? O'zi mast...

Husan mast edi.

Ketaverdi.

U hozir bu yerda uymalashishda ma'no yo'qligiga qanoat hosil qilgan edi.

\* \* \*

Uyga kirib kelgach, obdan yuvindi.

Hushyor tortdi.

Oromkursiga cho'kib qalin daftarni ochdi.

Kasalxonada degani ham teleminta emas, uzoqdan ko'rini turadigan! Voris qayerdagи, qaysi kasalxonada? Izlash kerak.

Birma-bir turli kasalxonalarga erinmay qo'ng'iroq qila boshladi. Navbatchilar bilan gap talashib, bir yalinib, bir do'q urib terlab-pishganicha, ikki soat deganda nihoyat, jiyani daragini topdi. Voris markaziy kasalxonada ekan!

Vaqt allamahalga borgan. Juda charchagan edi.

Shoirani opalari yonida Xumsonga jo'natganiga pushaymonlik sezib, o'zi-o'ziga o'rin to'shadi.

Chiroqni o'chirib ko'rpgaga o'randi.

Salqin bahor tuni. Shamol g'uvillab daraxtlarni silkitardi.

Osmonga bulut chiqqan ekan, bir mahal shitirlab yomg'ir yog'a boshladi.

Tezda qotib uqlab qolaman, deb o'ylagan edi. Ko'zi bir ilingach, uyda yolg'iz ekanligi-yu, bu kungi taassurotlar yukidan uyqusi qochdi. U yon-bu yon ag'darilib, yotaverishmi, o'rnidan turishini bilmay, azoblana boshladi... Erkak kishi xotini uyda borligiga beparvo qaraydi. Uyda bo'lmasa, paytavasiga qurt tushadi. Usiz yashayolmasligini sezadi.

Xotini yo'qlar yoki xotini o'lganlar ahvolini xudo ko'rsatmasin! Ana, mahalladagi Marat bobo degan so'qqabosh kishi. U, kunni balki, har xil yumush bilan вЂњaldarb вЂќ. Naq yurakkacha zulmati вЂњkirib keladiganвЂќ tunlarni-chi? Qanday o'tkazar ekan? Husan yolg'izlik haqida o'ylaganida doim Marat boboni ko'ngli achib eslar va faylasuf ekanligidan, Bu Odam hayoti falsafasini tushungisi kelar edi. Hammadan ham, Marat boboning oila qurmaganmi, ajralganmi, o'zini O'lg'izlikka beparvo qaragandek tutishi Husanni ajablantirardi.

Bu kech uyqusi qochib, u yana yolg'izlik, Shoira, muhabbat, ayollar to'g'risida xayolga cho'mdi.

Yuz - yuz, lab - lab, ko'z - ko'z, qosh - qosh...

Azaldan Odam shunday Yaratilgan. Ajablanish ortiqcha. Lekin qizlar, ayollarda bularning har biri Alovida Ahamiyatga ega.

Malohat kasb etadi! Asrlar davomi Sharqda shoirlar Ayol yuzi haqida (betidagi xoligacha), lablari haqida (hatto og'zi shakligacha), ko'zlar haqida (kipriklarini unutmey), qoshlari haqida (qanday o'rashganini sharhlab, goh yoyga o'xshatib, goh вЂњqilichlardirkib вЂќ deb) ming-minglab baytu g'azal yozganlar. Ular albatta, mahliyo bo'lganlar va bu mahliyolikdan Ayolning Xayoliy Yuksak bir tasviri shakllangan. Ayol deganda shu tasvir ko'z oldiga keladi.

Biroq dunyoda Bu Tasvirni umrida tasavvur qilolmagan, shoirona fikrdan uzoq yigitlar-erkaklar ham topiladi. Ayol fe'l-atvorini, ko'nglini ba'zan tushunmaslik, Ayolni kamsitish, Ayolga og'ir ishlar buyurib, qiyalgani, xo'ranganiga chetdan loqayd qarab turish - bu bema'niliklar O'sha Tasvirni ko'rmanganlik va insoniy tuyg'ular dag'allashib ketganligini payqamaganlik belgisidir. Ehtimolki, qalbda muhabbatning o'zi yo'qligi belgisidir.

Husanning do'sti, ikki marta uylanib oilada rohat-farog'atga erishmagan Qurbon domla bunga misol. U ko'pincha:

- Shoirlar yozgani faqat ramzdan iborat. Ayolni farishtaga, pariga o'xshatish uydurma, xolos! - deydi.

(Aslida, Marat bobo ham shunaqamikan?)

Husan esa talabalik yillaridayoq Shoirani uchratib, Shoir bo'lib sevgan va yillar o'tib, o'sha o't yolqini hamon ko'ksida saqlangan edi. O'shlari ulg'ayib keksalik ostonasiga qadam qo'yishgan bo'lsa-da, u oshiq yigitdek hozir ham xotinini ko'rkar, barno deb bilar, rashk qilardi. Shu boisdan, opalarim borsa boribdi-da, Shoirani tog'dagi qaysidir qishloqqa, begona kishilar uyiga yuborib nima qillardim, deb o'zi-o'zidan norozilanayotgan edi.

O'mg'ir endi yerni qimchilamoqda.

Shamol ko'chayib nola chekmoqda.

Bir oz chalg'imasa uxlayolmasligini his etib, o'rnidan turdi.

Choy qo'ysi. Bosim ikki piyola ichdi.

Bu kun ro'y bergan voqealarga aralash holda butun hayotini eslashiga to'g'ri kelganidan, shu damda u istab-istamasin, yana xayol kapalagi bolalik gulzoriga borib qo'ndi.

Bolalik kunlarini baxt deb bilish qanchalik havoyi bo'lmasin, bu tushunchada baribir jon bor. Bola alam va zulmning alam va zulm ekanligini anglamagan uchun ham, o'z yo'lida yugurib boraveradi. Unga hayotdagi yaxshi va yomon hodisalar tabiiy bo'lib ko'rindi. Deylik, Husan bolalikda biron payt o'zini baxtsiz sezmagan. Hozir ham bolaligim baxtsiz kechgan, deb o'ylamaydi.

Amalda ahvol qanday edi?

Husan eslaydi: ota Ismoil Xo'ja ma'muriy bir idorada xat saralaydigan kichik xizmatchi, olgan maoshi oydan-oyga yetmas edi. Oyning oxirida o'tadigan kun quruq non bilan choyg'a qolardi. Boshqa payt ham yeganlari yovg'on, atala, piyova. Ona Bokira bonu topgan-tutganini bolalarni kiyintirishga ketkizardi. Uning qiziq bir gapi bo'lardi: вЂњYegan-ichganiningni birov bilmaydi. Egningga hamma qaraydi! вЂЌ Lekin oila ahil. Ularning uyidan ko'chaga gap chiqmas edi. Bitta mayizni qirqa bo'lib yeishardi.

Opalardan biri yettinchi, ikkinchisi to'rtinchisini o'qishni to'xtatgan. Egizaklarni esa avvaldan mакtab вЂЊquchoq ochibвЂЌ qarshilamagandi.

Boshlang'ich sinf muallimasi ularga yuzlashganidayoq rangi o'zgarib (keyin bilsa, uning o'zi hayotda baxtsiz, tirnoq ko'rmagan ekan), bulardan bittasi boshqa maktabda, jilla qursa boshqa sinfdan o'qisin, menga og'irlik qiladi, deb turib oldi. Ota-oni norozilanib, direktor aralashgach, Hasan-Husanga o'chakishib qoldi. U o'z qat'iyatini ko'rsatgisi kelib, dars boshlanishi bilan, egizaklardan birini (takdirning nomardligi, bu asosan, Husan, deb tushunamiz!) sinfdan haydar chiqarar, yonidagi jildni ro'yi-rost derazadan ko'chaga uloqtirar edi. Bola bechora, qizchasi injiqligini ko'targan otadek, tanaffus payti indamay qaytib sinfga kirar, yangidan вЂЊjangвЂЌ boshlanardi.

Asabiy, badjahl muallima ularni qiynatotganini bilgan sinfdoshlar aksincha, Hasan-Husanga shunday mehribonlik ko'rsatishgan ediki, Husan hozirgacha buni ta'sirlanib, minnatdor bo'lib eslardi.

Mana, endi, uzoq yillardan so'ng, muallima ko'rsin! Soxt-sumbati, yuz-ko'zidagi ifoda bilan ham, yurish-turish mashqi bilan ham Hasan Husanga, Husan Husanga o'xshamaydi. Jonkuyar tarbiyachi ularni ko'rsa, kim bilsin, o'zini murodiga yetgan sanarmidi?

Bolalikda bir olmaning ikki pallasi bo'lgan Hasan va Husan bu kun biri-birining holidan butkul xabardor, dardi-dilini o'qib boradi deyolmaysiz. Qarang! Hasan bilan o'g'li Vorisning munosabati oldin qanday edi? Hozir qanday? Husanga qorong'i! Otaning maqsadi nima-yu, bolaning maqsadi nima? Buni bilmay turib, bir ish qilolmaysan. Ota va o'g'il, ona va qiz, er va xotin, opa va singil, aka va uka (egizaklarni qo'yavering!) bora-bora, sezmay yotlashib, uzoqlashib ketishi fojia emasmi? O'lg'izlik azobi shundan boshlanmaydimi?

Husan qaytib o'ringa cho'zilib, uyqu kelishiga umidlandi.

Uyga qadam bosganidan buyon u, uzuq-yuluq har narsani o'ylab, chalg'ishga urinayotgan edi. Betartib xayollar ortida bo'lak bir manzara - oq kiygan gavdali kishi va himoyasiz bola uning ko'z oldidan ketmagan edi. Husan dam sayin yangidan dahshat tuyib, yuragiga g'ulg'ula tushmoqda edi.

Insoniyat igna ko'zidan tuya o'tadigan taraqqiyot darajasiga, fanda, madaniyatda kamolotga yetgani holda, ming yil burungidek jaholat, yovuzlik hukm surgan Bu Dunyoda, aql yuzasidan qaraganda, katta kishi ko'chada murg'ak bolani tutib urgani - oddiy, kichik bir voqe, xolos. Lekin aql - faylasuf bo'lsa, tuyg'u - haqiqatparast. Aql chekinishga undasa, tuyg'u o'zingni oqlashga mone'lik ko'rsatadi! Husanni ko'ksida uyg'ongan vijdon qiyognog'i kabi holat o'rtayotgan edi.

Bir qarasa, odam - mo'rt narsa. Jon - kirib chiqqan shunchaki nafas.

Yana bir qarasa, odamning boshi - toshdan, jismi - temirdan qattiq. Qirq yil qiron kelsa, ajali yetgan o'ladi.

Husan tasavvur qildi:

Bola yotib qolsa-da, o'nglanadi. O'lmaydi! Bir kuni voyaga yetadi. O'shanda barcha odamlarni oq kiygan gavdali kishi deb biladi. Barchaga nafrat-adovat bilan qaraydi. Duch kelgan birovga tashlanadi. Qo'lida tig' yoki to'pponcha!

Husan yana tasavvur qildi:

Gavdali kishi masalan, avvaldan o'g'rilik qilgan bolani jazolamadi! Egri yo'lga kirgan bola baribir, jinoyatchi bo'lib o'sadi.

Aksincha, vaqtida hech kim yo'lini to'sib saboq bermagani unga go'yoki qanot bag'ishlaydi.

Ikkala holatda ham bola jinoyatchiga aylanar ekan, nima qilish kerak?

Dunyoda toki hamma yerda ezgu tarbiya va to'g'ri yo'lidan borishga sharoit yaratilmagunicha, jinoyatchi bo'lsa-da, ushoq norasidani qoralashga til bormaydi!

O'mg'ir, shamol tingan edi.

Bulut tarqab, uyga oy nuri tushdi.

\* \* \*

- Hamma qiroatxonada to'planinglar!

Uydagi eshikka urushdan keyingi yillardagi singari radio karnayi o'rnatilgan.

E'lон radiodan oldin berildiyu keyin qo'shiqlarga o'tildimi yoki qo'shiqlar oldin yangrab, keyin e'longa navbat yetdimi? Husan anglayolmadi.

Eshik qulfini tuzatmoqchi, derazaga oyna o'rnatmoqchi edi. Jo'mrakdan ham zanglagan suv oqib yotibdi. Tuzatish kerak.

Bular mayli. Har gal yomg'ir yog'ganida tomdan chakka o'tadi. To'rt qavatlari imoratning to'rtinchisi qavati yomon ekan!

Husan eringanidan, dastlab jo'mrakka yaqinlashdi. Sekin buragan edi, jo'mrak qolib, radio вЂЊtilsвЂЌ kirdi.

E'lонни o'qigan - taniqli biron suxandon emas, mahalla suxandoni ham emas... negadir bu Marat boboning ovozi edi!

Mahalla deb atalsa-da, ularning joyi eski shahardagidan farq qiladi. Gugurt qutisidek bir xilda ko'p qavatlari qator binolar qurilgan.

Marat bobo to'yumi-marosimmi, goh eshik taqillatib, goh ko'chada turganicha derazaga qarab ahli jamoani chaqiradi. Bu gal radio orqali xabar qilayotganga o'xshaydi.

Husan darhol ko'chaga yo'l oldi. Qo'shiqlar-chi?

Uning yurakdan yoqtirgan qo'shiqlari besh-o'nta.

Karim Zokiru o'g'li Botir akaning bir-ikki qo'shig'i. Halima opaning xalq yo'lidagi sochmalari. Ma'murjon aka, Ma'ruf xo'ja Bahodir... Tavakkal ijrosida vTbñFasli navbahor o'ldi, o'tibon zimistonlarbTbk deb boshlangan qo'shiq. Sattor Yarash...

Shu kuni u Alisher Navoiy g'azaliga bog'langan ikki qo'shiqni ijro etdi. Husan o'zini shunday baxtiyor sezdiki! Ajib hasrat ham tuydi. Boshini ostonaga qo'yib yig'lab, jon taslim etishga tayyor edi.

Qilmadi yodimni hargiz

bir pari ruxsora ham...

E'londan oldinmi-keyin berilgan qo'shiqlardan Husan qisqasi, yoqavayron bo'lib ko'chaga chiqib ketganini sezmay qoldi.

Bu joy - shahar etagi.

Qiroatxona - uylardan ham chetda.

Ikki orada - yolg'izoyoq yo'l.

Atrof bo'm-bo'sh.

Husan bosh egib, yer chizib borar edi.

Mahalla-atrofdagilar majlismi, biron munosabat bormi, ba'zan qiroatxonada to'planishardi. Qiroatxona - tashlandiq, xarob. Lekin birov bunga ahamiyat bermasdi. Yig'ilib gaplashsa, bir ish hal bo'ladigandek, to'yga-marosimga chiqqan singari hamma birin-ketin boraverardi.

Bugun odamlarni nega chaqirishdi? Noma'lum! Husanni bu qiziqtirmayotgan ham edi. Marat bobo radiodan da'vat qilmasa, balki uydan chiqmasdi.

Uzoqdan qiroatxonaning qorasi ko'zga tashlanganida, u Sattor Yarashning qo'shig'ini o'zicha ming'irlab borardi:

Qilmadi yodimni hargiz

bir pari ruxsora ham...

Shu payt mushtdek bir bola uning yonidan shaytonvachchadek zip etib o'tib ketdi.

Husan bola qachon yo'lida paydo bo'lganini payqamagan ustiga, bolaning afti-angorini yaxshiroq ko'rishga ulgurmadi. Bola qiroatxonaning ochiq eshigiga yo'nalib, ko'zdan g'oyib bo'lidi. Husanning xayolidan negadir, xayriyat, tirik ekan, degan gap o'tdi. U qiroatxona eshigiga yetib keldi.

Binoga kirdi.

Bino nimqorong'i. Rutubatl.

Baland gumbaz ostidagi qalin devorlar turli zamonlarda o'tgan fir'avnlarning rasmlari bilan bezalgan. Ular qiroatxonaga hasham bergandek.

Qator terilgan kursilardan rayosat egallaydigan o'ringacha band. Ammo tanish biron katta kishi ko'rinxmaydi. Hammasi bolalar.

Husan qiroatxona derazalari tomon qaradi.

Derazalardan biri ortida, ko'chada ruhoniylardek uzun rido kiygan Marat bobo. Qo'lida tilla tayoq, suyanib turibdi.

Uning yonida hali yo'lida ko'ringan bola bilan Hasan.

Birov Husanni qo'lting'idan tutdi. Qarasa, O'monqul.

- Bu yerda sизга nima bor, ustoz! - O'monqulning egnida janda, boshida kuloh. Lekin qo'ynidan shisha chiqardi. - Oxirigacha olasiz...

Husan shogirdi qo'lidan yulqinib chiqib, shoshganicha qaytib o'zini yolg'izoyoq yo'lga urdi. Ayni soniyada qiroatxona tomonda kimdir Sattor Yarash qo'shiqlarini aytayotgan edi:

Qilmadi yodimni hargiz

bir pari ruxsora ham...

Husanning ko'ngli buzildi.

U ko'ksi chok bo'lib faryod chekishga tushdi va ...

birdan uyg'ondi.

8

Husan bilan bilim dargohi eshigida uchrashgan Hasan - mashina Navoiyga qarab yo'l olgach, ko'zlarini horg'in yumdi.

U Toshkentga mashinani oldinroq yuborib, o'zi samolyotda uchib kelgan edi. Bunday ish tutganiyu mashinada qaytayotganiga esa sabab: yo'l ustida Guliston, Jizzax, Samarqandda birrov to'xtab hamkorlik bo'yicha ba'zi bir shartnomalarga imzo chekishi kerak. Uni televide niye suhbatga taklif qilgandi. Agar, shunaqa istak bildirilgan, deyilmasa va Vorisdan ham tashvishlanayotgan bo'lmasa, ehtimolki, kelmasdi. Nari borganda, viloyatdag'i oynai jahon orqali vTbñtayyor suratbTbkini yuborib qo'ya qolardi.

Suhbat sayozroq, yuzakiroq o'tgandek bo'lidi. Saroydek haybatli xonada qator stollar. Dasturxon yozilgan, birov bu yerga tamaddi qilgani kelmagani ayon ekanligiga qaramay, turfa noz-ne'matlar vTbñto'kib tashlanganbTbk, to'planganlar doira shaklida stollar atrofidan joy olishgan edi. Bular har biri korxona rahbarimi, mashhur paxtakormi, boshqaruvchimi - nom qozongan, obro'li kishi. Ammo rostmi-yolg'onmi hisobchilar kabi raqam keltirib, barcha tutilib-qiyinalib, zerikarli bir gaplarni aytish yoki qog'ozdan o'qib berishga urinar edi. Hasan ham... Xudo bandaga ikki narsadan birini - yo so'z, yo mehnatni berar ekan! Ana, egizaklardan Husan - so'z kishisi, Hasan - faoliyat. Albatta, ikkisini ham eplaganlar topiladi. Lekin bu mustasno.

U Toshkentga kelishi bilan Vorisni uchratishga umidlangandi. Nazarida, o'g'li naq ro'parasidan chiqadigandek edi. Husanga dardini yorib vazifa yuklashdan bo'lak natijaga erisholmadi. Bundan ham endi ko'ngli to'lmay borar edi.

Hasan poytaxt shaharni necha bora changitgan. Shunday bo'lsa-da, bu yerdagi hayotga o'rganmagan. Ko'nikolmagan. Viloyat vakiliga xos belgilari - ayovsiz mehnat va bunga qorishiq beg'am-beparvo holatni yo'qotmagan.

Uning shu kungacha umri asosan, chop-chop, yugur-yugur bilan o'tdi. Tengdoshlariga nisbatan kechroq, mo'ylabi sabza urganda emas, iyagi qorayganda uylangan. Yana, farzand ko'rishsa-da, birinchi oilada turmushi unmagan. Ikkinci xotinidan bolalari ancha yosh. Buni bilib, o'zini doim bardam tutishga harakat qilardi. Ammo ulg'ayib, kundan-kun uyquga to'ymayotganmi, shiddatlanishga kuchi yetmayotganmi - og'ir yukli aravani tortgan otdek, lanj bir holatni sezar edi.

Bir oz mudramoqchi edi. Oyog'i og'rib, ko'zlarini ochdi.

Mashina Toshkentni orqada qoldirib, Yangiyo'lga yaqinlashmoqda.

Kun yorug'. Atrof yam-yashil.

Bexosdan sanchib og'riy boshlagan oyoqlarini siypab, osmonga, charaqlab turgan quyoshga qaradi.

Shu dam otasi Ismoil Xo'ja yodiga tushdi.

Ismoil Xo'janing ham oyoq og'rig'i bor edi.

U dahlizda oyoqlarini toshnovga uzatib, oftobga tutib o'tirardi.

Hasanning qo'liga ba'zan kichik bir shishada ilonmi-ark moyini berib, surkashini so'rardi.

Hasan og'rinmay xizmatni bajarardi.

Ota duo qilardi.

Bolalikda sho'xlik, notinchlik unga (balki, birodari Husanga ham) yet emasdi. Biroq ro'zg'or - g'or bo'lgan sharoitda muttasil unga qanot yozolmayotgandek tuyulib, o'zini yuragi tars yorilayotgandek sezar edi. O'zi va oila uchun foydali bir ish qilgisi kelar edi. Goh-goh eslaydi...

Вън Bir qism quruqlik, qolgan uch qism suvът, degan gapni kitobda o'qigan. Hali biron payt daryo yoki dengiz bo'yiga bormagan, buyuk ummonlarni ko'rman. O'vvoyi-xarsang toshlarni oralab bag'ridan pastga suv otilayotgan yuksak tog'larni tasavvur ham qilmas, sharqiragan oppoq shalola nima, bilmas edi.

Uning sahro, tuya rasmiga kitobda ko'zi tushgan. Bepoyon qumlik, haftalab-oylab suv ichmay tomiri tortib, tashnalikdan tars yorilgan taqir yerlar, loladek gullagan va qurib sap-sarg'ayib dag'allashgan yantoqni, yavshanni, kovgarni hali ko'z oldiga keltirolmas edi. Lekin bir qarichligidan u svuga talpinardi.

Ko'pincha uyda, tog'orada cho'milib o'tirishni yoqtirardi.

Opalari Mayluda va Mayjuda unga baliqmisani deb tirg'alishar, birodari Husan esa hiringlab kular edi.

Bir gal qishloqdan kelgan allaqaysi qarindoshlarga външното опишебът oldi. Qishloqda suv bo'lishini bilar edi.

Ajabki, yo'lda ham, qishloqqa kirib borgandan so'ng ham na to'plangan suv, na oqar svuni ko'rdi.

Na ko'l. Na hovuz.

Buxoroda eskidan suv tanqis, har tomchi ba'zan tillaga teng ekanligidan bexabar edi.

Hovlida zerikib qolib, negadir ikki qo'li orqada, tashvishlanib turgan qariyaga yuzlandi.

- Bobo! - dedi. - Men cho'milaman!

- Dahlizga kiring. Bir og'iz gapingiz, bolam, - dedi tappi yoqayotgan kampir cholning o'rnida. - Hozir suv isitib beraman.

- Yo'q, men boshqa... Dalada! - dedi Hasan.

Qariya ko'pni ko'rigan edi, uning ko'nglini fahmladi.

- Yuring-chi, o'g'lim, - dedi.

Dalani oralagan, suvi tizza bo'yi keladigan ariq yoniga boshlab bordi:

- Qani, yechinib bir kalla tashlang-chi!

Hasan yechinib svuga tushdi.

Mana, endi u dasht-sahrolar, dengiz-ummonlar, yuksak tog'larni ming bora ko'rgan. Biroq o'zini aksar hamon tog'orada o'tirgan yoki loyqa svuga външната ташланбаът Текъдек sezadi. Katta bir ishlar qilmoqchi bo'lganu hayotda bunga erisholmagandek kayfiyat uni tark etmaydi.

Yana bir, aslida muhim ham emas, o'tkinchi, arzimas voqeа ahyon-ahyon yarq etib ko'zi o'ngida jonlanadi.

Qurbanmi-ramazon hayiti kuni saharlab Hasan birodari Husan bilan qarindoshlardan (otasinining xolasimi, ammasi) keksa bir ayolning uyiga tabriklagani borishdi. Ayol - uyi devorlarida cho'g'dek gilamlar osilgan, qator tokchalarda qirmizi laganlar, choynak-piyolalar terilgan, kumush va oltin qoplamali sandiqlar to'rdan joy olgan - ilk qarashdayoq boy-badavlat edi. Urush, keyingi mashaqqatli yillarda u harholda външната синмаганбаът Текъ edi. Buxoroda o'sha paytlar hayit, bayram kunlari so'roqlab kelgan bolalarga pulmi, sovg'ami berish rasmiga rioya qilinardi. Ayolning ham aftidan, marhamat ko'rsatgisi keldi, qo'liga uch so'mlik pul oldi-yu, bu pulga birov ot-tuya bermasa-da, qizg'anib-ikkilandi. Bir so'mni o'zida qoldirishga qaror qilgandek edi. Hasan-Husanni uch-to'rt qo'shni eshikka boshlab bordi, ammo mayda pul topilmadi. Orqaga qaytib, ayol astoydil kiyindi, ko'chama-ko'cha yurib, uchrangan odamni to'xtatgancha, pulni maydalashni so'rashga tushdi. Hasan va Husan xijolat chekib, keragi yo'q, deyishganiga qaramay, qarindosh ularni na qo'yib yuborar, na uch so'mlikdan voz kechardi. Axiyri, bozorgacha yetib borishdi. Bozorda kampir pulni maydalab, ularga bir so'mdan berdi. Qolgan bir so'mni avaylab cho'ntagiga solganicha, uyiga qaytib ketdi.

Mana, endi Hasan външната гарилаб юрганбаът Текъ ancha-muncha kishidan boyroq (qarindosh ayolga о'xshaganlardan yuztasini външното олишбаът Текъга qurbi yetadi). Unga bolalikda, boyagi ayolning ishi sal kulgili, sal ayanch bo'lib tuyulgan edi. Hozir esa bu ishga boshqacha qaraydi. Bir so'mga bir so'm qo'shilmasa, odam boy bo'lolmaydi! Qo'liga kirgan boylikni ko'kka sovurgan qancha boyvachchalar xor, zabun holga tushmagan! Tarixda misol ko'p!

U og'riyotgan oyoqlarini siypab, quyosh nuriga cho'mgan dalalarga tikilganicha, xayol surib borayotgan, televizorda chiqqanim arzon, Vorisni ham topib-olib ketmayapman, demak bu safarimda ortiqcha xarj-xarajatdan bo'lak hech narsaga erishmadim, deb o'ylayotgan edi.

\*\*\*

Hasan mashinada yaqin orada buncha uzoq yo'l bosmagan edi.

Oldinlar tun-kun yursa-da, toliqmas, yo'lning mashaqqat ekanligini sezmasdi.

Uni, endigi ahvolini bilish, kuch-g'ayratini sinash uchun hayotning o'zi bu yo'lga boshladimikan?

Aslida, yo'l yangi, ravon. Og'rinmay ketaverish kerak.

Gulistonda uzoq to'xtamadi. Bir piyola choy ichdi, xolos.

Jizzaxda ham tutilmoqchi emasdi. Lekin ertalabdan dasturxon yozib kutishayotgan ekan. Bundan tashqari, joni ozgina orom tilayotgan edi.

Ora-orada oyoq og'rig'i bosilib, keyin yana avj olardi.

Mashina Jizzaxdan uzoqlashib Samarqandga yaqin qolganida:

- Abumuslim! Sen bu yoqqa o't, - deb haydovchini nari surib, o'rnini egalladi. O'zini chalg'itib, og'riqni unutmoqchi edi.

Haydovchidan yolchish - er xotindan, xotin erdan yolchigandek gap.

Hasanni roppa-rosa yigirma yil Abdulla aka degan haydovchi olib yurgan edi. Aqlli, mehnatkash, toza-ozoda bu odamga Hasan

o'ziga ishongandek ishonardi. Abumuslim ham bo'ynidagi vazifani to'g'ri bajarib kelayotgan yigit. Ammo atrofga qiziqib qaragani bilan, sezgir emas. Yuz-ko'zingdan darhol ma'nouqmaydi.

Hasan o'z hayoti to'g'risida so'zlash, o'z ahvolini har kimga bayon etishni yoqtirmaydi. O'zlik - qo'rg'on, deb tushunardi. Hatto bu kun birodari Husanga sir ochgani - kam yuz beradigan hol! Bolalik, yoshlikdan u yelkasiga tushgan yuk qanchalik og'ir bo'lmasin, bukilmay turishga, ingranmay-og'rinnmay ish tutishga o'rgangan.

Ana, hozir ham dard oldida ojiz kelmaslik uchun, ot surgan chavandozdek, mashinani boshqarishga tushdi.

Mansab, mulk-davlat egallab to'kin-farovon yashashga erishgunicha, Hasan ne-ne to'siqlarni yorib o'tgan! Eng avval, qo'li qisqalik (kambag'allik)dan, katta bir ishlar qilishga imkon topolmaslik - nochorlik, noilojlik to'sig'i! So'ng, seni o'z g'arib kulbangda ham bir narsani erkin o'ylash, bir ishni mo'ljallab erkin harakat qilishga qo'yagan - to'ralar qurban to'siq! Yana, ter to'kib qo'lga kiritgan naqdinani to'rt tomondan tortgan-talagan, yulib-yulqigan yuho olg'irlar... Nihoyat, g'ayrlik-g'araz!

Biroq Hasan bolalik, yoshlik yillaridayoq albatta oyoqqa turaman, deb ont ichgan...

Va oyoqqa turgan edi!

Uning uchun hayot - harakat.

U - hamon to'siqlarni yengayotgan kishi.

Faqat dastlab oila qurbanida duch kelgan to'siqni yengolmaganidan hamon joni azob iskanjasida. Nima qilishini bilmay sarosimalanadi.

Hasan Labihovuzdagagi bir do'konda Qurbonoy bilan tanishgan edi. Nimaningdir ustida bahslashib xafalashishdi. Lekin o'n-o'n besh kundan keyin, ko'chada tasodifan yuzlashib qolib, negadir Qurbonoy salom berdi, Hasan alik oldi. Ilk uchrashishdagi bahsu mujodalani paqqos unutgandek, ikkovi biri-biriga qadrondonlik bildirdi. Keyin, Labihovuzda yana uchrashishdi... O'shanda yangi shahar endi qurila boshlagan, Namozgohdan nari yog'i dala edi. Eschi Buxoroning ensiz ko'chalarida esa yigit-qizlar bot-bot yuzma-yuz kelishi oddiy holat, ayniqsa Labihovuz - saylgoh, yoshlar bo'sh paytlarda ko'pincha bu yerda aylanib yurishardi. Ular ko'risha boshlashdi.

Hasanni ota-onha uylanishga qistayotgan edi.

Hasan uylandi.

Qurbonoy ovqat pishirishga usta, erta-kech kir yuvish, uyni oynadek tutishda yakto chiqdi. Ona-Bokira bonuning pinjiga kirdi-qo'ydi. Bilimli, kitobxon, jahon madaniyatidan voqif ekanligi bilan ham, qaynonasini вЂњbu qiz yoshligim, o'zimbвЂќ deydigani ko'yga soldi. Chamasi, Ismoil Xo'ja ham kelindan rozi edi. Ammo ko'p o'tmay, Hasan o'sha, ilk uchrashishdagi bahsu mujodaladan kerakli xulosaga kelmay adashganini sezaga boshladi. U bir kunlar, hali bolalikmi-o'smirlig payti uydagi beozor gap-so'zlardan validasi (Bokira bonu)ning vaqtida ko'ngli Ismoil Xo'jada emas, amaki Ibrohimda bo'Igani-yu, qismat boshqacha shakllanganini bilib olgan, hayotda shunaqa ishlar ham uchrab turishiga ajablangan edi. Ismoil Xo'ja mo'min, tabiatan shikasta ekanligidan, o'zini bunday gap-so'zlarga ahamiyat bermagandek tatar, uni akasining yo'qolgan qayg'usi ko'proq ezar edi. Hasan - Ismoil Xo'ja emas (garchi unga farzand bo'lsa hamki)... Xullas, Bokira bonu uyda, oilada jilovni qo'lga olib qanday hukmfarmolik qilayotgan bo'lsa, Qurbonoy ham birinchi kundan shunday yo'l tuta boshlagan edi. Unga biron e'tiroz bildirish, qat'iy biron ko'rsatma berish mumkin emasdi. O'z bilimi, aqlini namoyish qilishga tushardi. Birov uni kamsitishidan qo'rqqandek, bahslashaverardi. Bu dunyoda er-xotinlikning ming yillik yozilmagan qonunlari borligini tushunmas, tiriklik goh murosasizlik, goh murosasozlikdan iborat ekanligini bilmas edi.

Uch yil deganda вЂњikki tomonбЂќning ham sabr kosasi to'ldi,

Hasan Qurboyni yaxshi ko'rmaydi, deb bo'lmasdi.

Yaxshi ko'rardi.

Biroq buni вЂњunutdibвЂќ.

Ota-onasining rizoligiga ham qaramadi.

Kishanni uzmasa bo'lmasligini his etdi.

Uzdi.

U ajalsam, tamom, deb o'ylagan edi.

Bu - boshlanishi ekan.

Avvalo, orada guldek farzand - Voris bor edi.

Yana, o'zi вЂњturmushda uquvsizбЂќ deb bilgan holda вЂњtashlab ketganбЂќ Qurbonoy oldida javobgarlik bor edi.

Bulardan bo'lak, ko'ngil shishasi bir karra singan, hayot jomi zardobga to'lgan edi.

O'sha mahallar Buxoro va Samarqand viloyatlaridagi uzoq tumanlar ajratilib, Navoiy viloyati barpo etildi. Ko'pdan buyon Gazliga qatnab ishlayotgan Hasanni yangi viloyatga taklif qilishdi. U eski Karminaga tutash, kundan-kun markaz turqini olayotgan Navoiy shahriga ko'chib keldi.

Hasan bu yerda obro', mavqe topa boshladi. Ma'lum muddat o'tib, Norgul degan qizga uylandi. Norgul unga bir qiz, bir o'g'il tug'ib berdi. Lekin bu farzandlarga bo'lgan mehr uning Vorisga nisbatan otalik mehrini so'ndirgani yoki kamaytirgani yo'q.

U oldinlar Gazli va Buxoro orasida qatnardi.

Endi Navoiy va Buxoro orasida andarmon bo'ldi.

Umr shamol ekan!

Bokira bonu, unga ergashib Ismoil Xo'ja - aziz padar va munis volida dunyon tark etishdi.

Buxoroda Hasanning opalari, Qurbonoy va Voris qolgan edi. Hasan hamon ikki o'rtada bo'zchining mokisidek qatnardi.

Qurbonoy-chi? Qanday yashayotgan edi?

U ikki marta er qildi. Baribir turmushi unmadi.

Ahvol alamli, gohida nafratli edi. Hasan e'tibor bermay, ona-bola bilan ko'rishib yurdi.

Qurbonoyning ruxsati bilan, oyda-yilda bo'lsa-da, Vorisni Navoiyga olib bordi. Yangi oilasi bilan вЂњtanishtirib, oshno qilishбЂќ urindi. Bola otasiz o'sayotgani jabrini imkon qadar вЂњengillatishбЂќ jonimi tikdi.

Yana yillar o'tdi.

Voris ulg'aydi. Uylanadigan yoshga ham yetdi.

Tezroq uylansa, bo'yniga xurjun osilib, o'zi-o'zidan tinchirmidi?

Kutilmaganda Qurbonoy dunyoga etak silkidi.

Hasan ana shunda, ikki o'rtadagi butun ziddiyat, mojarolarga qaramay, bu Ayol o'ziga qadrli ekanligini, bir umr uni yaxshi

ko'rganligini sezdi. Chindan bilimli, aqlii Qurbanoydan ko'p narsa o'rgangani, undan ko'nglida minnatdor ekanligini ham sezdi.

O' Parvardigor! Dunyoning bebaqoligidan achchiq-achchiq yig'ladi.

Voris uyda yolg'iz qoldi.

Kap-katta yigit! Lekin Hasan bir yerda bo'laylik, deb o'g'lini uyni sotib Navoiyga kelishga undadi.

Shu palladan ota-bola orasidagi munosabatda goh-goh g'isht qolipdan ko'cha boshladi...

Haydovchi o'mnida mashinani haydab borayotgan Hasan bayonsiz bir azob tuymoqda edi.

\* \* \*

Kun qaytgan. Osmonni bulut qoplagan.

Mashina Samarqandga kirib bordi.

Hasan bu yerda ham Guliston, Jizzaxdag'i kabi hamkor og'aynilar bilan suhbatlashib, shartnomalarga imzo chekkanida allaqachon qorong'i tushgan edi. Ko'p o'tmay, shamol to'zon ko'tarib, yomg'ir boshlandi. Hasan bir piyola choy ichib-ichmay, tez qo'zg'oldi.

- Boshqa gal. Shoshayapman, - dedi.

- Hech bo'lmasa, yomg'ir tinsin.

- Bahor yomg'iri! Kesakmidik, erisak!

U mashina yoniga kelib, Abumuslim orqa o'rindiqqa tashlab qo'yilgan bolishni pinjiga olib, dong uxbab yotganini ko'rdi.

Hasanning o'mnida har qanday boshliq haydovchini uyg'otib, tur, ketdik, der, gap tamom, vassalom edi. Ammo Hasan uni kuzatgan mezbonlar oldida bir tomondan haydovchingin fahmi kamligidan xijolat chekib, ikkinchi tomondan qo'pollik qilishga uyaldi. Yana haydovchingin o'mnini egallab, mashinani surdi.

Samarqanddan katta yo'lga chiqqanda bemalol to'xtab Abumuslimni b'To'xturrib qo'yishb'Tók mumkin edi. Hatto har qanday boshliqqa o'xshab endi maromida b'To'xtuzlashb'Tók ham mumkin edi. Ayniqsa, hozir nam o'tibmi, oyoqlarida majol qurigan, ortiq b'To'xtaydovchilikb'Tók qilishi zulmga aylana boshlagan edi... Biroq shunchaki qayrilib qarab, shu damda negadir yonida yotgan Abumuslim uning ko'ziga Voris bo'lib ko'rindi. Charchagandir, yotsin!

Shamol girdibod urib, yomg'ir chelaklab quya boshladi.

Hasan oldindan mashina haydab yurgan. Yo'lidan cho'chimaydi. Bu yog'i yaqin. Bir soatdan ko'proq vaqt ichida Navoiyga kirib boriladi... Shunga ham ota go'ri qozixonami?

Yo'lda mashinani haydab ketayotib (yonidagi Abumuslimmi? Vorismi?) qayta-qayta, o'zi-o'ziga rahmi kelib, yoshlar shafqatsiz, mening holimga Voris ozgina tushunsaydi, deb o'yladi. Keyin, qayta-qayta, o'zi-o'zini beparvolikda ayblab, aksincha Vorisga rahmi kela boshladi. Bolam qayerda, qanday yurgan ekan, degan xayolga bordi. Unga bu kun qo'zg'algan jonidagi og'riq o'g'li bilan uchrasholmagani natijasi bo'lib tuyuldi.

Hалигина Samarqandda mashinadan tushib o'ktam, tars-turs yurgan Hasan endi bora-bora oyoqlari bormi-yo'qligini sezmayotgan edi.

Nima bo'lganu nima bo'layotganini tushunmayotganidan, uni badtar g'ussa chulg'adi.

O'nidagi Vorismi yoki Abumuslimmi, endi batamom ajratolmayotgan edi.

Bunisi mayli. Hozir u go'yoki mashinada emas, piyoda, tizzasigacha qumga botib, sahro kechib borayapti. Bir tepalikdan shuvillab qum ko'chayapti. Ana-mana, uni ko'mib tashlashi mumkin.

Yana, nazarida, birodari Husan (Toshkentda emas!) oftob lovullagan sahrodamni, zulmatli-yomg'irli shu yo'ldami, to'rt tomon yugurib Vorisni va nechundir... uni -

Hasanni qidirayapti.

Ular mashina ichida ekanini bilmaydimi?

Bir payt yomg'ir tinib, ko'kda oy yarqiraganini payqadi.

Shu asno...

bu nima edi? -

b'To'lo havla va lo quvvata...b'Tók -

naq yo'l ustida tutun orasida xumdan chiqqan devdek, qurumga qorilgan qop-qora, badbashara maxluq tirjayib turibdi.

Hasan hushini yig'ib olishga ulgurmadi.

Maxluq uzun tirnoqli panjalarini cho'zib, mashinani yo'lidan sirpantirib yubordi.

Mashina borib katta bir daraxtga manglayini urdi.

9

Uyqudan bexos uyg'onib ketgan Husan -  
xuddi xarsang bir toshdek ko'ksiga tegib turgan  
tunni qiynalib surib tashlagan,  
shundan ko'ksi og'riyotgan edi.

Bu - kecha O'monqul bilan b'To'xfatlashishb'Tókning oqibati, deb o'yladi.

Atrofga qarab, Shoira uyda emasligini esladi.

Xotinsiz nonushta qilging ham kelmaydi!

Roppa-rosa qirq besh kun burun chekishni b'To'xtashlaganb'Tókdi. Hozir goh-goh bo'lganidek, chekish xumori tutdi. Lekin tuz totmay tamaki tutatib ko'chaga chiqish koni ziyan! O'rnidan turib, eringanicha choy qo'ydi.

Endi bir piyola choy ichmoqchi edi, eshik taqilladi.

Xumsandan Shoira bilan opalar barvaqt qayti kelishibdi, deb o'ylab, suyunib eshikni ochdi.

Ostonada notanish uch kishi.

Na salom, na alik.

O'rtada novcharog'i Husanga jinoyatchini tutgandek tikildi:

- Abdurahmonovmisiz?

- Nima edi?

- Elektrga nega to'lamaysiz?

- To'langan bo'lishi kerak, - deb g'udrandi Husan.

- Qog'ozini ko'rsating!
- Men bu bilan shug'ullanmayman. Oilm... Uyda u yo'q!
- Siz shug'ullanmaysiz? Nima uchun?
- Men bir ilm kishisi. Domla... - o'zini oqlayotgandek bo'ldi Husan.
- Gapni ko'paytirmang, boboy. Menga ahamiyati yo'q!
- Ey... - Husan xafa bo'lib ichkari kirib ketdi. Uyda bir oz pul (kecha Hasan bergan pulning bozordan ortgani) borligi esiga tushgan edi. Olib chiqib novchaga uzatdi.

Novcha qog'oz yozib berdi.

Husan eshikni yopdi. Arzimagan ish bo'yicha yurgan yigitlarning bezbetligi, johilligidan ozorlangan edi. Shular ham o'zbekmi? Qani, o'zbekning kattaga hurmat, kichikka izzati? Oddiy odobi? U yigitlardan bir ranjisa, o'zining tergovchiga yuzlangandek qisiniib-ojizlanib turganidan, tabiatan kamtar, xokisor ekanligidan ikki norozilandi.

Yana u o'yaldi: вЂњKambag'allik ayb emasвЂќ Ayb! Kecha O'monqul bu haqda to'g'ri gapirgan ekan! Ayniqsa, olim, san'atkor - ziyoili kambag'al bo'lganidan har kimning oldida o'z holdidan uyalib, tortinib turishga odatlanib qolmasligi kerak!

Uning вЂњlanjвЂќ faqat kecha O'monqulning qistovi bilan ichgani sabab emas. Bu kun ertalabdan jismi-jonida kechagi ro'y bergan voqealar asorati-yu, tunda ko'rgan tushi g'ubori sezilmoqda edi. вЂњO'lгanning ustiga tepganвЂќ bo'lib yo'lakdagи вЂњsuhbatвЂќ uni butkul ezib yuborgandi.

Kiyinib eshikka yo'naldi.

Shu payt telefon jiringladi.

Dastakni ko'tardi:

- Eshitaman.
- Husan! Yaxshimisan? Bu Ibod.

U bilan Ibod dorilfununda bir paytda o'qishgan, yotoqxonada birga turishgan. Lekin anchadan buyon ko'rishishmagandi.

- Yaxshi. Rahmat. O'zing tinch yuribsanmi? - deb so'rashdi Husan.
- Yuribmiz. Seni bugun bir ko'rmoqchi edim. Muhim gap bor.
- Bugun ilojim yo'q. Jiyanim kasalxonada. Buxorodan opalarim kelgan.
- Zarur. Yarim soatga. Birga tushlik qilamiz. вЂњAnhorвЂќda kutaman.

Dastakni o'rniqa qo'ygandan so'nggina, Husan Ibodning вЂњyurfakвЂќda o'qigani, adliya sohasida ishlab, hozir bir yerda tergovchimi, advokatmi ekanligini esladi. Uning nima muhim gapi bor ekan?

Qirq yildan oshdi... Ular yotoqxonada tanishib qolishgan. Ularni do'st yoki og'ayni deyish qiyin. Qiziq joyi, o'sha yillari ham, o'qishni bitirib keyinchalik har xil davralarda yuzlashganda ham, Ibod Husanga nuqul mazax qilayotgandek ishshayib, bepisand qarab, hazillashgandek maza-bemaza gapirishga odatlangan edi. Men odamming darajasi bilan hisoblashaman, sen - kim bo'lma (olimmi, domlami), g'arib bir shaxs, itning orqa oyog'i! - sen bilan bundan yaxshiroq gaplasholmayman, mazmunida o'zini qandaydir yuqori tutib kelar edi.

Ammo uch-to'rt yil bo'ldi, Ibod Navoiyga borgan ekan, Hasan bilan tanishibdi, hatto qadrdonlashibdi, shu-shu Husanga ham вЂњmehri tushibвЂќ qoldi. Ba'zan bo'lsa-da, endi qo'ng'iroq qilib Husanni yo'qlar, ora-sira ko'rishib birga tushlik qilar, suhbatlashardi. Gohida o'zining ba'zi bir ishlari bo'yicha unga go'yoki maslahat ham solardi. Bunday paytlarda ismini atamay, luft ko'rsatib вЂњnima deysiz, olim aka?вЂќ tarzida murojaat qilardi.

Husan eshikni qulflab, zinadan pastga tusha boshladi.

Orqadan uyda yana telefon jiringlagani eshitildi.

Bir iziga qaytgisi keldiyu ikkilanib, qo'l siltadi. Bunisi hozir ortiqcha!

Uning yoshlikdan odati: vaqt juda ziq bo'lmasa, ulovga minmasdi. Yaqinmi-uzoqmi, poyi-piyoda ketaverardi. Ishga ham asosan, yayov qatnardi.

Yo'lida ketayotib, Ibod to'g'risidagi o'y uni tark etmadi.

Eng avval: вЂњmuhim gapвЂќ nima ekan?

Keyin: umuman, Hasanni tanib Husanga nisbatan munosabat o'zgargani hayotda doim uchrab turadigan holatmi yoki bu yerda вЂњkosa tagida nimkosabвЂќ, u anglab yetmagan qandaydir ma'no yashirinmi?

Shu asno yashagan joyi (uyi), turmushida bo'lgan shart-sharoit Husanning ko'zi oldiga keldi... Bu nima jin urgan boshqarma ekanki, kamida o'nta rahbar oy-yil o'tmay almashindi. Lekin odamlar yashab kelayotgan uy biron payt songa kirgani yo'q.

Boshqarma (tashkilot) raqami boshlanishida 3 edi, so'ng 5 bo'ldi, so'ng ularni ko'paytirgandek - 15. Uyning ko'rinishi, holati esa o'sha, g'aribdan-g'arib! Uy qurilgandan buyon binoning o'zi mayli, yo'laklar ta'mirlab, tozalanmagan. Tomni ahyon-ahyon nonga holva yoki sariyog' surkagandek yamashadi. Butun devorlar oqargan, sarg'aygan. Tarnov yo'qmi, nima balo, yuqori qavatdan pastgacha suv oqib yotadi.

Uy egalari o'zi harakat qilishi kerak. Lekin oddiy odamlarda bunga imkon qayerda? Istiqomat qilayotganlar yarmi nafaqaga qarab yashaydi.

Husanga Shoira uchta qiz tug'ib berdi. Nasiba ekan, ikkisi boshqa viloyatlarga erga tegib ketdi. Biri Toshkentda, ota-onaning suyanchi. Biroq u ham o'zidan ortmaydi.

Husan bu manzarani nega tasavvur qilayapti?

Darvoqe...

Ibod!

Hasandan Ibod nimadir manfaat ko'radi!

(Mushuk bekordan oftobga chiqmaydi!)

Hasan boshqa jigarlari qatori, Husanga ham goh-goh qarashadi. Shu bilan birga... Husan or qiladi! Sen, axir, xalqning ko'zi oldidagi odamsan! Birov tanimasa, birov taniydi!

U sharoit haqida hatto birodariga (o'zi ko'rib turibdi-ku!) ochiq og'iz ochgani uyaladi.

Ibodga o'xshaganlar esa uyalmaydi.

Hasanga oppa-ochiq, bir masalada qiynalayapman, qurug'idan cho'zing, xo'jayin, deydi.

Noxush bir kayfiyatda bilim dargohiga yetib kelib, darsxonaga kirdi.

\* \* \*

Kafedrada Qurbon domla negadir telefon dastagini chakagiga bosib, o'ylanib o'tirardi.

- Ha, nima gap?
- Sizga! - dedi Qurbon domla dastakni uzatib.
- Labbay?
- Uyingga kechqurun, ertalab qo'ng'iroq qildim. Bu yerga ham uchinchi marta... Seni hech topolmayapman!
- Husan mashg'ulotdan ertalabkidan chandon ezilib, toliqib chiqqan edi. Ovoz egasini tanib, buning ham ishi qistov, вЂњuyiga o't tushganb ёк, bu Iboddan ham ko'ra mug'ambir, bo'yinga yana bir tashvishni ortmasaydi, deb o'yadi.
- Tanimadingmi? Hamroman. Do'sting!

Ey! Xudo do'stdan ham buyurmagan ekan. Hech talab-da'vosiz fidoyi Qurbon domladan tashqari, albatta!

Hamro ham Ibod singari dorilfununda bir davrda o'qiganlardan. Turli idoralarda ishlagan. Hozir allaqaysi klubda rahbar.

- Eshitayapman, - dedi Husan.
- Bugun seni ko'rishim kerak.
- Bugun qiyin. Bosh qashishga vaqtim yo'q. Kechirasani, do'stim.
- Bo'lmasa, ertaga. Tushlikda, - dedi Hamro.
- Soat ikkilarda. Ungacha darsim bor.
- Yaxshi. Ishxonaga kel. Kutaman.

Husan dastakni o'rniga qo'ydiyu qaytib ko'tardi.

Shoira bilan opalar Xumsondon kelishdimikan?

Uyda telefon javob bermadi.

\* \* \*

Anhor bo'yidagi qahvaxonada Ibod u bilan ko'rishayotib:

- Seni yo'qlaganim... sog'inganman! - dedi.
- Husan bu вЂњehribonlik вЂќdan qisinib, вЂњey! Men qiz bolamidimki, sog'insa! вЂќ deb ko'nglidan kechirdi. Shu damda payqadi. Bir paytlar Ibod bepisand qaragan bo'lsa, endi u вЂњoliftalik вЂќ qilayotgandek. Teskari hol sodir bo'layotgan ekan! Uzoq tutilishdan xavotirlanayotgan edi.
- Kechaning o'zidayoq Vorisni so'roqlab, daragini topgani yaxshi bo'ldi. Ammo Husan hali jiyani ahvolini bilmaydi. Nega ota-bola biri-biridan xabarsiz? Orada nima gap o'tgan? Bu ham noma'lum! Qanday bo'lmasin, Voris uning xayolidan ketmayotgan edi.
- Bundan tashqari, uni вЂњyo'qlagan вЂќ Ibodning maqsadini tezroq bilgisi kelardi. Organda ishlagan, ayniqsa qo'lting'ida doim torozi tutgan bunday kishi вЂњmuhim gapвЂќ dedimi, muhim bir gapi borligiga Husan shubhalanmasdi.
- Ibod esa aftidan shoshmayotgan edi.

Ular tushlik qilishayotib, u xush kayfiyatda (yoki o'zini shunday tutib) lim-lim oqayotgan anhorni, atrofdagi go'zallikni, вЂњtabiat erkasib вЂќ bahorni astoydil maqtashga tushdi.

- Hozir tog'larda oftob ostida qor yarqirab, irmoqlarda suv sharqirab yotibdi. Qani, endi uch-to'rt kun bo'sh vaqting bo'lsa-yu, shahardan chiqib ketsang! - dedi. - Umr o'tadi. Shoир aytgan-ku вЂњDo'stlar, g'animatdurd, sayr eting gulistonlarвЂќ!
- Shundan keyin, Ibod Husanning mashg'ulotdan bo'lak paytda erkin ekanligiga havas qilib, o'z kasbida вЂњish soatib вЂќ degan gap yo'qligi, biron jinoiy ishga вЂњsho'ng'ishsab вЂќ, kunduzmi-tunmi sezmay qolishidan shikoyatlandi.
- Umuman, hayot tegirmon. Gap shundaki, bizning odamlar dam olishni bilmaydi, - deb o'kindi Ibod. - Ana, Shirmonbuloq. Tog' ustida вЂњDam olish uyib вЂќ joylashgan. Yaqin qishloqlardan uch-to'rt chol-kampirni bolalari majbur qilib jo'natishibdi. O'zlar tog'da, ikki ko'zi pastda! Bemalol keksalik gashtini surmaysizlarmi, mazmunida gap qilsam, hammasi uyda ishim bor, deydi... Qisqasi, ikkimiz vaqt topib, toza havoni bir aylanib kelishimiz kerak.

Husan diqqat qildi.

Dunyoda вЂњkiftini keltirib вЂќ chiroyli gapiradigan kishi ko'p. Gapning esa aksar ichi bo'sh! Ibodning har bir so'zi ma'noli-mag'izli... Bu qanday shaxs o'zi, deb o'yadi Husan. Sen o'zingni olimman, deysan-u, yoshlikdan to hamon uning oldida ip esholmaysan. Bu odamning yurish-turishida ojiz-kekkaymalik bilan bosiq-mutafakkirlik birlashib ketgani ajablanarli.

Tuyqusdan xayoli qochdi.

U bir tomondan, Ibod maqsadga ko'chishini kutib, ikkinchi tomondan, Vorisning yoniga shoshayotgani uchunmi, Voris o'zi biron jinoyatga yo'l qo'ymadimikin, degan fikr miyasiga chaqmoqdek urildi. Ba'zi вЂњerkatoyb вЂќlar jinoyatdan so'ng kasalxonaga borib yotib olishini eshitgan, kitoblarda o'qigan edi.

Husan jiyani to'g'risida tasavvuri xira ekanligini hozir chuqur his etdi... Hasanning birinchi xotinidan! Goh Buxoro, goh Navoiyda yurgan. Abdurahmon Xo'janing barcha farzandlari-yu, nevaralari kabi Toshkentni ham вЂњyarim o'z shahri вЂќ deb biladi.

O'monqul bilan do'st... Ibod gapni asta-sekin Vorisga вЂњolib вЂќ bormayotganmikan?

- Bugun mashqing past, og'ayni. Sog'liging o'zi yaxshimi? - Husanga tikilib so'radi Ibod.
- Sog'lik yaxshi, - dedi Husan va aniq nima deyishini bilmaganidan, xayoliga kelganini ayta boshladi. - Kecha xunuk bir voqeа ro'y berdi. Ko'chada ketayotgan edim, gavdalib bir kishi nozikkina bolani urayotgan ekan. Shundan buyon qandaydir g'ash bo'lib yuribman.

- Sen ham qiziq ekansan! Dunyoda bunaqa voqeа to'lib yotibdi. Har kuni qancha qonli, og'ir jinoyat ro'y berishini bilasanmi? Har narsaga kuyaversa... Haliyam bizda jinoyatchilik nisbatan kam. Kissavurlik, o'g'rilik yo'qolib borayapti. Bezarilik har qadamda ko'zga tashlamaydi. Talab qattiq... - Ibod birdan mavzuni o'zgartirdi. - Hasan aka kecha kelgan ekanlar, eshitmay qolibman. Ko'rmoqchi edim... Navoiydan bizning sohada ishlagan bir tanishim bugun ertalab kelgan edi, o'sha bilan gaplashayotib, senga qo'ng'iroq qildim... Bo'lgan-bo'limgan har xil...

- Nima вЂњbo'lgan-bo'limgan вЂќ?

- O'zing eshitmadingmi? Seni shuning uchun chaqirdim... uncha yaxshi xabar emas. Lekin bosiq bo'l... Hasan aka Toshkentdan ketayotgan ekanlar, Samarqanddan o'tgandan keyin avariya ... tirik qolgan! Bunisiga shukr. Qaysi ahvolda, bunisi noaniq... Eshitganimi senga yetkazmaslikni nomardlik, deb o'yadim...

Husan naq joni sug'urib olingandek bo'ldi.

Ikki kishi ikki qo'lting'idan tutmasa, o'rnidan turolmaydigandek edi.

Uning uchun Hasan faqat jon-jigar emas. Bir Vujudning yarmi!

Ular Bir Bola o'mnida Qo'sh bo'lib tug'ilgan!

Biri ketsa, boshqasi ham...

Unga harholda shunday bo'lib tuyuladi!

Lahza ichida so'nggi voqealar xayolida charx urdi.

Negadir вЂњahmoq kунбЂќ degan gap xayoliga keldi.

U kechagi kunmi, bu kunni ko'zda tutayotganini o'zi ham bilmas edi.

\* \* \*

Tiriklik shu...

qanday falokat ro'y berib, qanchalik g'amga botmagin, o'rningdan turishga majbursan!

Hayotdan hatto charchab tinkang quriganda ham, ildam yurish nasibang. Qochib qutulolmaysan!

Baribir, hozir kasalxonaga borib birinchi galda Vorisni ko'tish, yo'l-yo'lakay endi nima qilishni o'ylashga to'g'ri keladi.

Qanoti bo'lса, shu ondayoq Navoiy tomon uchar edi-ku, odam qanotsiz yaratilgan!

Ayni damda bir paytlar otasi Ismoil Xo'ja amakisi Ibrohim uchun qay yo'sin kuyib, addi tamom bo'lganini Husan odatdagidek faqat tasavvur qilmay, go'yoki o'z badanida tuydi... Ismoil Xo'ja iztirobga cho'mgani kam, G'ayrat Sur'atmi, Sur'at G'ayratmi degan arbob ko'rsatmasiga binoan, goh Kabir Hoji va Shodi Tursun, goh Bo'tavoy Nodir va Akmal Rashid degan yigitlar, ba'zida to'rtalasi birga mahal-bemahal bot-bot uyga bostirib kelishgani, qayerdan bo'lmasin, akangni topasan, deb uni qyinoqqa solishgani - ular xonadoni tarixida shunday voqealar ham o'tganini esladi. Ehtimol, Ismoil Xo'ja shu zulm-zug'um natijasida bobolari yurti Buxoroga ko'chgan, jur'atsizmi-ehtiyotkor kishiga aylangan edi. Husan, bechora otam, deb o'yaldi.

Yana ayni damda mahalladagi Marat bobo yodiga tushdi.

Uning bu gaplarga daxli nima?

Bir kuni Husan ko'chadan uyga qaytayotgan edi, choyxona oldidagi xarrakda o'tirgan keksa birovga ko'zi tushdi. Tikildi-yu, esi og'ib, sarosimalandi. Bu - bobosi Abdurahmon Xo'jami, otasi Ismoil Xo'jami edi.

Bunga ishongandek, lekin ko'zlarini katta ochib, yaqinlasha boshladи.

Yaqinlashgach, sergaklandi:

Marat bobo...

Oldin e'tibor bermagan ekan.

Uning afti-angorida ularga bir oz o'xhashlik bor ekan.

\* \* \*

Kasalxonada karantin. Qo'li-oyog'i uzun kimdir sirg'alib ichkariga kirmsa, bu yerda shamolni ham o'tkazishmayotgan ekan.

Husanga oshqozon va ichak kasalliklari bo'limida yotgan jiyanini eshikka chaqirtirib berishdi. Kattakon darvozaning tirqishi, devordagi teshik-tuyuklar oldida odamlar g'uj bo'lib oлган, har kim o'z вЂњbemorbЂќi bilan gaplashishga urinar edi.

Kasal ko'rgani kelib kech qorong'isida, bu sharoitda birovni ko'rishning ham, jiddiy gaplashish emas, yaxshiroq so'zlashishning ham imkonи topiladiganga o'xshamasdi.

Husan jiyani - ozg'in, daroz yigitchani avvalida tanimadi. Keyin, haligina jiyani haqida yomon xayolga borganini eslab, badtar xijolat chekdi.

U albatta, Vorisga Hasan to'g'risida og'iz ochmadi.

Ular biri-birini вЂњko'zdan ochirmslikвЂќka tirishib, uzuq-yuluq so'zlashishdi.

- Yaxshimisan? Nima bo'ldi?

- O'tibman. Yaxshi. Toshkentga kelishim bilan shunaqa... Endi tuzalib qoldim.

- Karantin qachon tugaydi?

- Ertaga.

- Unda ertaga yana kelaman.

- Ikki-uch kunda o'zim chiqaman.

- Biron dori kerakmi? Nima kerak?

- Hech narsa, amaki. Rahmat...

Husan ko'ngli to'lmay iziga qaytdi.

Ahvol qandayligidan qat'i nazar, u erta yo indin Navoiyga yo'l olishni mo'ljallay boshlagan edi. Lekin sharoitga qarab ish tutish uchun oldin qo'ng'iroq qilish kerak.

Uydan qo'ng'iroq qilishni istamaganidan, kasalxonadan uzoqlashishi bilan, shu o'rtadagi pochtaxonaga kirdi.

Odam oz ekan.

Telefon tezda ulandi.

- Allo.

- Allo, Norgul...

Norgul indamasdi. Yig'layaptimi?!

- Xabarim bor. Qon bo'lib turibman. Yig'lamang! Gapiring!

- Reanimatsiyada. Juda og'ir. Hali o'ziga kelgani yo'q. Nima bo'ladi, bilmayman. Dori buyurishgan edi, yo'lда uyga kirdim.

- Men ishonaman, hammasi yaxshi bo'ladi. Ertaga yoki indinga boraman.

Ayol tabiatiga tushunmaysan! Norgul, yonida ikki farzandi, eri uchun qayg'urayotib, daydi вЂњbolasibЂќni esdan chiqarmagan ekan:

- Voris-chi?

- Birga olib borarman. Topdim. Yuribdi. Tinch...

Husan garchi Iboddan Hasanning tirik ekanligini eshitgan bo'lса-da, Norgul bilan gaplashgach, sal osoyishtalandi.

\* \* \*

U harholda chalg'igandi.

Hasan va Voris, Voris va Hasan! - bular ikkisi butun xayolini band etgandi.

Kasalxona tomon borayotib rastadan o'tgani-yu, bu yerda bozor qilganida ham, gavdali kishi va bola to'g'risida o'ylamagan edi.

Mana, endi katta yo'l yoqalab yurib, qaytib rastaga kirib keldi-yu, savdo majmui oldida to'xtadi. Nazarida, bir sultanib orqaga - kechagi kunga qaytgandek, mudhish voqeа go'yoki hozir, shu pallada ro'y berayotgandek bo'ldi. Dahshatli hayajon chopari ko'ksida eshik qoqa boshladi.

В Тўнин Jinojatchilar olamib йўнда aylanib yurgan Ibobning ko'zi qotgan-da! Husanning sho'rlik bola haqidagi gapiga pinagini buzmadi... Aslida, birov birovga qo'l ko'tarishga o'zini haqli deb bilishi dunyodagi bor jinoyatlarning muqaddimasi emasmi? Afsuski, hayotda uchragan yaxshi-yomon holatni qanday his etish - har kimda har xil. Biron xatti-harakatni kuzatib jismi-jonidan o'tkazish, baho berishdan mahrum, g'aflatda yurgan kishi ozmi? Tarbiya yetishmaydi.

Husan shart savdo majmui boshlanishidagi do'konga kirdi.

U hozir mast holatda emasdi. Lekin mabodo oq kiygan, gavdali kishi shu damda do'konda bo'lса, taqsir, kecha, quturgan paytingiz so'zlasholmadim, xo'p, o'zi nima gap, demoqchi edi. Aynan shu taxlit gaplashishga qaror qilgandi.

Do'konda ikki yosh yigit peshtaxtalarni tartibga solishardi.

Husan do'konni aylandi. Ichkari xona tomon ko'z tashladi.

- Xizmat, otaxon?

U nima deyarini bilmay qoldi.

Bu yigitlar bilan gaplashish, ulardan gavdali kishi to'g'risida so'rash telbalik, xolos. Bir gapni bilganda ham, aytishmaydi. Kim sayrasa, ertagayoq pattasi qo'lida, orqasiga tepib haydashadi.

- Bir oz shirin kulcha. Qand-qurs, - dedi Husan.

Do'kondan chiqib, kechagi maydonchada yana serraydi.

Tun kirgan. Atrofni qorong'i qoplay boshlagan.

Shoira bilan opalari allaqachon Xumsondon qaytib, uyduni poylab o'tirishgani ko'zi oldiga kelib, nihoyat, uyg'a qarab yurdi.

Rastadan uzoqlashib bormoqda, ammo xayoli o'sha do'konda qolgan edi.

Xo'o'sh...

Birdan uning kecha в Тўнин tiklagan imoratb ўнда quladi.

Bolani urgan kishi - do'kondor bo'lmasa-chi?

Unda, bola ham - o'g'ri emas.

Bu holda, bola nima ish qilgan ekanki, g'azabga uchrabdi?

Favqulodda kuchli bir kishi nimjon bolani nega kaltaklaydi?

Axir, bu (oqibatini Husan bilmagan) voqeа ro'y berganiga biron-bir sabab bo'lishi kerak-ku?

Xayoliga yangi fikr keldi:

Ular ota-bola emasmikan?

Zurriyotini yo'lga sololmagan, gapini o'tkazolmagan ota...

Jahl chiqsа, aql qochadi...

Yo'q!

Husan Do'kondor va O'g'ri haqidagi (o'zi ishona boshlagan) taxminga ko'nglida endi ishtiboh sezayotganidek, ular ota-bola ekanligiga ham shubha bilan qarayotgan edi. Oradagi munosabat ham, to'qnashuv nega ro'y bergani ham ma'lum emas.

Bir narsa ayon:

bu ishning tagiga yetmaguncha uning ko'ngli joyiga tushadiganga o'xshamaydi.

U bundan so'ng ham rastadan o'tadi.

Va albatta, maydonchada to'xtaydi.

Va albatta, do'konga mo'raleydi.

Arvoх turqidagi kishi va ojizgina bolani qidiradi.

Lekin keyin-chi? Ularni topsa, shu bilan ish bitadimi?

\*\*\*

Uyda Shoira oshga guruch solmay, unga qarab o'tirardi.

- Opalar qani? - deb so'radi Husan ostona kechib.

- Ko'chaga ketishdi. Rastada yurgan bo'lishsa kerak. Hozir kelib qolishadi.

Husan yo'lda, rastada shuncha yurib opalarini uchratmaganiga ajablandi. Ulargaki duch kelmabdi, demak katta yo'l yoqasida, rastada birovni izlab ham topish qiyin.

- Yaxshi borib keldingalmi o'zi?

- Zo'r! - dedi Shoira.

- Qozonni menga qoldir. Sen dasturxon tuza.

U guruch tozalayotib, xayoli hamon Hasan, Voris va ko'chadagi bolada edi.

Shoira dasturxon tuzab-tuzamay, opalar kirib kelishdi.

Ular o'zлari uchun nimalardir xarid qilishgan.

Shoira ga maqtanib ko'rsatishdi.

Husanning charchoq, g'amgin holatiga zid, ayollar kayfiyati ko'tarinki. Ular mammun edilar.

Dasturxon atrofidan joy olishgach, undan-bundan so'zlasha boshlashdi.

- Siz ham birga borsangiz bo'larkan, - dedi Mavjud.

- Qayoqqa?

- Xumsonga-da! Xayolimizga kelmasti. O'lg'iz qodirib ketaveribmiz.

- Ey! Mening boshqa ishim yo'qmi? - dedi Husan. Beixtiyor asabiy, keskin gapirganini sezib, gapning davomini yumshatdi. -

Buning ustiga, hamshaharlarimiz iborasi в Тўнин joyga bor, aytmagan joyda nima borib ўнда. Meni ular tanimasa, bilmasa...

- Biladi. Televizorda ko'rgan... Ba'zan oshno bilan begonani ajratolmaysan! Bir yoz Xumsonda, sanatoriya dam olganimda

Zarrina bilan tanishganmiz. Mehmonga chaqirgan. Keyin, eri-ikkisini Buxoroga taklif qildim. Kelishdi. Uch-to'rt kun yurishdi.

Yaznangiz hali bardam edilar, mehmonlar ketamiz deganda, biz sizlarni kuzatamiz, birga Navoiyga boramiz, u yerdan

Samarqandga, o'sha yerda xayrashamiz, dedilar. Shunday qiziq sayr qilganimiz. Shu bahona orada qarindoshdek mehr tug'ilgan.

- Bitib ketgan boy bo'lsa boshqa gap, oddiy, mehnatkash kishilar, - deb gapga qo'shildi. Mavluda. - Lekin borishimiz bilan oyog'imiz ostida qo'y so'yishdi. Osmondan farishta tushganday, bizni xuddi tavob qilishdi. Ko'ngli ochiq, yaxshi odamlar ekan... Husan dunyoda yaxshi odamlar (chin insonlar) ko'pligini bilmaydim! Shunga qaramay, yo'liqqan har kimga v'Ti'xodonov T'lik bilan baho berishlaru v'Ti'xoshnov T'k bo'lislalar unga yoqmasdi. U, ODAM degan mavjudotning soat kapgiridek yaxshi va yomon orasida v'Ti'xtebranib v'Tk turishiga umrida necha bora guvoh bo'lgan! Husan goho eslaydigan O'zuvchi v'Ti'yuaxshi odamning padariga la'nabt T'k qabilidagi g'alati gapni aytgan edi. U, opalariyu Shoirani bu kun siylagan Berdiqul ismli shaxs ertaga, xotini Zarrina bonu yonida, o'g'limi-nevarasini yetaklab kelib, domla, siz o'zimizniki, bu bola esa sizniki, demasligiga kafolat berolmasdi. Bundaylar v'Ti'xachib v'Tk yotibdi!

Opalar mehmon...

Husan mulozamat ko'rsatishi kerak.

Ochiq chehra bilan suhbat qurishi kerak.

Lekin u nima deyishga hayron edi.

Opalarga Voris to'g'risida hikoya qilish mumkin.

Hasan to'g'risida bo'lgan-bor voqeani aytib berish mumkin.  
O'shanda ular kasalxonaga borib (tirqishdan bo'lsa-da) Vorisni ko'rishlari, Navoiyga borib Hasanning yonida turishlari ham mumkin.

Buning nimasi yomon?

Bu - ming yillik taomil. Yaqin kishilar v'Ti'yo'z hayotini v'Tk biri-biridan v'Ti'xpinhon v'Tk tutmaslik, yaxshi kunda yoki bir kor-hol ro'y berganda bexabar qolmaslik shartiga doim rioya qilib kelganlar!

Biroq bunday ish tutish Hasanning irodasiga zid.

Ayniqsa, hozir uning irodasiga bo'yusunmay bo'lmaydi.

Hasan hashamatli hovlisini qo'rg'onga aylantirganidek, o'zini ihota devori bilan o'rab olgan.

U bir tomondan, barcha og'ziga qarashini, ikkinchi tomondan, barcha uning hayotidan v'Ti'xchetetroqda turishib v'Tkni istaydi.

Bu yaqin kishilarga ham tegishli. Avvaldan Husanni bekordan v'Ti'xopalarga indamab v'Tk deb ogohlantirgani yo'q.

Opalar-chi?

Mavluda va Mayjuda birovga, ayniqsa o'z jigarlariga yomonlik tilashmaydi. Lekin ular (balki, ayol ekanliklari sabab, qiziqib) Vorisdan har narsani so'rashlari, gap kovlashtirib, qosh qo'yaman deb ko'z chiqarishlari ham mumkin.

Hasan haqida eshitgan zahoti ko'zyosh to'kib, tuni bo'yи oh-voh chekishlari, shuning barobarida Hasanning hayotiyu qismatini bir boshdan muhokama qilishlari mumkin. Navoiyga borgach, uning oilasi tinchini buzib, bosh-qosh bo'lislarga urinishlari, qolaversa, daldal o'rniga eldan burun motam tutishga v'Ti'xkirishib v'Tk ketishlari ham mumkin.

Biz nega shundaymiz?

Bilim bor. Aql bor.

Yurakda ezgulikka intilish bor.

Komillik haqida gapiramiz.

Odamsavanda bo'lgimiz keladi.

Lekin o'zni munosib tutolmaymiz.

Loyli ko'chalarda adashib-ulоqib yurganga o'xshaymiz.

Husan shu boisdan, opalarga, ular oldida xotiniga ham sir bermayotgan, dardi-hasratini oshkor qilmayotgan edi.

Xo'p. U shunchaki suhbatga jon kiritish uchun ko'chadagi bola to'g'risida gapirsin!

Adliya sohasida ishlagan Ibodki uning qanday dahshat tuyganini his etmadni, opalari buni teran anglaydimi? Ana, shu pallada ular allakimning mehmondo'stligi, mehribonligini maqtab-ta'kidlab, bu bilan Husanga ta'na qilgan, uning tamorqasiga tosh otgandek bo'lislashoytganini sezishayotganmikan? O'rtada Shoiraning bezovtalani, xonada asabiy yugura boshlashi qoladi.

Eri xomush, parishon ekanligiga allaqachon ahamiyat bergen Shoira, opalar bilan o'zi ham mehmonga borganidan qisingan ko'yda:  
- Keyingi kelishlaringda biz ham qo'y so'yamiz, xudo xohlasa! - deb ochilgan mavzuni yopgandek bo'ldi.

Husan payqadi: uning holatini ozor chekishga yo'yan xotini, opalarga tegib ketadigan gap qilgan edi.

- O'z opajonlarim! Ot bilan tuya so'ysa ham arziydi, - dedi gapni andavalab.

Osh pishdi deganda eshik qo'ng'irog'i jiringlab, kenja qiz va kuyov kelib qolishdi. Opalar shu yerda ekanligini Shoira kecha ularga aytgan, bugun vaqt topib ko'rgani kelishgan edi.

Umida bog'chada ishlaydi.

Zafar v'Ti'neft va gazb v'Tk idorasida.

O'shlar davraga qo'shilgach, hukm surgan noxushlik unutildi.

Opalar va Shoira yana oldingi ko'tarinki kayfiyatga qaytishdi.

Husan ham o'zini v'Ti'xplash v'Tkga urina boshladi.

- Dada, - dedi gap orasida Umida, - sizning Qurbon domla degan og'ayningiz bormi?

- Bir kafedrada ishlaymiz. Nima edi?

- Bugun kelgan edi. Nevarasini bog'chaga joylashtirmoqchi ekan... Juda sodda, antiqa kishi ekan. Kelib, to'ppa-to'g'ri, men hech qachon pora olgan ham, pora bergen ham emasman, sizlarni xursand qilolmayman, deydi. Keyin, siz kimning qizi, deb so'radi. Ismingizni aytSAM, o'rnidan turib ketdi, Husan meni oshnachilik qilibdi, nomimni sotibdi, deb o'laydi. Boshqa bog'chaga boraymikan...

Hamma kulib yubordi.

Husan ham.

- Yaxshi olim. Holol kishi! - dedi.

- Husanjon, eshitganmisiz, bobomiz Abdurahmon Xo'ja bankda ham oz-moz ishlagan ekanlar, - dedi Mavluda.

- Eski paytlarda ham bank bo'lgan ekanmi? - deb ajablandi Shoira.

- Bo'lgan. Ayniyo v'Ti'Sudxo'rning o'limib v'Tk kitobida ham yozgan.

- Demak, bobomiz hisob-kitobni ham yaxshi bilganlar, - xulosa chiqardi Mavjuda.

- Hasan bu jihatdan bobomizga tortgan! - kulib qo'ydi Mavluda.

- Biz har jihatdan otamiz, bobomizga tortganimiz. Ota-babolardan o'tib qayooqqa borardik! - dedi Husan.
  - Men bu haqda gapirmoqchi emasdim, dada, - unga yuzlandi Zafar. - Hasan amakimni... eshitgan bo'sangiz kerak?
  - Husan buni kutmagandi. Shum xabarning oltita oyog'i bo'ladi, kuyov ishlagan idoraga darrov вЂњaxborotвЂќ yetib kelgan. Bir soha bo'lgach, balki bu tabiiy.
  - Eshidimmi, yo'qmi bunaqa narsani gapirmagan durust, o'g'lim, - kuyovni keskin to'xtatdi Husan.
  - Opalar ular ikkisiga alang-jalang qarashdi:
  - Hasan? Tinchlikmi?
  - Tinchlik. Bu xizmat borasidagi gap! - dedi Husan qat'iy.
  - Bankda ishlab ham har kim boy bo'lavermas ekan! - deb xo'rsindi Umida.
  - Xudo, ol, qulim, degan oladi, - tagdor gap qildi Mavjuda.
- Shundan so'ng, Umida bilan Zafar o'rinalaridan turishga chog'lanishdi.
- Ammajonlar! - dedi Zafar. - Ertaga biznikida mehmon bo'lasizlar. Qo'y so'ymasak ham...
  - Ey! Yana вЂњeqo'ubвЂќ.
  - Yo'q. Bu gal вЂњeqo'ubвЂќga hech kim e'tibor bermadi.
  - Sizlar ishli kishi, - dedi Mavluda. - Boshqa kelganda, dommod. Safar qaridi. Ertaga ketamiz.
  - Nega? Yuribsizlar-da! - вЂњnorozilandibвЂќ Shoira.
  - Sizlarni ko'rdik, xursand bo'ldik. Asalning ham ozi yaxshi, - deb gapga aralashdi Mavjuda. - O'zlarining albatta, kelinglar. Ertalab avtobusga chiqsak, kech kirmay Navoiyga yetib boradi. Hasanjonni ham bir ko'rib, Buxoroga o'tib ketaveramiz.
  - Men bugun qo'ng'iroq qilgan edim, - dedi o'ylanib Husan. - Sizlarni aytdim. Hasan besh-o'n kundan keyin borishlaringni so'radi. Hozir juda band ekan.

Opalar tarvizi qo'lqig'idan tushgandek bo'ldi.

Ular, esiga kelgan yaqini uyiga вЂњbostiribвЂќ boraverish rasmi yo'qolayotgani, kundan-kun bu вЂњeskirgan odatsвЂќga aylanayotganini ehtimolki, birinchi marta his etishayotgan edi.

Hasan shu palla вЂњmehamon bobibвЂќ Shoiraga o'xshab ish tutdi.

U Hasanning xohishini bajargan edi.

- Unda kunduzgi poyezdga chiqamiz, - dedi Mavluda. - Navoiyga keyin, qo'ng'iroq qilib borarmiz.

Inson hamma narsaga ko'nikadi.

Biri-biriga yetkazgan ozorlarga ham...

\* \* \*

Hasan lanj, faromush edi.

Ikki opa - Mavluda va Mavjudaning yuzi vagon oynasida so'ng bor lip etdi. Poyezd shiddatlanib, tuyulishda berkindi. O'zi-o'zidan qandaydir norozi edi. Hasanni o'ylab, nazarida, opalariga xiyonat qilgandi. Umuman, xonadon a'zolari orasida mehr-oqibatga yonma-yon, xudbinlik va - o'zaro munosabatda, - ozmi-ko'pmi soxtalik borligi alamli. Ular qachon, nega bir tan-bir jon bo'lomaganini aytish qiyin. Balki, bu ota Ismoil Xo'ja va ona Bokira bonu biri-biridan вЂњuzroqroqвЂќ kishilar bo'lgani holda qovushgan kundan boshlangandir? Balki, Azaldan to Hamon inson qonida yashagan qusurlaru ular qarshisida qo'rquv va ishonchszilik (o'ziga ishongan darajada birovga ishonmaslik, qachondir jamoa shaklida kun kechirgan insoniyatning asrdan-asrga, yildan-yilga yakka-yolg'izlik tomon borayotganligi) natijasidir? O'zlarini ko'rkmak bir xonadon farzandlari, ahil oila, deb bilgan kishilar вЂњyaqinlikвЂќ soyasida вЂњbegonalikвЂќni ham вЂњsaqlab qolishganibвЂќ har bir banda tug'ilgandan o'lgunigacha va balki, undan keyin ham XUDO OLDIDA javobgar O'lg'iz shaxs ekanligi BYeLGISI bo'lsa kerak? Bu - opalardan ham ko'ra ko'proq biri-biriga вЂњkindigi bog'langanвЂќ Hasan bilan Husanga tegishli. Hasan bilan Vorisga ham...

Temiryo'l bekatidan uzoqlashgan Hasan shularni o'ylaganicha, mashina yollab bilim dargohiga yetib keldi.

U kafedraga kirganida har kungidek undan ertaroq ish boshlagan Qurbon domla ko'zoynak taqib qalin bir kitob вЂњichiga sho'ng'iganвЂќ edi. Husanni ko'rib qisinib-qizargandek bo'ldi.

Hasan bog'cha haqidagi gapni beixtiyor eslab, kulib qo'yanicha, Qurbon domlani xijolatdan qutqardi:

- Kecha qizim Umida kelgan edi. Sizni maqtadi. Yaxshi do'stingiz bor ekan, dedi.

Shundan so'ng, u to shu dam birovga bildirmagan вЂњdardibвЂќni Qurbon domлага yordi. Hasanning hayoti qil ustida ekanligiyu Voris bilan munosabatini ham ma'lum izga solish kerakligini yashirmay aytdi. Nihoyat, Navoiyga birrov bormasa bo'lmasligini tushuntirdi.

- So'rasangiz, javob berishmaydi, - dedi Qurbon domla. - Indamay ketavering. Men bir ilojini qilarman.

Hasan mashg'ulotlardan keyin, yana lanj, faromush holatda ko'chaga chiqdi.

\* \* \*

Meloddan ham ilgariroq -

Spartakning vatandoshlari Ikor va Dilol parvozidan tortib:

Dam semurg'-qush,

dam uchar gilam...

O'ki, yana dostondag'i:

Alpomishning Boychibar oti,

To'rt yarim gaz emish qanoti...

Qanday bo'lmasin,

Yer - foni.

Osmon - boqiy.

Bu kun: вЂњBirov - Yerda, birov - Osmonda!вЂќ desangiz hech kim ajablanmaydi. Biz tiriklar va o'liklarni ko'zda tutmayapmiz, gap faqat tiriklar haqida! Jismning qaysidir vosita orqali Ko'kka Ko'tarilishi bu kun oddiy hol. Havo kemalari Osmonni вЂњto'dirganвЂќ. Ruhning Ko'kka Yuksalishi ham yangilik emas. Ehtimolki, Jism yuksalishiga nisbatan qadimiyroqdir. Osmonga chiqib tushgandek holatni his etgan har xil kishilar bor. Yerga qaraganda Osmonning umri uzoq (boqiy) ekanligi uchun Inson bir umr Parvozga chog'lanmaganmikan? Bir shoiringning she'rida qiziq misra keladi:

Galaktika mozorida ko'milar tanim...

Dunyoda avval-oxir Yer va Osmon, Jism Parvoziyu Ruh Parvozi to'g'risida o'ylamagan biron shoir, biron olim yo'q.

Ayniqsa, faylasuflar! Ko'pincha o'zini Yer bilan Osmoning avra-astarini ag'darib ko'rgandek tutadi.

Husan вЂњdonovЂklik qilmasa-da, u ham bu borada muntazam o'laydi... Buning bari dahriylar (moddiyunchilar) necha yilki inkor etgan tariqat, Odam Ato bilan Momo Havvo вЂњYerga tushingiz! вЂќ degan Farmoni Oliyni olgan paytdan boshlanmaganmi? O'sha, AZAL SOATdan ikki o'ttada

Muallaq bir holat

paydo bo'limganmi?

Ko'chada, Hamro ishlagan klub tomon ketayotib, Husan hali maktab ostonasini tark etmagan kunlar вЂњO'quvchi-yosolar saroyибЂkga qatnaganini esladi. O'shanda u вЂњAviamodelchilarвЂk to'garagida qatnashgan, chiroyli kichik samolyot shakllari yasagan, uchuvchi bo'lishni orzu qilgan edi. Ammo qismat ekan, keyinchalik Inson tafakkuri:

So'zdan, Tushunchadan, turli davrlarda

turli вЂњliboshЂkga o'rangan Dunyoqarashdan

bahra topish unga baxt bo'lib tuyula boshladi.

Mana, endi o'ylab ko'rsa, notanish shaharga kelgan sayyoohdek, zamonlar davomida turli ko'chalarga вЂњkirib-chiqqanвЂk falsafa - fanlar Onasi, - to hamon:

Biz o'zi kim? Yaratilishdan ma'nio nima?

Bizga qanday muhim vazifa yuklangan? -

va boshqa, boshqa oddiy savollarga javob topmagan,

MUALLAQ BIR HOLATdan

bo'lak narsani aniqlay olmagan ekan!

Husanga o'xshab Hamro ham faylasuf.

Ixtisos bo'yicha.

Lekin amalda arbob. Klubga rahbar bo'lgunicha ham katta-kichik idoralarni boshqargan.

Bir gal u to'g'rida Ibob bilan so'zlashgani Husanning yodiga tushdi.

- Tombosdini bilasan! - dedi negadir Ibob.

- Qanaqa вЂњtombosdивЂk?

- O'z og'aynimiz. Hamro! Laqabini eshitmaganmiding?

- Birinchi eshitishim.

- Sen ham Afandi ekansan!

- Nega Tombosdi? Tushunmayapman.

- O'shligida, zilzila payti ularni tom bosgan. Ota-onasi o'lgan. Hamro o'zi bolor-vassalar orasida tirik qolgan. Ba'zan gapirib yuradi. Ko'proq ichgan bo'lsa, yig'laydi. Ko'ksingga boshini qo'yib yig'lamagan ekan, demak sizlar uncha yaqin emas ekansizlar.

- Xo'sh?

- Har narsani iltimos qilaverib, kishini charchatib yuboradi.

Husanning Hamro bilan munosabati chindan вЂњuncha yaqin emasвЂk. Ular orasidagi munosabat yoshlik yillariga sadoqatmi, o'tgan beg'ubor kunlarni qo'msashmi? - shunday bir tuyg'uga asoslangan. Husan qachondir Hamro to'g'risida korchalon, degan fikrga borgan, uning hayotidagi kulfatdan voqif bo'lganidan so'ng ham, fikri o'zgarmay qolavergan edi.

Taqa shaklida qurilgan ikki qavatlari eski va anchayin xarob bino.

Hamroning kabinetni ikkinchi qavatda.

Gaphaeladigan gap jiddiyi, har qalay u dasturxon tuzab, eshikka qarab o'tirardi. Husan bilan ko'rishayotib:

- Ko'chaga chiqmaymiz. Shu yerda choy ichib qo'yaqolaylik, - dedi.

Hamro Husanning boyasi o'ylaganlarini oldindan bilgandek, ular stol yonidan joy olishgani zahoti, kutilmaganda:

- Yer - foni, Osmon - boqiy, birov - Yerda, birov - Osmonda! - dedi.

- Xo'-o'sh?

- G'arbdan oldinroq Sharqda qadimdan kitoblarda Itorid, Mirrix, Mushtariy, Zuhra degan sayyoralar, yulduzlar nomi uchraydi. Ular sirtida havo yo'q hisobi. Issiq. Masalan, Yerda Sahroi Kabir yonib yotgani hech narsa emas, Zuhra sayyorasida harorat 450-470 daraja. Buning ustiga, bir kecha-kunduz Yerda bo'lgan 417 kecha-kunduzga teng...

- Sen o'qiganingni men ham o'qiganman. Men emas, savodli maktab bolasi ham bu gaplarni biladi, - dedi toqatsizlanib Husan.

- To'xta! Gapni eshit... So'nggi yillarda olimlar bir kuni Yerdan Osmonga вЂњko'chib chiqishвЂk ustida o'ylashadi. Zilzila, toshqinlardan Yer yo'qolib ketadi, deyishadi. Hozir ko'p katta mamlakatlarda aniq вЂњOsmonni o'zlashtirishвЂk niyati bilan yurganlar ham chiqayapti. Osmonda sharoit yo'qligiga qaramay, ular hatto turli sayyoralarini Yerdagiday, xayolan o'lchab, birov larga taqsimlab berishayapti. Ro'yxit tuzib, banklarga pul o'tkazilayapti. Bu fantaziya emas, haqiqat.

вЂњYerda hayotni ming yillar davomida tartibga sololmagan odamzod Osmonni gullatadimi? вЂќ deb o'yladi o'zicha Husan.

- Jon og'ayni, maqsadga o'taver, - dedi.

- Men shu harakatga qo'shilmoqchiman.

- Qo'shilaver! - вЂњruxsatвЂk berdi Husan.

- Menga ishonganing uchun rahmat... Men sendan biron narsa iltimos qilmaganman. Chunki mendek sen ham o'z aravasini o'zi tortgan kishisan. Yerda yuribsan. Birodaring Hasan aka boshqa. U kishi Osmonda, deyish mumkin.

Husanning xayoli qochdi: вЂњNega Hasanni endi bu eslayapti? вЂќ

Lekin egizaklar bora-bora qarama-qarshi qiyofa kasb etayotgani rost!

Husan - kamtar, o'zini xokisor (tuproqqa teng) tutishga harakat qiladi.

Hasan - o'zini baland parvoz (havoda uchib yurgandek) tutadi. Kibor. Buni tabiiy hol, deb biladi.

Ularning yashash holati ham shunga yarasha!

Uning xayoli bo'lindi.

- Iltimos, meni Hasan aka bilan tanishtir.

- Nega?

- Menga ish yuritish uchun mablag' kerak.

- Men bunga aralasholmayman. O'zing tanish. O'zing gapplash... Ayniqsa, hozir bu ko'ngilga sig'maydi. Hasan og'ir yotibdi, -
- вЂњavariyaga uchraganb ёк deyishga Husanning tili bormadi.
- O'tgan bo'lsa, borib ko'rishning ayni mavridi emasmi?
- Ey... - Husan xafa bo'lib ketdi.
- Hayotda halol yo'l bilan pul topish qiyin shekilli!

\* \* \*

Sham  
lap-lap  
yonadi.

Oppoq kapalak qanot qoqqandek.  
U erib bitgunicha atrofni yoritadi.  
Odam ham shu! Umrida atrofni yoritishi kerak.  
Ammo biz doim bunday qilolmaymiz.  
O'zini shamdek yoqib, ozgina, ojizgina bo'lsa-da, nur taratishga aksar qurbimiz yetmaydi.  
Bizning qonimizda zulmat ko'p.  
Arofni yoritish qayoqda? Bizga biron nafi tegadigan bo'lsa, yo'lda ko'ringan ShAMlar (ChIROQLar)ni aksincha, o'chirib yuramiz.  
Tap tortmay!  
Qo'llaringni qanotdek silkitish, o'zingni Osmonda deb bilish mumkin. Lekin bu - Parvoz emas.  
Inson - Jismi, Ruhi pok holatga kirib, atrofni yoritmaganicha Osmonga ko'tarilolmaydi.  
Insoniyat hali Zulmatdan qutulgani yo'q.  
Biz muallaq bir holatdamiz.  
Xudoyim! Kechirgin.  
Xudoyim! Bu ne hol? Sen odamni teng, olamni to'kis yaratding! Ko'r kam yasha, ahil yasha, shukrona qil, deding!  
Biroq  
Odam Ato farzandlari (yana o'sha, Qobil va Hobildan boshlab) ko'pkariga tushgandek, o'rta ga tashlangan вЂњbuzoqb ёкни har yoqqa tortdilar. Ular - Xudbin va Badbin, - ahil, ko'r kam yashayolmadilar.  
Insonning bunday  
noteng, nokomil  
ekanligi, bunday  
telba hao'tida  
hikmat nima, xudoyim?  
... Husan ich-ichidan zil ketayotgan edi.  
Nazarida, o'zini ayovsiz tutgan, Hamroga ozor bergandi.  
Hamro (ichmaganiga qaramay) ana-mana yig'laydigan ahvolda qolavergan edi.  
G'arib osiy banda!  
Ularning butun suhbatli ikki kishining aljirashiga o'xshar edi.

\* \* \*

Kasalxona eshigi bu kun ochiq.  
Hovliga kirib ingichka yo'lkadan uzun bino tomon yo'nalgan Husan, daraxtzorda shunchaki vazmin odimlayotgan keksa bir bemorni ko'rib qoldi. Bemor ham boshini ko'tarib unga ko'z tashladi.  
Marat boboning kasal ekanligiyu cholni bu yerda uchratishini u xayoliga keltirmagan edi. Bir gal ko'chada cholning aft-angorini bobosi Abdurahmon Xo'ja, otasi Ismoil Xo'jaga o'xshatgani yodiga tushdi. Oldingi kecha tushida ko'rganini ham esladi.  
Shoshganicha, peshvoz yurdi. Hol so'rashdi.  
Shu asnoda ilm egallyaman, yoshlarni tarbiyalayman, deb yugurib-elib, mahallada ba'zan ma'raka-marosimda qatnashishdan nariga o'tmagani, qo'ni-qo'shni, ular orasida Marat boboga to hozir hech qachon ishi bo'lmagani, Bu Odamning hayoti, qismati, yurakdag'i dardi-hasrati nima, qiziqmagani...  
mana, endi o'zi ham keksalik sharobini yutishdan uncha uzoqda turmaganini...  
his etdi.  
Va shu asno  
so'qqabosh, kimsasiz qariyaga lutf ko'rsatib yaxshi bir so'zlar aytgisi keldi.  
Ammo so'z topolmadi.  
Qariyani bag'riga bosgandek bo'ldi.  
Biroq bu ham allaqanday rasmiy tus oldi.  
Nihoyat, jiyani ham shu kasalxonada yotganini aytdi.  
Marat bobo qo'l ochib duo qildi.  
Husan binoga kirib, o'ziga kerakli palatani topdi.  
- O'monqul hozir chiqib ketdi. Ko'rmadingizmi?  
- Yo'q, - dedi Husan.  
- Sizlarni rosa ovora qilibman.  
- Biz mayli. Dadang...  
- Dadam kelgan edimi? - deb qiziqsindi Voris. - Ko'rmadim.  
- Daragingni bilsa, uchrardida!  
- O'monquldan boshqa hech kim bilan xabarlasholmadim. Ko'nglimga sig'madi, amaki. Uzr!  
Ular xonaga tutash avyvonga chiqib o'tirishdi.  
Voris hamshira qizlarga choy buyurdi.  
- O'zi Navoiyda yuribsamni?

- Navoiyda! Lekin dadam bilan birga emas. Sahro etagidan hovli olganman. Kundalik qora mehnat.
  - Dadang o'z yonida bo'lishga qistamayaptimi?
  - Bu ham bor. Dadam meni o'zicha yaxshi ko'radi. Men ham... Lekin men aqlimni taniganimdan onamning qo'lida, erkin o'sganman. Dadamning uyida turolmayman. Zerikaman. Ba'zan odamni вЂњyosh bolab Ѓќга aylantirib yuboradilar.
  - Ota-bola bunday yurganlaring yaxshi emas. Murosa-madora qilinglar.
  - Bunisi to'g'ri, - dedi Voris. Shuning barobarida, chuqur xo'rsinib qo'ydi.
  - To'yning oshini qachon yeymiz?
  - Qanaqa to'y?
  - O'zingni go'llikka solma. Menga aytaverish mumkin.
- Voris amakisidan baribir uyalar ekan, duv qizardi:
- Bu ishda ham dadam bilan kelisholmayapmiz.
  - Bu yerdan qachon chiqmoqchisan?
  - Indin. Tug'ilgan kunim! Shunga qarab chiqmoqchi edim.
  - Tabriklayman! Bir kun oldinga surish kerak.
  - Tug'ilgan kunnimi?
  - Yo'q, albatta. Men ertaga Navoiyga borayapman. Birga boraylik, demoqchi edim.
  - Men uch-to'rt kun yursammikan? O'monqul bilan...
  - Hozir bu qiyin, - dedi Husan. - Mening rejam buziladi. Bunisi mayli. Dadang og'ir yotibdi.
  - Haligina keldi, dedingiz-ku?
  - Keyin shunaqa bo'lib qoldi. Borish shart. Qolgan gaplarni yo'lda gaplashaveramiz.
- Voris amakising so'zlariga tushunmay gangib qolgan edi.
- Husan o'rnidan turdi.
- Voris uni darvozaxonagacha kuzatdi.

\* \* \*

Uning xayoli birodari va jiyani bilan band edi.

Rastaga yetib kelganida bexos uzoqdan oq kiygan gavdali kishini ko'rdi. Turqidan arvohni eslatgan kishi yo'l tomon katta-katta odimlab borardi.

Husan sarosimalanib qoldi.

Maydonchada ro'y bergen voqeani bu kun biron marta eslamagani, tasodif muloqotni kutmaganidan, shu dam oyoqlaridan mador qochgandek bo'ldi.

Yo'q. O'zini darhol o'ngladi.

Qadamini tezlatdi.

Vajohatli kishi yo'l yoqasidagi mashinalar ortiga o'tib ketdi.

Husan ham shu yoqqa qarab yurdi.

U hamon nima deyishi, qanday gaplashishini bilmasdi.

Ammo nazarida, gaplashish shart edi.

Mashinalar ortiga o'tgan edi, ko'zi tushdi:

narigi tomondagi ko'cha betida ko'p emas, o'n-o'n besh chog'li keksa-yosh ustiga qizil baxmal yopilib olacha chopon tashlangan kichik bir tobutni ko'tarib borishardi.

вЂњBola!вЂќ deb o'yladi o'zicha Husan va unga bu - o'sha, rastadagi bola bo'lib tuyuldi. вЂњBiz ko'plashib uni asrayolmadik!вЂќ degan gap xayolidan kechdi.

Gavdali kishini Husan ko'zdan qochirib qo'ygan edi.

Musulmonchilik! Bir dam parishonlangach, yugurib borib tobutga yelka tutdi.

Ayni soniyada tobutni unga yonma-yon oq kiygan kishi ko'tarishib borayotganini payqadi.

вЂњBu Inson odamiylik qila olar ekan, nega hayvonlik qildi? Hayvonlik qilar ekan, nega odamgarchilik qilayapti?

Dunyoning ishlariga hech qachon

oxirigacha

tushunib bo'lmas ekan!вЂќ

Husan yana, beixtiyor:

вЂњVoqeaga ortiq qiziqishda ma'no yo'q!вЂќ deb o'yladi.

\* \* \*

Uyga qarab ketayotib, o'z bolalik kunlarini, otasi Ismoil Xo'ja amakisi Ibrohim uchun qayg'urib, hayotda duch keladigan sarson-sarg'ardonliklar haqida gapirganini esladi.

Uning ko'z oldiga qaytib birodari Hasan, jiyani Voris keldi.

вЂњOta-bola nimani talashadi?

Ulardan qay biri aybdor?

Bizga umr bo'yi haqiqat bitta deyishdi. Barchani bir yo'lga solmoqchi bo'lishdi. Insonlar esa har biri O'z Haqiqati bilan yashadi...

Bu nima, adashishmi, jaholatmi yoki azaldan kelgan вЂњhayot qonunib Ѓќми? Insoniyatning boshini biriktirib, uni Buyuk Haqiqat (adolatli, ahil, baxtli yashash)ga bo'ysundirish, o'rgatish mumkinmi? Mumkin emasmi?вЂќ

Husan xayolida aylangan savollarga javob topmayotgan edi.

10

Amakisini darvozaxonagacha kuzatib qaytgan Voris, palata eshigi oldida turgan - egnida kasalxona kiyimi, ammo boshida do'ppi, ixcham oppoq soqolli kishini ko'rdi.

- Birovni kutayapsizmi, otaxon?

- Shaxmatni bilasizmi? - savolga javob o'rnida so'radi dabdurustdan qariya. - O'tganimga uch kun bo'ldi. O'ynaydigan o'rtoq

topolmayapman.

- Taxta qayerda?

- Xonada. Yuring.

- Sizlar nechi kishi?

- Uch kishi.

- Bo'lmasa, bu yoqqa olib keling. Men bir o'zim.

U xonaga kirishi bilan izidan chol shaxmat taxtasini ko'tarib keldi. Stol ustiga taxtani qo'yanicha, donalarni tera boshladi. Xatti-harakati erkin va g'ayur, shu bilan birga, aft-angori osoyishta edi.

Voris ilk qarashda bu odam o'zbekmi, tatar yoki ozarmi? - ajrata olmadi. O'shini ham taxmin qilolmadi.

- Oldin bir piyola choy iching, - dedi donalarni terib bo'lgan qariyaga.

- Choy keyin, - dedi u.

ВЂњJangвЂќ boshlandi.

Voris chuqur sukutga cho'mib sekin o'ynar edi.

Raqibi undan ham sekinroq o'ynar ekan. Lekin o'ynayotib allabir qadim nidolarni eshitilar-eshitilmas, past tovushda o'zi-o'zicha xirgoyi qilishga odatlangan ekan.

Ana, ko'p o'tmay xirgoyi qilishga tushdi:

Dilda darding bo'lmasa, dardi sarimni kovlama...

Buni ikki-uch qaytargach, yangi misraga ko'chdi:

Ma'rifatdan bexabarsan. Gavharimni kovlama...

Sal turib, butun nidoni вЂњyangibвЂќ ladi:

Bihisht ayvonida bo'lmoq ilojin orzu qilmay,

Sotarga dinu dunyoning rivojin orzu qilmay,

Yana Rumu Xito boju xirojin orzu qilmay,

Shahi ro'yи zaminning taxtu tojin orzu qilmay -

Gadoi faqr bo'lildim. Sayr etarman bahru bar tanho...

Voris, umrida o'zi ham ehtimol faqirlik va tanholikda bahru bar (dengiz va quruqlik)da kezgan Bu Odamga nisbatan ko'nglida qiziqishmib вЂњhurmat tuydi.

Ular uch qo'l o'ynashdi.

Qariya ikki marta Vorisni yengdi.

Voris bir marta yutdi. Ammo unga chol atay yon bergandek edi.

U o'mridan turib, bu gal o'zi choy damlab keldi. Yangi tanishini dasturxon yozig'liq avvonga taklif qildi.

- Uzr. Nechiga kirdingiz, otaxon?

- Saksonga yaqinlashdim... Ismingiz nima, yigit?

- Voris.

- Hali kelgan Husan Xo'janing jiyanmisiz?

- Amakim! Katta olim. U kishini taniysizmi?

- Biz bir mahalladan... Meni Marat bobo deydi.

- Kechirasiz, nega Marat bobo? - deb ehtiyoitanib so'radi Voris.

- Kim bilsin, balki Muroddirman? Bir kunlar Muroddan Marat avlo ko'ringan bo'lsa kerak, shunaqa yozishgan. Aslida, ikkisi ham emas... Men balki, qaroqchilar kemada ko'ksiga tig' sanchib dengizga uloqtirgan Darvesh-qalandardirman? Balki, odamlarni g'aflatdan uyg'otgan, vaqtqi-vaqt bilan ogohlantirgan Chol-Nuhdirman? Balki, Ona Yeri tortib olingan, mosuvu ko'yga tushgan Shahzoda? Balki, sahroda tentiragan, zindonda jandas qolgan yana bir Darvesh? O'zim ham bilmayman. Umrimda ismimdan tortib hamma narsa qorishib ketgan... Faqat, esimda. Bir payt bizni qandaydir g'orga olib borishgan. Biz u yerda ko'priq qurbanmiz. Nima maqsadda? Aytolmayman. Qator bo'lmalardan iborat g'or. Har qaysi bo'lma xonaqohga o'xshaydi. Bir necha tubida suv, chuqur hovuzmi, ko'lmi? Ular orasida orolchani eslatgan nam yer. Biz mana, shu do'ngliklarni вЂњbir lashtiradicganвЂќ osma ko'priklar qurbanmiz.

- U g'or qayerda?

- Bizdan joyni pinhon tutishgan. O'shandayoq g'orning вЂњog'zibвЂќ ham yopib tashlangan. Bilmayman... Ko'z oldimda ko'r kam muzzaroy. Ohaktoshdan tiklangan haybatli ustunlar. Qandillardek sumalaklar. Biz qurban osma ko'priklar yurganingda belanchakday tebranadi. Lopillarydi... g'orda chiroq o'rnatib atrof bir oz yorishganida meni bir narsa ayniqsa, ajablantirgan. Abadiy muzlik ichida, xonaqoh gumbazidek tepada qushlar uchib yuribdi. Ko'rshapalak bo'lishi ham mumkin! Lekin men qushlar deb o'ylaganman. Ular qachon, qayerdan g'orga kelib in qurbanini bilib bo'lmasdi... Men ko'rgan dunyo shu edi!

- Sakson yosh uzoq umr, - dedi Voris. - Bundan bo'lak biron voqeа xotirangizda qolmaganmi?

- Mening boshimga ko'p urishgan, bu boshimda kaltak sindi, degan ma'noda emas, aniq! G'ira-shira allanimalarni eslayman...

Suyangan to'rt og'aynim meni sotdi. Hatto dushmanga aylanib yo'qotishga harakat qilishdi. Ketdim... Ko'p sarson-sargardonliklar ko'rdim. Birov sen bosmachisan, sen qoloqsan, vahshiysan, sening tarixing ham, din-e'tiqoding ham bir chaqa, deb ko'ksimdan itardi. Birov meni qul qilib ishlatdi... Bir qizni yoqtirardim. Dengizda g'arq bo'lidi... Bir gal uylanib, ozmi-ko'pmi yashadim ham. Lekin o'sha, o'zim yoqtirgan qizni unutolmadim. Ketdim... Mana, endi qaysi makon, qaysi zamonda yuribman? O'lg'iz xudo biladi. Voris Marat boboning so'zlaridan qattiq ta'sirlangan, hozir u o'zimi Bu Olam chegarasidan tashqaridagi Bir Olamga nazari tushgandek sezayotgan edi.

- Mening bobom Ismoil Xo'ja degan kishi edilar, - deb hikoya qila boshladi Voris. - Tirik bo'lsalar, u kishining ham yoshi saksonga yaqin borardi. Bolalik paytim bobom ba'zan Ibrohim degan akalari yo'qolgani to'grisida gapirar, ko'pincha ko'zlariga yosh olar edilar... Siz menga ularni eslatdingiz! Men ertaga kasalxonadan ketayapman. Qachondir yana siz bilan ko'rishish nasib etadi yo yo'q. Shuning uchun, ijozat bersangiz, hech kimga, haligina amakimga ham ochiq-oshkor aytmagan ba'zi bir gaplarni sizga aytas...

- Aytin, - dedi Marat bobo.

- Bola edim, ota-onam ajralib dunyoning shafqatsizligiga tushunmay, to hamon yuragimda buning asorati qoldi. Asosan, onam qo'lida tarbiyalandim. Bobom Ismoil Xo'ja, buvim Bokira bonu goh-goh mendan xabar olib turishardi. Dadam ham... onam

Kurbanoy dunyodan o'tguncha ham, keyin ham menga doim mehr ko'rsatgan! Lekin bora-bora dadam bilan men biri-birimizdan uzoqlasha boshladik. ВЂњBegonabЂkasha boshladik. Dadam aravani bir yoqqa, men boshqa yoqqa tortayapmiz! Albatta, otaming otaligini tushunaman, imkon yetkanicha keskin muomaladan saqlanib yuraman. Dadam badavlat, kibor, odamlar yarim qiziqish, yarim qo'rquv bilan qaraydigan hukmfarmo kishi! Barchadan ko'ra yaxshi yeb-ichish, chirolyi kiyinish, dabdabali uyda yashash, dabdabali yurishni hayot mazmuni deb bilgan, moddiy manfaatni birinchi o'ringa qo'ygan o'zi-o'ziga xon, o'zi-o'zicha bek kishi! Shu bilan birga, qiziq joyi, ichida ojiz, jur'atsiz qulni eslatadi. Atrofdagilar ham unga o'xshab qul bo'lislhini istaydi! Menga muttasil, unday dema, unday qilma, tarzida talab qo'yadi. Og'ziga ag'rayib qarashimni, u chizgan chiziqdandan yurishimni - bolalik kunlarimdan, ayniqsa endi - bo'yninga yuklagisi, meni xuddi kishan-zanjirga solgisi keladi. Men o'zimni ozgina erkin tutsam, bu uning g'ashiga tegadi, norozi bo'layotgani ko'rindi.

Men tushunmayman, biz qadimdan qudratli, ozod, mag'rur ajddolar nasli emasmi? Qonimizda mutelik, qullik qayerdan keldi? Kim, qachon bizni bunchalik qulga aylantirdi? Dadamning oldida yurt haqida, millat haqida, til haqida gapirish mumkin emas. Sen xato yo'lga kirayapsan, aljirayapsan deydi. Na uzoq tarix, na dalillar orqali fosh bo'layotgan yaqin tarixni eslash ham mumkin emas. Chidayolmaydi. Sen turli unsurlar, millatchi-jadidlarga ergashma, ular gunohi borligi uchun qamalgan, otib tashlangan, to'g'ri qilingan deydi. Fitrat, Qodiriy, Cho'lponlarni ham shu safga qo'shadi. Ularga xayrixohlikni adashish deb biladi. Umuman, yurt ahvoli, xalq borasida dadam bilan so'zlashmagan durust! Insonga zo'ravonlik o'tkazib bo'lmasligini tushuntirolmaysan...

- Sizga qiyin ekan, yigit, - dedi Marat bobo sal parishonlanib. - Onadan, otadan shikoyat qilish, ona yoki otaning ko'ziga tik qarashning o'zi joiz emas. Musulmonchilikka kirmaydi! Bizga shunday tarbiya berilgan... Yana aytsam, birovni ortiqcha muhokama qilmagan ma'qulroq bo'lishi kerak. Bu dunyo u dunyo har kim o'zi uchun o'zi javob beradi... Bundan tashqari, men yillard bo'yil o'ylab, itoat yaxshimi, erkinlik yaxshimi? Qay biri afzal? Aniq hukmga kelolmadim. O'shligim qaytsa, balki boshqacha yashar edim. Bu sizga ham, dadangizga ham tegishli... Umrinda bir xulosa yasadim, bizni qusurlar, illatlar emas, odamga nafrat bilan qarashga o'rgatishgan, oiladan tashqi tarbiyamizda birovni mahv qilishga moyil kayfiyatga вЂњtayyorвЂќ turqqa вЂњkiritishganвЂќ ekan. Kechirilmas hol! Sharoit odamiy bo'lishi kerak... Mening gaplarim betartib, yigit. Xafa bo'lmasiz.

- Hammasi to'g'ri. Lekin dadam ham meni yengiltaklik qilayapti, bolalik qilayapti, deb o'ylaydi. Holbuki, yoshim o'ttizga borayapti, dunyoda ming yillik qadrlangan tushunchalar, muqaddaslik, ezgulik bor, ularga rioya qilmasa, yashashda ma'nou qani? Men bir qizni yoqtiraman...

- Chiroylimi? - deb bexos-dabdurustdan qiziqsindi Marat bobo.

- Chiroli. Aqli. Hayoli.

- Ismi nima?

- Marvarid!

Vorisning nazarida, Marat bobo yelkalarini, boshini adl ko'targandek, ko'zları yarq etgandek bo'ldi:

- Marvarid?

- Shunaqa... Yaxshi qiz. Birgina aybi, qo'li qisqa oiladan. Buning ustiga, mendek u ham erkin fikr yuritadi, dadam meni u yo'lidan ozdirayapti, deb tushunadi. Shuning uchun, tish-tirnog'i bilan qarshi. Menga boshqa bir qiz qidirayapti.

- O'ylab ko'ring, oqayotgan bir hovuch suvning yo'llini to'ssa, u yon tomonlardan yo'l izlaydi, - dedi negadir Marat bobo.

- Men sahro etagidaman. Bir gal otta borayotib uzoqdan nay sadosini eshitdim. Shundan buyon o'sha sado qulog'imda.

Osoyishtaligim yo'qolgan. Ba'zan toqatsizlanib har yoqqa ot choptiraman. O'sha sadoni yana, yana eshitgandek bo'laman. Bu qayerdan kelayapti, kim? Bilmayman.

- Sahro dengiz tubiga, dengiz tubi sahroga o'xshaydi, - dedi Marat bobo o'ychan.

- Meni duo qiling, otaxon. Shu qizdan ajralmay! Unga yetishay!

Marat bobo qo'l ochib duo qildi.

\* \* \*

Ertasi kuni Voris kasalxonadan ketayotib, Marat bobo bilan xayrlashgisi keldi. Chol yotgan palata ostonasiga bordi. To'xtadi.

Eshik qiya ochiq.

Xonada Marat bobo yolg'iz.

Oldida shaxmat taxtasi.

O'zi-o'zicha dona surmoqda, eshitilar-eshitilmas, past tovushda eski bir nidoni xirgoysi qilmoqda edi:

Xo'ja, sayyid, beku xon - sardorlar badkor esa,

Zulm tig'in tez eturda - har biri nomdor esa,

Kosa-les, kazzob shayxlar - bu vatanda bor esa,

Mazlum ellar ingrashubkim, parcha nonga zor esa -

Kufr eliga Mashrabidek rahnamo paydo bo'lur...

Lahza ichida Vorisning ko'zi oldida

butun olam

go'yoki charx urdi.

вЂњBu vatan...

mazlum ellar...

parcha nonga zor...

kufr eliga rahnamo...вЂќ

Ajabo! Bizga so'nggi asrda rasmga kirgandek tuyulgan gaplar necha asrlar burun (ehtimol, ming yillard burun ham) his etilgan, aytilgan ekan.

Bu nima? Odamlarni tabaqalar (sinflar)ga bo'lish qadimdan bormi?

Hayotdagи haqiqatmi? Uydirmami?

Tabiiy holmi? To'qilganmi?

Buni вЂњsinfiy kurashвЂќ degandek so'nggi asrlarda hukm surgan noto'g'ri qarash, desangiz ming yillard davomida вЂњMazlum va ZolimвЂќ tarzida fikr yuritilgan.

Yana, Xalq (вЂњKo'zi vaqtி sahar sayyora bo'lgan XalqbЂќ)!

El-ulus. Fuqaro (вЂњFaqirвЂќ so'zining ko'plik shakli emasmi?!)

O'rtada shaxmat taxtasi.

Nega donalarning haq-hukuqi bir xilda emas?

Gap birov boy, birov kambag'al oilada tug'ilganida emas. Garchi o'shandayoq nohaqlik,adolatsizlik ro'y bersa-da, inson intiluvchan, o'zgaruvchan mavjudot! Birovning qismati boshqaga o'xshamaydi! Muhimi, butun Yer yuzida hamon Nohaqlik, Adolatsizlik uchrab turganida.

O'rtada shaxmat taxtasi!

вЂњHusan amakidan bu borada so'rash kerak.

U faylasuf. Balki, biladiвЂќ.

Kufrdan, kufr eliga aylanish, yana rahnamo bo'lishdan O'zing asra, ey Xudo!

Barchamizga (har bir bandaga) O'zing insof ber! Diyonat ber!

Jaholatdan, turfa isyonlardan, yo'llarda to'kilgan qonlardan, yuz tuman falokat va halokatlardan O'zing asra!

... Voris Marat boboga xalal bergisi kelmadi.

Orqaga chekindi.

Eshikdan sekin uzoqlashdi.

Uchinchi qism - INSON VA HAYVON

11

U bolalik paytidan yuragida bir og'riq sezsa-da, ba'zi er-xotin ajralgan oilalarda bo'lganidek, dadam onamni, meni tashlab ketgan, deb otasidan hech qachon norozilanmagan, hatto o'pkalanmagan edi. Vaqtida onasi Qurbanoy ota-bolani biri-biriga qarshi qo'ymagan ham edi! Voris otasiga ortiqcha biron e'tiroz bildirgani ham yo'q! Aksincha, ota tomonidan unga e'tiroz bildirilayotgan edi. Ota o'z bolasi bilan ko'pdan buyon kim kimni yengadi, qabilida ish tutib, unga keskin hukmini o'tkazishga urinayotgan edi.

Ana, amakisi bilan u mashina yollab, Navoiyga jo'nashdi.

Yo'lida Husandan Voris otasi avtofalokatga yo'liqqanini eshitdi. Shunchaki dadamning tobi qochgandir, deb o'ylagan edi, allanechuk bo'lib ketdi.

Uydan xafalashib chiqqan edi. Dadam qidirib ham yurmasin, degan xayolda birovga indamay Toshkentga qarab jo'nagandi. Mana, endi otasi qaysi ahvoldayu ikkov qanday yuzlashishadi, bilmaganidan qayg'uga botgan edi.

Voris bir necha yaqinlarini tuproqqa topshirgan. Ota tomonidan bobosi, buvisi, ona tomonidan yana boba va buvi, nihoyat onasi Qurbanoy. O'limdan uning yuragi zada edi. Shu bois qo'rquayotgandi. Inson dunyoda Omonat Vujud!

Kech yo'lga chiqishgan edi, qorong'i tongda Navoiyga yetib kelishdi.

Uyda barcha barvaqt turib nonushtaga tayyorgarlik ko'rishayotgan ekan. Darhol dasturxon yozishdi.

Birinchi galda ular Hasanning ahvoli bilan qiziqishdi.

Norgul:

- Bir oz yengil tortdilar. Bugun reanimatsiyadan palataga o'tkazishi kerak, - dedi.

Bu gapda taskin bo'lsa-da, Vorisning hamon ko'ngli notinch edi.

Nonushtadan keyin, Norgul, ortidan bolalari - Qudrat va Ma'suma, lom-mim demay xonadan chiqib ketishdi. Ancha hayallab, bir mahal har xil tugun-tugunchaklar ko'tarib kirishdi.

- Tug'ilgan kuningiz bilan, aka.

- Tabriklayman, o'g'lim.

Tug'ilgan kun вЂњesdan chiqqanbвЂќdek edi.

Voris ta'sirlanib ko'zları yoshlandi.

Sening dunyoda shulardan yaqin kishing yo'q, degan gap xayolidan kechdi. U dadasi oldida o'zini ozmi-ko'pmi aybdor sezdi. Mening kasrimga otam falokatga yo'liqib, og'ir holga tushmadimikan, deb o'ylab iztirob chekdi. Shuning barobarida, Voris his etayotgan edi: sut bilan kirgan jon bilan chiqadi! U o'z e'tiqodidan (rahmatli onasi bergen tarbiyadan, qolaversa, ajdodlardan kelgan tarbiyadan, yana, deylik, hatto Marvariddan) voz kechib, otasi ko'rsatgan yo'ldan yurishi yoki unga hamma narsani qurban qilishdan saqlanib, yana... yana uzoqlashib boraverishiga to'g'ri keladi.

Dunyoqarash masalasi naqadar murakkab!

Bu - azobli, ozorli, gohida qonli yo'l!

Voris shu palla вЂњSo'nabвЂќ degan kitobni, Arturni esladi.

Ota bilan bola bunday to'qnashishi shartmidi?

U e'tibor berdi. Yangi вЂњSo'nabвЂќ degan kitobni, Arturni esladi. Ota bilan bola bunday to'qnashishi shartmidi?

Amaki bilan jiyon kasalxonaga borishga shaylanishgan edi, Norgul yana:

- Shoshmanglar, - dedi. - Hozir mashina chaqiraman.

- O'zimiz boraveramiz.

- Mashina baribir, bekor yotibdi. Xizmat qilsin!

\* \* \*

Ular ko'chaga chiqib, mashinani kuta boshlashdi.

Xijil kayfiyat, tund holatda ekanligiga qaramay, Vorisning xayolidan kechadan buyon Marat bobo ketmayotgan edi. Husanga:

- Marat bobo degan kishi bilan tanishdim, amaki, - dedi.

- Qo'shnillardan. Mahallada faol, - dedi Husan. - Bir xonali panel uyda turadi. Ba'zilar yolg'iz ekansiz, deyishsa вЂњNega, yolg'iz?

Xudo bor!вЂќ deydi. Barcha yoppasiga dahriylikka o'tgan bir paytda ham xudoni unutmagan shunday kishilar uchraydi.

- Siz-chi? - hurkibgina so'radi Voris.

- Bizning bobomiz, otamiz xudojo'y edilar. Keyin, kundan-kun butun eshiklar mahkam yopildi. Mening xatolar, gunohlarim yo'q emas, lekin kasbim mumtoz falsafa ekanligi meni qutqargan, yuragimda men ham xudodan qaytmaganman. Doim farzu sunnat deb

yurmayman-ku, ba'zan yashirincha iltijolar qilaman.

- Meni so'kmang, amaki, rosti, dadamga tushunmayman, odamlardan uzelgan. Navoiyda keksalar bundaylarga вЂњdunyosini sotganвЂќ yoki вЂњsotilganвЂќ degandek noxush qarashadi. Dadam ishonmaydimi, qo'rqlaydimi...
- Unaqa dema. U - sening otang, mening birodarim! Har qanday kishi boshiga kulfatmi-musibat tushsa, xudo deydi. Chunki ikki dunyo orasida Bir xudo bilan bir o'zi qoladi! Dadang sir bermasa kerak. Marat boboga o'xshaganlarning yo'rig'i boshqa.
- G'aroyib inson ekan! Ko'pni ko'rgan, - dedi Voris.
- Men uni yaxshi bilmayman.

- U menga bobom Ismoil Xo'ja bilan akasi Ibrohimni eslatdi.

- U bir gal menga ham bobomni, otamni eslatgan, - dedi Husan. - Odamga odam o'xshaydi. Umuman, darvessifat kishi. Ba'zan allaqaysi dengizlari kemalar haqida gapirib yuradi.

Darvoza oldiga mashina kelib to'xtadi.

Voris ajablandi. Mashina - o'sha, oldingi mashina, haydovchi ham - o'sha, tanish Abumuslim. Qiziq, вЂњkatta xo'jayinвЂќ bir o'zi avtofalokatga yo'liqqanmi?

Yo'lga tushishgach, haydovchidan so'radi:

- Aravangiz ziyon ko'rapti shekkilli?
- Bu ham bir yog'i pachoqlangan, kasal edi. Ikki kunda tuzattirib berishdi. Endi olib chiqishim!
- O'mon ish bo'libdi, - gapni Hasanga burib, luqma tashladi Husan.
- Gapirmang. O'mon, domla! Baribir, so'raysizlar. So'ramaganda ham, ichlaringda bu voqeя nega ro'y berdi, deb o'ylaysizlar... Xo'jayin o'zim haydayman, dedilar. Ko'nmasam bo'larkan! Buning ustiga, yonlarida qotib uxlاب qolibman. Charchagan edim. Mashina aksiga, chap tarafdan daraxtga borib urilgan. Men ziyon ko'rмаганим bolishdan...

- Bolish?

- Lo'la, deymizmi, yostiqmi? Xo'jayin ba'zan orqada yonboshlardilar, - deb so'zini davom ettirdi Abumuslim. - Shuni olib, ko'ksimga bosib uplayotgan edim. Zarbani qaytargan! Eng yomoni, menga hech narsa qilmagani. Oz-moz lat yeganman, xolos. Kasalxonaga meni yotqizishmadi ham! Abjag'im chiqsa, yaxshiroq edi...

- Unaqa demang! - nasihat qildi Husan.

- Siz bilmaysiz-da, domla, Voris akam biladilar.. Xo'jayinning kechirmay uzoq kek saqlab yurish odatlari bor. Haydab yuborsalar, mayli, shukr deyman. Meni qiyab, yo'q qilib, bola-chaqamni qon qaqsatishlari mumkin. Hali ko'rasizlar, u kishining qo'lidan keladi. Yangamning oyoqlariga yiqilib, yolvorib yuribman.

- Biz ham aytamiz. Kechiradi, - va'da berdi olyhimmata Husan.

Bu вЂњbizвЂќ faqat Husanga tegishli. Voris Buxorodan Navoiyga ko'chganidan buyon rasmga kirgan zulmdan o'zini qanday qutqarishini o'ylashi kerak! Qani, endi aqalli qaytib Buxoroga qochishning iloji bo'lsa! Qo'yaydi. Kun ham bermaydi! U amakisining hurmati, og'ir ahvolga tushgan otasining yuzi uchun bu yoqqa kelishga kelib, munosabat yaxshilanishi mushkul ekanagini sezib turar edi.

\* \* \*

Kasalxonada, tiklanish (reanimatsiya) bo'limidagi mo"jaz bir xonada Hasan baland karavotda yotardi. Uning boshi, yelkalari dokaga o'rab tashlangan. Lekin ikki beti qip-qizil, ko'zlar chaqnagan, bu - o'nglanish alomatimi yoki kuchli dorilar ta'sirim? - bilish qiyin. O'g'li bilan birodarini ko'rib - kutayotgan ekan! - siniq jilmaydi.

- Bir o'limdan qoldim, - dedi va shu damdayoq so'radi: - Uyga kirib chiqdinglarmi?

- Kirdik.

Ular karavot yonidagi kursilarni egallashdi.

- Abumuslim qayoqda ekan?
- Ko'chada turibdi.
- Nega kirmadi? Muttaham!
- U sizdan qo'rqadi! Shuning uchun qochib yurgandir?
- Sen ham gapirasan! Mard bo'lsa, qochmasdi.
- Siz uni kechiring! O'zi tavbasiga tayangan, - deb bergen va'dasini bajardi Husan.
- Ko'ramiz! - dedi Hasan bu gapga ortiqcha e'tibor bermay.
- Ikkovlaringni ham xudo asrabdi! Ayb unda emas!

Hasan bu gapni qulog'i ostidan o'tkazib yubordi.

U nogoh oldingidan bardamroq tovushda вЂњboshidan o'tganвЂќ hikoya qila boshladi:

- Ba'zan oyog'im og'rib turardi. O'sha kuni havo nam kelganidanmi, qattiq og'ridi. Bosilarmikan, deb rulga o'tirgan edim. Shunday bir voqeя ro'y berdiki! Aytsam, birov ishonmaydi... Yo'lda qop-qora xunuk bir maxluq paydo bo'lib, mashinaga qarab yurdi, uni chetga surib tashladi...

- Buni har kimga aytib yurmang, - dedi Husan.

- Men nima bo'lganiga tushunmayapman.

- Ilm tili bilan aytganda, bu boshqa olamga tegishli holat. Sizdan qandaydir norozilik...

- Katta olimsanu bid'at narsani gapirayapsan. Mening nimamdan norozilanadi?

- Men shu kunlar o'zimcha o'yladim. Sizning yaxshi ishingiz ko'p. Lekin yomon ishlar ham... вЂњHech bir falokat bekordan ro'y bermaydisвЂќ degan aqida bor.

Suhbat ikki birodar orasida barayotgandi. Hasan endi Vorisni ko'rib-ko'rмаганга olayotgan, uni go'yoki вЂњunutganвЂќ edi.

Voris avvallari egizaklar uchraganida sezmagan ekan, Husan вЂњsizвЂќ сиҳир, Hasan вЂњsenвЂќ сиҳирashi yarashmagan hol!

Aksincha, OLIMga hurmat bilan qaralmaydimi? Shu damda uning aqlli va kamtar amakisiga nisbatan hurmati oshdi.

- Kecha Ibob kelgan edi, - deb mavzuni o'zgartirdi Hasan. - Eshitib, to'g'ri samolyotda uchib kelibdi.

- U bizdan chaqqonroq-da! - dedi Husan kulib. - Bizning yukimiz og'irroq. Hamro degani ham kelib qolsa, ajab emas.

- U kim? Tanimayman.

- O'zi tanishib oladi... Mayli, sizni charchatib qo'yaylik. Men hali shu yerdaman. Do'stlarim, shogirdlarim bor, bahonada ko'risharman.

- Sen nima qilmoqchisan? - deb tuyqusdan jim o'tirgan Vorisdan so'radi Hasan.
- Shu yerdaman. Uyimdan bir xabar olsam...
- Darvoqe, sening uying bor! - dedi Hasan kesatib. - Sen, bola, oyog'ingni bilib bos...
- Menga qarang, - dadil so'zlay boshladi yana Husan. - Bu Navoiy viloyati! Hazrat Navoiy Husayn Boyqaro bilan o'g'illarini yarashtirishga umrularini tikkanlar, eshitgan bo'lishingiz kerak. Men u Zotning qarshisida bir gardman. Lekin sizni ko'rishdan tashqari, bu yerga sizlarni yarashtirgani keldim. Ikkovlaring ham o'yinni tugatinglar. Yaxshi emas.
- Voris dasasining sal chekinib вЂњsizвЂќlashga o'tganini payqadi. Lekin uning dag'dag'asi pasaygani yo'q.
- Siz bilmaysiz-da, buning qilib yurgan ishini, - dedi nadomat bilan. - Ba'zi odamlarni nochor, ba'zi hayvonlarni, deylik ko'chadagi it-mushukni qarovsiz, deb yosh-bolaga o'xshab, topgan pulini sochib yuribdi. O'ziga daxli yo'q narsalarga aralashib, har yodqa janjal-to'polon ko'tarib nima qiladi? Devorga hadeb mix qoqavermaslik kerak! Xo'p, bu mayli. Mustamlaka edik, deydi, qaram edik, deydi, bu yo'lida ko'p kishi o'lgan, deydi. Millatparastlik qiladi. Xo'p. Mening ra'yimga qaramay, bir qizga uylanmoqchi. Tushunmaydi, oldindan kelgan tartib, oilada birov bosh bo'ladi, qolganlar unga bo'ysunadi, itoat qiladi. Bo'lmasa, har kim ko'rpani har yoqqa tortib, bosh-oyoq ochilib qoladi, butun hayot tizimi buziladi... Yana gap ko'p, hozir mavridi emas, aytolmayman. Hasan gapni asoslab aytgan edi.
- Husan ancha sukutga cho'midi.
- Qanday bo'lmasin, ota-bola biri-biringni tushunishga harakat qilinglar. Biri-biriga dushman emas, do'st bo'lib muomala tutsa, haqiqat ochiladi, - dedi nihoyat. - Sen, jiyan, tilingga ehtiyyot bo'l, hamma balo tildan keladi. Kitobdan olgan bilimdan hayotiy bilim farq qiladi. Dadang hayotda tajribali kishi. Qadrла! O'rgan! Bundan tashqari, joni achimasa, sen bilan tortishib yurmasdi! - U Hasanga yuzlandi. - Siz ham har narsaga qizishmang. Bugun kechagidan farq qiladi. Dunyo erkin fikrga qarab borayapti. O'shlar maydonga kirib kelgan sayin hayot eski qolipa sig'may qolar ekan! Atrofga qarang, katta bir o'zgarishlar ro'y beradiganga o'xshayapti.
- Hech narsa o'zgarmaydi! Mana, men aytdim! Men kiyimimni almashtiranim bilan, ichida o'zimman! - deb to'ng'illab qo'ydi Hasan.
- Shunga qaramay, yillar davomida men o'zgardim, siz o'zgardingiz! Hayot bir yerda turmaydi. Ota-bobolarga ko'p qayishmasangiz ham, sizni bugun ming yillik boy-kambag'al, nasl-nasab degan tushunchalar qiziqtiradi. Qo'lim uzun, istaganimni qilaman, deb o'ylaysiz. Meni kechiring, albatta. Lekin вЂњSayyidsan, xojasan zinhor mag'ruri nasab bo'lma!вЂќ degan eski gap keladi. Men muhabbat masalasini ko'zda tutayapman. Bu ko'ngil ishi. Qo'ying, aralashmang. Yigit o'z hayotiga o'zi egalik qilsin...
- Sen ham shu yoqqa tortayapsan! - dedi yana вЂњsenвЂќlashga o'tib Hasan.

\* \* \*

Ular ko'chaga chiqishgach, Husan uzoqdan gap boshladi.

- Akutagava degan yozuvchi bor. Yapon. Bir hikoyasi menga yoqadi, - dedi. - Budda jannat hovuzi bo'yida aylanib yurgan ekan. Oq nilufarlar bilan qoplangan hovuz tubida, do'zaxda osiy bandalar azoblanayotgan ekan. Buddaning Kandata degan qaroqchiga ko'zi tushibdi. Qaroqchi umrida ko'p kishilarga zulm o'tkazgan, odam o'ladirishdan ham toymagan ekan. Lekin u bir kuni o'rmonda o'rgimchak uyasini toptash, o'zini oyog'i ostida ezib tashlashdan saqlangan ekan. Shu xayrli ishi uchun Buddha unga shafqat qilib, uni jahannam changalidan qutqarmoqchi bo'libdi. Jannat o'rgimchaginiq nilufar yaprog'iga ilingan kumush tolasini svuga tushiribdi. Tola eshilib-cho'zilib do'zaxdag'i dengiz tubiga yetib boribdi. Kandata tolani tutib, yuqoriga chiqqa boshlabdi. Ana-mana chiqdim, deganida boshqa osiyalar ham tolaga osilib olishganini payqabdi. Baxilligi tutib, senlar hammang emas, bir men azobdan qutulishim kerak, deb barchaga dag'dag'a qila boshlabdi. Shu payt u tutib turgan tola chirt uzelibdi... Bu hikoyada qaroqchining yana bad fe'liga borganidan ham ko'ra ko'proq. Budda ozgina ezgulikni hisobga olib, kechirmoqchi bo'lgani muhim... Boshqa dindan misol ketirganim uchun xudoymen meni qahriga olmasin. Astag'furulloh... Barcha dinlarda xudoki, kechirimli, Rahim va Rahmon ekan, biz nega kin-kudurat bilan yashaymiz? Sen, jigar, otangni kechirishga, keyin u ham seni kechirishiga harakat qil! Hayotda uchragan muammolardan qochishning iloji yo'q...

Ular ko'cha boshida xayrplashishdi.

Voris boshi g'uvillab, qandaydir esankiragan edi.

Ota bilan bola to'qnashishi shartmidi?

вЂњSo'nabвЂќ Artur! Artur...

Albatta, otaga qarshi borolmaysan.

Lekin jadidlar-chi, millat qayg'usi bilan yashaganlar?

O'sha, asr boshida (bu Sharqqa yot qanday bedodlikki!) yoshlar (jadid, yangi avlod) keksalar (qadim, eski avlod) bilan, bolalar otalar bilan qirpichoq bo'lmaganmid? Otalar hayot bora-bora botqoqqa aylanganiga beparvo qaragan, qotib qolgan johil bo'lсалар, nima qilish kerak? Xudoymim, bandangni kechir.

Vorisning yuragida ShUNDAY BIR DARD borki, otasi buni his etmaydi. Otaga qarshi esa borolmaysan!

Amakischi-chi? Ko'p narsani his etadi.

Bilimli. Diyonatli.

Yaxshi kishi!

Lekin qo'li qisqa, mashaqqat bilan umrini o'tkargani uchundir, jur'at, jasorati kam.

Yuvosh-yuvosh!

Yarash-yarash!

Shunga qaramay (sharoit ko'tarmaganiga ham qaramay), dadasi bilan bugun ancha qat'iy gplashdi. Rahmat!

Ajabki, amakisiga nisbatan dadasi har jihatdan kuchli. Bunga hozirgina yana qanoat hosil qildi. Bu nima, ba'zan ezgulikdan ko'ra O'vuzlik kuchliroqmi?

Ota bilan bola to'qnashishi shartmidi?

\* \* \*

U o'z uyiga yo'l olgan edi.

Otasidan harholda ko'ngli tinchidi.

Tirik ekan! Sog'aya boshlagan ekan!

Yashasin, Ilohim!

Imkon topib Marvarid bilan biron xilvat go'shada uch rashish kerak. Qiz bola - ota-onasi ortiqcha erk berishmaydi! Marvaridni sog'ingan. Ohu ko'zlarini! Ingichka barmoqlarini!

Tezroq ko'rmasa, o'lib qoladigandek...

Yo'lida og'aynisi O'monqul esiga tushdi.

Xayrlasha olmaganiga o'kindi.

O'monqul ismining вЂњAziz insonlar xudoning Yaxshi Quli, biz O'mon QulibвЂќ degan ma'nosi ham bormikan?

Uyga yetib kelgach, otga minib, sahroga qarab ketdi.

Uzoqdan nay sadosi eshitilayotgan edi.

Vorisga bu sado qayerdan chiqib, uzoqlarga qanday taralayotganini aniqlamagunicha ko'ngli taskin topmaydigandek bo'lib tuyuldi.

12

Oradan yarim yildan ko'proq vaqt o'tdi.

Hasan tuzalib, ro'y bergan avto falokatni esidan ham chiqara boshlagandi.

Faqat, oldindan bo'lganidek, ba'zan oyog'i og'rirdi.

Hayot bir maromda borayotgandek edi.

Ov - uning xayolida yo'q edi.

To'g'ri, so'nggi yillar o'ziga yaqin besh-o'n kishi bilan Hasan goh-goh sahro ichkarisiga yo'l olishar, tulkimi, quyonmi otishar, ammo bu ovdan ko'ra ko'proq qumga chiqib dam olish niyatida amalga oshirilar edi.

Hozir u shaxsan ovga bormoqchi ham emasdi.

Davrada o'tirgan edi, birdan bu fikr miyasiga urildi.

Kun shanba edi.

Odatdagidan ertaroq ko'chadan uyga qaytgan Hasan tog'oradagi iliq suvda oyog'ini yuvayotib, yonida obdasta tutib turgan

Norgulga shikoyat qildi:

- Yarim yildan oshdi, Ibod ko'rinxmaydi. Kasalxonada bir xabar olganicha, qorasini ko'rsatmay ketdi. Mening qo'limdan non yer edi, qorni to'ygan shekilli. O'z jigarim Husan ham...

- Husan aka ko'p qo'ng'iroq qildilar.

- Qachon?

- Vaqt-vaqt bilan...

- Nega menga aytmadning?

- Esimdan chiqibdi.

- Es bo'lса, chiqadi-da! Ibod-chi?

- U kishidan xabar yo'q. Husan aka oldingi kuni ham qo'ng'iroq qilgan edilar, boraman, dedilar. Opalaringiz ham kelmoqchi...

- Opalar yaqinda kelib-ketgan edi-ku.

- Kim bilsin, sog'inganmiz, deyishdi.

Shu gap ustida birov darvoza tugmasini bosdi.

- Xo'-o'sh? - dedi o'tirgan o'rнida Hasan. So'nggi kunlar u darvozaga ovoz apparati o'rnatgan. Endi вЂњzingni tanishtirmayвЂќ bu hovli ostonasidan kecholmaysan.

- Xo'jayin! Ibodman.

Hasan allanechuk hayajonlandi.

- Xizrnı yo'qlasa bo'larkan, - dedi xotiniga. Oyog'ini artib, o'rнidan turdi.

Norgul uning qo'liga suv quydi. Keyin, shoshganicha, tog'oradagi suvni toshnovga olib borib to'kdi.

Ichkaridan yugurib chiqqan Qudrat dadasiga bir qarab qo'yib, darvozani borib ochdi.

Ibod, orqasidan bo'yi pastroq kishini ergashtirib, hovliga kirdi.

- Bormisiz, xo'jayin, - dedi hali yaqinlashmay turib.

- Men-ku, borman. O'zlar... Oftob qayoqdan chiqdi?

- Oftob doim siz turgan tomondan chiqadi, xo'jayin, - xushomad qildi Ibod.

U Hasan bilan quchoqlashib ko'rishdi.

O'nidagi kishi ham sal o'ng'aysizlanib quchoqlashdi.

Hasan mehmonlarni katta xonaga boshlab kirdi.

Hovlida Norgul bilan Ma'suma yugurib qolishdi.

Qudrat dasturxon keltirib yozdi. Choy olib kirdi.

- Bir qoshiq qonimdan kechasiz, Hasan aka. Chet elda yurgan edim, - dedi nihoyat, Ibod.

- U yoqlarda telefon bo'lmas ekanmi? - kesatdi Hasan.

- Taraqqiyot zo'r. Lekin men yoshlikdan, telefonga ishonmaslik kerak, telefonda har narsani gapirib bo'lmaydi, degan tarbiya olganman. Ortiqcha ehtiyyotkormiz-da, xo'jayin! - Ibod mavzuni o'zgartirdi. O'nidagi kishiga imo qildi. - Bu Hamro. Birodarlingiz Husan, men, bu bir paytda dorilfununda o'qiganmiz. Sizni bir ko'rish orzusi bor ekan. Husan, bilasiz, bunaqa ishlardan qochib yuradi, yig'lab-siqtan uchun o'zim olib kelaverdim.

- Siz ham adliyadamisiz? - deb Hamroga murojaat qildi Hasan.

- Yo'q, men bir klubda rahbar. Sizning suhbatingizga mushtoq edim. Bizga ozgina mehribonligingiz ham kerak.

Hasan indamay o'rнidan turdi. Devor shkafni ochib, bir bog'lam pul oldi.

- Klubga yordam bermayman. Hozir o'zimning ishim uncha yaxshi emas. Lekin mana, bu sizga. Bola-chaqa bilan uch-to'rt kun bayram qilasizlar. - U o'ylanib, yana bir bog'lam pul oldi, kulimsirab Ibodning oldiga tashladi. - Siz yaqinimni quruq qoldirmay.

Siz ham oilangiz bilan...

Shu payt boyagidek ovoz apparatiga вЂњjonвЂќ kirdi.

- Xo'-o'sh?

- Biz, ukajon! Biz.

Mavluda va Mavjuda kirib kelib, boshqa xonada ham dasturxon yozilgach, go'yoki oldindan belgilangandek, Husan ostona hatladi.

Hasanning og'aynilariyu shotirlari mehmon вЂњhidвЂќini tez olishadi. Ko'p o'tmay, ular (ayrimlari xotinlari bilan) hovlini to'ldirishdi. Hasan qo'y so'yirdi. Qozonlar qaynay boshladи.

- Vorisni aytmaysanmi? - dedi bir mahal Norgulga Hasan.
- Aytdim. Uyda mehmonlari bor ekan.
- To'yni boshlab yubormagandir, har qalay? Bitta-yarimta mehmon bo'lsa, yetaklab kelavermaydimi?
- Hozir yana aytaman.

Jilla turib, Voris ham O'monqul degan og'aynisi va keksa bir kishi bilan kelib qoldi.

Shunday qilib, kutilmaganda Hasanning xonadonida katta bir davra to'plandi.

\* \* \*

Avvalida biri-birini tanimaganlar tanishishdi.

Biri-birini taniganlar ko'proq edi.

Masalan, Hasan bu kungacha ahamiyat bermagandi: birodari Husan yoshlikdan Ibody, Hamrolarni bilgani kam, Vorisning вЂњmehmonвЂќlari - O'monqulni ham, manovi keksa kishini ham ko'rib yurgan ekan!

Darvoqe, keksa kishi (notanish va afti-angori qandaydir вЂњtanishвЂќ mehmon!) Husanga mahalladosh bo'lgan bu yoshi ulug' kishining Voris bilan kasalxonada qadrdonlashib qolganiyu o'zi-o'zicha вЂњdiyordorlashganвЂќ kelgani Hasanni bir oz ajablanтиrdi. Hazillashgan ko'yda: вЂњBizning o'g'limiz uchratgan kishisi bilan hatto dadasi bilan gaplashgandan yaxshiroq gaplashib, darrov inoqlanib ketadi!вЂќ dedi.

Ayniqsa, cholning ismi uning diqqatini jalb etdi:

Marat bobo!

- Bir mamlakat boshqasini egallaganidek, ismlar ham ba'zan begona yurtga вЂњbostiribвЂќ kirar ekan, - dedi Hasan. - O'shlik yillarimiz bunday ismlar keng tarqalgan edi. Melis, Frunze...
- Aslida, bu ism ham emas, familiya. Balki, laqabdir? Esimda yo'q. Maratning ismi Jan Pol bo'lgan, - dedi olim Husan. - Lekin qadimdan u har joyda uchraydi. Bunga ajablanmaslik kerak. Ana, bir qomusda o'n ikkita Marks degan familiyaga ko'zim tushdi. Qisqasi, Marat bundan ikki asrcha burun Farangistonda, qirol Lyudovik XVI hukmronligi davrida maydonga chiqqan dohiylardan edi!

Yakobinchilar degan qo'poruvchi guruh paydo bo'lib, klub tuzgan. Ular qirollik sultanati, monarxiyani ag'darib, respublika barpo etish uchun kurashgan. Parij Kommunasi, degan gapni eshitganmiz. Bu to'ntarishni tarixda вЂњBuyuk Fransuz inqilobiвЂќ ham deyishadi. Muhibbi, dohiylar xalqni ko'chaga chiqarib, osoyishta Farangistonni ag'dar-to'ntar qilishadi. Ular вЂњozodlikвЂќ, вЂњdemokratiyabвЂќ deb hayqirishadi. Lekin o'zlar bu yuksak tushunchalarini niqob qilib, birovlarni вЂњozodlik dushmaniвЂќ, вЂњdemokratiya dushmaniвЂќ, вЂњxalq dushmaniвЂќ deb qamab, yo'qotib yuborishni avj oldirishadi. Marat zulmni, qo'lini qonga bo'yashni yonidagi boshqa dohiylardan ham o'tkazib yuboradi. Bedodlikdan, qirg'indan norozilangan odamlar orasidan Korde degan ayol ellik yoshli Maratga maxfiy yaqinlashib, uni pichoqlab o'ldiradi... Tarix ko'pincha qaytarilar ekan! Bunga o'xshash voqealar keyin ham, ro'y berganini bilamiz... Ism albatta, manglayga bositgan muhr emas! Bir xil ism ostida har xil odam o'tadi. Ismdan obro'-e'tibor qidirganlar bilan birga, tasodif yo'liqqa... Marat bobo ajoyib inson! Men qattiq hurmat qilaman.

- Sizlarga sirni ochaymi? Xotindan bo'lak zot bilmaydi, mavridi kelmasa, unga aytmasdim... Bir payt yoshlikda mening ham laqabim Marat edi. Ko'cha bolalariga qo'shilib yurib, barchaga nom berishgan. U paytlar Marat bizga chinakam qahramon, havas qiladigan inson bo'lib tuyulardi-da! Shunaqa deb o'rgatishgan! - Hasan Marat boboga yuzlandi. - Sizu men turli kishilar bo'lsak ham, otdosh ekanmiz, oqsoqol. Keling, Marat uchun ichaylik.

- Marat bobo ichmaydilar, - dedi Voris.

- Oldin ham ichmaganmisiz?

- Balki, ichgandirman. Nafs odamni aldaydi.

- Endi og'izlariga olmaydilar, bu otaxonning yoshlariha ham mos kelmaydi, - izoh berdi вЂњMarat bobo bo'yicha bilimdonвЂќ Voris.

- Marat bobo uchun ham olaylik, - gapni andavaladi Hamro. - Biz ham sizning yoshingizga yetaylik!

- Men tushunishimcha, tarixda biron inqilobi-to'ntarish bekordan yuzaga kelmagan. Buni Husan, olim akamiz, menden yaxshi biladilar, - odaticha, so'zni g'ishtdek tera boshladи Ibody. - Ko'pincha birovlar quturib, birovlar qashshoqlashgan. Jaholat kuchaygan. Qonunlar eskirgan, ishlamay qo'ygan, hayot tarzi yaroqsiz bo'lib qolgan. Bir o'zgarish yasashga ehtiyoj tug'ilgan. To'g'ri, keyin yana qamashlar, xunrezliklar sodir bo'lgani yomon. Lekin tarix shu! вЂњOzodlikвЂќ, вЂњdemokratiyabвЂќ degani nisbiy tushuncha. Haqiqat, adolat ham shunday. Ertakdagи orzu! Har qanday jamiyat semonga o'xshab tez qotadi. O'z shakli qolipini himoya qila boshlaydi. Aksar holda, yangi shakl eski mazmunga qaytadi. Hamma balo shundaki, inson tabiatining o'zida ezungilik bilan birga yovuzlik, odamiylik bilan birga vahshiylilik bor.

Husan bexos jo'shib ketdi:

- Xudoning hikmati, ziddiyatsiz mumkin emas! Hazrat Navojyning baytlari mashhur, bilasizlar.

Odam borki, odamlarning naqshidir,

Odam borki, hayvon undan yaxshidir.

Ancha keskin aytilgan! Lekin hayotda har kim вЂњikkii oyoqli maxluqbвЂќqa aylanishdan asranishni o'yashi kerak. Ikki o'rtada masofa bir qadam. вЂњFozil kishilar shahriвЂќ degandek tarixda olijanob odamlarning qo'lli baland kelgan mamlakatlar, jamoalar ham uchraydi.

- Otaxon, yashashdan ma'no nima? Siz umringiz davomida qanday xulosaga keldingiz? - deb gapga aralashdi O'monqul.

- Avvaldan xudo yurt ozod, obod bo'lsin, odamlar osoyishta, yaxshiroq, baxtiliroq yashasin, degan gapni ko'nglimga soldi.

Dunyoda yuz foiz olijanob, yuz foiz qabil kishilar ham bo'lgan. Lekin bundaylar kam! Xatosiz, gunohsiz yashash qiyin. Shunga qaramay, umrimda вЂњO'zingni gunohdan asra!вЂќ degan gapga o'rgandim. Men uchun hozir ham shundan boshqa xulosa yo'q! - Keyin, Marat bobo negadir allabir dengiz, sahro haqida gapirdi. U yana, ayrim kishilar nafs balosiga yo'liqqa danan naq hayvonga aylanganini aniq ko'rganligini aytди. Uning hikoyasi hayotdagи voqeadan ko'ra ko'proq afsonaga, rivoyatga o'xshar edi.

Ilk qarashda davra xush kayfiyatda edi.

Hasan ham.

U har kimni yoqtiravermaydi.

Marat bobo unga yoqdi.

Shuursiz bir holatda bobosi Abdurahmon Xo'ja, otasi Ismoil Xo'jani esladi.

Amakisi Ibrohim haqidagi gaplar ham yodiga tushdi.

Shuning barobarida, dam sayin davra Voris uyga boshlab kelgan bu tanish-notanish chol atrofida yig'ilgandek taassurot uyg'onganidan Hasanning ensasi qotdi. O'zi suhbatni qiziqib Marat boboga вЂњyo'naltirib qo'yanbЂќ bo'lsa-da, birovga yoki birovning so'ziga shaydolik Hasanga yot. U davralarda, ayniqsa uyida вЂњidqiqat markazida turishbЂќga odatlangan. Qolaversa, faqat cholning hikoyasi emas, butun suhbatni hayotga daxlsiz ortiqcha вЂњvaldirashbЂќ deb qabul qilayotgan edi.

Bundan tashqari, dunyo ko'rigan, odam tanigan, shubhasiz aqlli, kuchli kishilar bilan muloqotda bo'lismaga yoshlik yillaridan uning toqati yo'q. Bu yetmagandek, o'g'li uni qo'yib qayoqdagi bir cholga qayishgani hozir yuragida rashk-adovat o'tini yoqayotgan edi. Bularni biri-biridan qanday qilib uzoqlashtirsa ekan, deb o'ylab bezovtalana boshladi. Umuman, so'nggi paytlar Hasanning jismi-jonida Vorisga nisbatan norozilik kamayish o'rniga yuz chandon ko'paygan edi.

Shunda ov borasidagi fikr -

xayolida chaqmoqdek chaqnadi.

\* \* \*

- Vorisbek! O'g'lim! Aziz mehmonlarni ertaga qumga olib chiqish kerakmikan? Ov bahona, bir miriqib dam olishsa...

- Ov? Bizga shunchalik mehribonlik. Qiymat odam ekansiz! - dedi me'yordidan ortiq ichib, erkalanib o'tirgan Hamro.

Ibod tirsagi bilan ochiq uning biqiniga turtdi.

- Men o'zim bosh bo'lib borardim, lekin qo'rqaman. Oyog'im og'riyapti. Hali uncha o'nglanmadim ham, - deb so'zni davom ettirdi Hasan. - Siz boshlab borasiz, o'g'lim. Qumda yuradigan ikkita mashina, hamma narsani saharlab yigitlar, ana, Halim bilan Salim, tayyorlab qo'yishadi. Abumuslim bilan Qambar degan yigitlarimiz yo'lni bilihadi, mashinalarni haydab borishadi... Marat bobo xohlasalar, men bilan qolsinlar. Ikkimiz uyda sizlarni kutib, suhbatlashib o'tiramiz.

- Tashakkur. Lekin men sahroni sog'inganman, - dedi Marat bobo. - Birga borishim kerak.

Ziyofat-zarofat tugagan edi.

Mehmonlar tarqala boshlashdi.

Husan ayollar to'plangan xonaga borib opalari Mavludayu Mavjudan bilan diyordorlashib chiqdi. Sahargacha вЂњozgina misz'ishbЂќ uchun uni Marat bobo, O'monqul bilan birga Voris o'z uyiga olib ketdi.

Hamroni uyqu bosayotgan edi, mehmonlarga ajratilgan xonaga yo'naldi.

Hasan hovlida yigitlarga ko'rsatma berib xonaga qaytib kirganida, birgina Ibod deraza yonidagi oromkursida xayol surib o'tirardi.

- Charchab qolmadingizmi, xo'jayin?

- Aksincha. Yayradim, - dedi Hasan.

- Siz bilan gaplashmoqchi edim.

- Nimani?

- Kayfiyatizingiz menga yoqmayapti.

- Hammasi joyida.

- Baribir, bugun mashqingiz past. Hatto kasal paytda yaxshiroq edingiz, - dedi Ibod.

- Siz, izquvarlardan gap yashirib bo'lmaydi. Kishi qo'liga pichoq oldimi, bir narsani kesadi. So'nggi paytlar mening pichog'im kesmayapti. Atrofda dushmanim ko'p. Davlatim, nomim, darajam ko'tarilish o'rniga pastga qarab og'a boshladi. Davr og'ir. Buning ustiga, Voris... Bolaligida yuz-ko'zimga oz-moz qarardi. Endi otning jiloviday qo'limdan chiqib ketdi. Qayirishga majburman, qayirolmayapman. Boshqa bolalarim aksincha, undan o'git olayapti. Bolalarimga tarbiya berolmadim, ertaga dunyoga kelib topganimni bulardan birontasiga ishonib topshirolmayman.

- Shunga shunchami, Hasan aka? Hayot bu... Siz mendan so'rang, shunaqa fojealar borki! Bir juft misol keltirsam, esingiz og'ib, kechasi uxlolmay chiqasiz! Qadrdomimsiz, aytaman, hayot izga tushib ketadi. Shukr qiling.

Hasan indamadi. Derazaga qaradi.

Yigitlar hovlida hamon kuymalanayotgan edi.

- Abumuslim! O'zi miltiq otishni bilmaydi, lekin ovni yaxshi ko'radi.

- Siz-chi? Qiziqmaysizmi?

- Meniki teskarisi. O'qtirmayman, lekin mo'ljalga otaman.

- Siz nega bormayapsiz?

Hasan kulib:

- Tergov boshlandi-ku! Men keyingi gal, - dedi.

- Marat bobo qolsa bo'lardi. O'zim yoningizda qolaveraymi?

- Yo'q. Siz borganingiz durust.

13

вЂњ... Jabroil (alayhissalom) urug' olib keldi va Odam (alayhissalom) sochdi va yerni mola qildi. Qazog'a qarg'alar kelib, ekkan bug'doyni kovlab olib, yeya boshladi. Odam (a.s.) andoq ko'rib, munojot qilib aydikim: - Ilahi, mening ekkonimni zoye' qilmag'il! Bas, xudoyi taolo Jabroil (a.s.) din Odami Safiyg'a bir yoy va necha o'q yibordi. Chun Odamg'a o'q otmoqni o'grotdi (o'rgatdi). Andin so'ng buyurdikim, Odam, bu o'qni qarg'alar sori otg'il! Bas, Odam (a.s.) otdi va xato qildi (o'q tegmadi). Jabroil (a.s.) tabassum qilib aydi: - Yana bir o'q otg'il! Bu kezikda otgani urdi. Jabroil (a.s.) shodmon bo'ldi. Odam (a.s.) so'rdikim: - Ey Jabroil, avval otqoniimda nega tabassum qilding va so'ng otqoniimda nega shodmon bo'ldung? Jabroil (a.s.) aydi: - Ul tabassum aning uchun qildim (kim) va so'ng shodmon bo'ldumkim, agar avvalgi o'qing qarg'alarga tegsa erdi, farzandlaring (avlodlaring) ilkidiin (dastidan) qiyomatqacha hech nimarsa xalos bo'limg'ay (Yer yuzida insondan bo'lak tirik jon qolmagay) erdi! Va yana bilgilkim, o'q otmoq xudoyi taoloning lutfi erur... o'q otmoqlikning savobi bisyordur! вЂќ

Dunyoda har bir kasbi-korning piri bor. Qadimdan shunday kelgan.

Ovning piri - Odam Ato.

(Harholda, biz otalarimizdan eshitganimiz shu!)

Vaqtida inson uchun ov ehtiyoj bo'lган.

Bir tomondan, ov orqali inson to'yangan. Kiyungan.

Ikkinci tomondan, ov orqali inson o'zini vahshiy hayvonlardan (va boshqa bosqinlardan) himoya qilgan.

Shu bois, o'q-yoyga qasidalar bitilgan.

Ov sharaf sanalgan. Botirlik, mardlik belgisi deb tushunilgan.

Keyin ham...

asrlar davomida mergan - qahramon darajasiga ko'tarilgan. Mohir merganlarga havas qilib, hatto podshohlar goh-goh ovga (shikorga) chiqqanlar.

Inson uchun hozir ham ov ehtiyoj.

Oldingi holatda bo'lmasa-da, ba'zan to'yinish, kiyinishga xizmat qiladi.

Himoya ham kerak.

Oddiy misol. Yaqin-yaqingacha yovvoyi qushlar insonga kun bermay qo'yGANI yoki chigirkalar yopirilib вЂњerni yalabвЂЌ o'tGANI singari voqealar uchragani ma'lum.

Qayerlardadir och bo'rilar (yoki sher, ayiq) qishloqlarga bostirib kelib, odamga tashlanganini eshitamiz.

Shunga qaramay, hayvon insonga emas, bora-bora inson hayvonga hamla qilib, qirg'in solishi rasmga kirdi.

вЂњTabiatni asrashвЂЌ degan gap yuradi. Kimdan? Insondon, albatta.

вЂњTemir devorвЂЌ bo'lib oldinga surinib borayotgan insondon!

Balki, ortiqcha hasham - qaysidir mushuk par yostiqda yotgan, qaysidir itning tuvagi oltinga aylangandir? Lekin katta shaharlarning pastqam ko'chalarida qarovsiz yuzlab it-mushuk to'p-to'p bo'lib tentiraganini ko'maysizmi?

Odamlar вЂњhayvonlar halokati inson halokatining boshlanishibвЂЌ degan gapni o'ylasalar ekan!

Eng dahshatlisi, qachondir вЂњhayvon ovibвЂЌga o'xshab вЂњodam ovibвЂЌ (adam o'dirish, turli vositalar bilan uni mahv etish) ga yo'l qo'yilganidir... Falonchi yoki pistonchi jahongir begona bir mamlakat xalqi bilan yonma-yon minglab o'z fuqarolari ustiga o'q yog'diradi. Keyin, bir kuni esnab o'tirib, shu ishni qilmasak ham bo'lar ekan, ammo o'shanda boshqa iloj yo'q edi, deydi.

вЂњO'q otmoq xudoyi taoloning lutfibвЂЌ bo'lmay qoldi.

Buning вЂњsavobi (ham) bisyorbвЂЌ emas.

Chinakam ovchi endi bunday sharoitga qayg'urib qaraydi.

BrakonCHъer pinagini buzmaydi.

вЂњOdam ovibвЂЌga o'rganganlar esa hayvonlarga qo'shib ovchini ham, brakonCHъerni ham otib ketaveradi.

\* \* \*

Mashinada Vorisning uyi tomon borayotib, Husan shu gaplarni xayolidan kechirdi.

Birodari Hasanning o'zi bormaydigan ovga barchani taklif qilgani ham unga ajablanarli tuyuldi. Mabodo ota-bola munosabati izga tushgan bo'lsa, ehtimolki, bunga ajablanmasdi. Davrada вЂњular orasi buzuqbвЂЌ ekanligi sezilgan edi.

Umuman, tasodifan to'plangan davra вЂњjinlar bazmibвЂЌ kabi taassurot qoldirgandi. Marat bobo va Vorisdan bo'lak hamma me'yorsiz ichgan, suhabat qanchalik jiddiy bo'lmasin, aytilgan butun gap-so'zlar go'yoki tamaki tutunidek bosh ustida вЂњhalqabвЂЌlangan...

Ibod bilan Hamroni aslida Husanning qadrdonlari, deyish mumkin. Hasan bularni mehmon qilib, tug'ishgan birodariga nisbatan ham o'ziga yaqin tutgani unga, Husanga, qandaydir malol kelgandi. Bular ikkisini uyda saqlab qolib, Husanni Vorisning uyiga jo'natgani shu damda unga ayniqsa malol kelayotgan edi. O'monqulga qo'shilib, asosan Hasanning ko'ngli uchun sezib-sezmay ko'proq ichib qo'yGANI sabab, hozir inson yashashga majbur bo'lgan dunyoning bema'niligidan qattiq norozilanayotgandi.

Tun qorong'i, yo'lga faqat mashina chiroqlari nuri tushib turar, mashina ichi ham nimqorong'i edi. вЂњOvimi? Dam olishmi? вЂњ - ertaga Voris вЂњboshlab boradiganвЂЌ sahro safari to'g'risida ulardan hech kim og'iz ochmayotgandi. Sirasini aytganda, Abumuslim bilan Qambar yo'lni bilihsa, hamma narsani Halim bilan Salim tayyorlab qo'yishadigan bo'lsa, Vorisning вЂњboshlab borishibвЂЌda ma'noma - aftidan, boshqalar emas, uning o'zi ham yaxshi tushunmayotgan edi.

Shunchaki bir gal O'monqul Husanga yuzlanib:

- Ishonmaysiz ustoz, - dedi. - Men Marat boboni bilmasdim. Metrodan chiqib Navoiyga mashina yollasam, otaxon sherik bo'lib mashinada o'tirgan ekanlar. Shunda tanishib qoldik... - Keyin, Vorisning yonida, oldinda o'tirgan Marat boboga murojaat qildi: - Ovga ko'p chiqqanmisiz, otaxon?

Marat bobo ancha sukut saqlab, nihoyat:

- Dengizda ko'p suzganman, sahroda kezganman. Xudo kechirsin, mening gapim shar'iy emasdир, lekin biron tirik jonnı yashashdan mahrum qilishga botinmaganman, - dedi. - Bir qizni yaxshi ko'rardim. U hayvonlarga achinardi. Ularga qarab, ko'zlari yoshlanardi. Bunday kishilarni kam ko'rganman! Undan ayrilgach, shu вЂњardarвЂЌ menga yuqdi. Ovni yoqtirmayman. Oyog'im ham tortmayapti.

- Bo'lmasa, nega Hasan akaning yonida qolmayapsiz! - deb so'radi O'monqul.

Marat bobo qiziq gap qildi:

- Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer. Men sizning qavmingizdanman.

Jilla burun davrada osoyishta, suhabatga moyil, o'zi haqidagi gaplarga ham beparvo o'tirgan Marat bobo endi negadir o'ychan va mahzun edi.

\* \* \*

Kun yorishmasdan eshik oldiga qumda yuradigan ikkita mashina keldi.

Barcha вЂњov bahona, dam olishвЂЌga boradiganlar Vorisning uyida to'planishgan edi. Mashinalarga, joylashishdi.

Bular - havdovchilar bilan birga, o'n kishi edi:

Marat bobo

Husan

Ibod

Hamro  
O'monqul  
Voris  
Halim  
Salim  
Abumuslim  
Qambar

Mashinalar yo'lga tushdi.

To'rt soatdan ziyod yo'l bosishdi.

Goh qumli yalang dasht, goh qum tepaliklarini oralagan so'qmoqlardan o'tib, to'xtamay borishardi.

Ko'pchilikning kayfiyati ko'tarinki edi.

Husanning ham. Kechagi yuragidagi g'ash tarqagandi.

U dunyo ko'rigan, lekin shaharli ziyyoli edi. Umrida sahroga, ovga chiqmagandi.

Avvalida osmon ko'kardi. Oy bo'zardi. Yulduzlar chiroqlardek birma-bir o'chdi. So'ng, yarq etib, bir qum tepaligi ortidan otilgan to'pdeq quyosh ko'tarildi.

Chor atrofda yashil va za'faron rang qorishgan edi.

Husan bilmasdi, sahro ba'zan kitoblarda yozishganidek вЂњqum barxanlarib вЂњkyu quyoshda qovjiragan kovgar, yavshandan iborat emas ekan. Qizarib - sarg'aygan yantoq yonida ming turfa o'simlik, ming turfa gul. Yakkam-dukkam pastak saksovullardan bog' bo'lib turgan katta saksovulzorlargacha sahroning tirikligi, ko'rgi. Unda-bunda ahyon yuksak yalangliklarda yoki qum tepaliklari halqasi ichida, chuqurlikda ikki-uch o'tov, ba'zan bir qavatlari uzun oq imoratlar ko'zga tashlanadi.

Quyosh bilan birga harorat ko'tarilmoxda.

Lekin g'ir-g'ir shamol esmoqda.

Nihoyat, ikki tomon quyuq saksovulzor maydonchaga kelib qo'nishdi.

Qum ustiga palos to'shaldi.

Oldin bu yerga kelganlar o'rnatgan omonat o'choq bor. Halim qozon ildi, Qambar o'tin yig'di, Abumuslim o't yoqdi, Salim ovqatga unadi. Keyin, qopqoqni yopib qo'yib, bular ham palos ustidan joy olishdi.

Dasturxon yozig'liq. Ichkilik, har xil gazak muhayyo.

Haydovchilar, Voris bilan Marat bobodan bo'lak barcha ichdi.

Husan ham, ichmayman, o'zimni to'xtatolmaganim yomon, deb kecha ahd qilganiga qaramay, bu kun вЂњchinnidek tiniq havobвЂќda yana вЂњshariatni buzdibвЂќ.

Marat bobo kechagidek, o'ychan va mahzun edi.

To'g'rirog'i, uning yuz-ko'zida noma'lum bir sovuq sharpa kezayotgan edi.

14

Voris, ichmasa hamki, a'lo kayfiyatda.

O'monqul, ayniqsa Marat bobo kutilmaganda uni so'roqlab kelishganidayoq terisiga sig'may suyungan. Bu kungi sahro safari unga go'yoki qanot bag'ishlagandi.

Ana, xayriyat, uzoq mujodaladan keyin, otasi u bilan hisoblasha boshlagan, hatto nomiga bo'lsa-da, uni o'z o'rnila ovga yuborib, mehribonlik ko'rsatgan edi.

Yo'l bo'yi Voris o'zi ko'pincha ot surib sahro etagidan orqaga qaytgani, bu kun ilk daf'a chinakam sahroni ko'rayotganini o'ylagan, unga mana nihoyat, nay sadosi qayerdan chiqib, oislarga qanday taralganini aniqlaydigan payt yetgandek bo'lib tuyulgan edi.

Lekin ular kelib qo'ngan sahro qa'ri jimxit, go'yoki butun sahro asriy sukutga cho'mgan.

- Oqsqollar! Ovqat pishgunicha ov qilaylik. Bir narsa otish shart emas, buning gashti bor-da! - dedi Abumuslim. - Xo'jayin doim shunaqa qiladilar.

Palos ustida o'tirganlar hammasi o'rnidan turdi.

Mashinalar orqasidan miltiqlar olindi.

Guruhlarga bo'linishdi:

Ibod, Hamro, O'monqul - bir guruh.

Halim, Salim, Abumuslim, Qambar - ikkinchi guruh.

Marat bobo, Husan, Voris - uchinchi guruh.

Har yoqqa qarab ketishdi.

Miltiq Husanning qo'lida, Voris bilan Marat bobo shunchaki sayr qilishga chog'lanishgan. Atrof-javonibni ko'rishdan katta baxt yo'q.

Ular ikkisi bir qum tepalikka ko'tarila boshlashdi.

Ko'p o'tmay, Husan orqada qoldi.

Shu asno Voris nay sadosini baralla eshitdi.

- Qiziq. Kim, qayerda chalayotgan edan?

- Nimani?

- Nayni-da!

Ular tepalikka ko'tarilishi.

Atrofda shamol qumni o'ynayotgan, sahro dengizdek to'lqinlanayotgan edi. Voris negadir Marat bobo oldin aytgan bir gapni esladi:

- Sahro dengiz tubiga, dengiz tubi sahroga o'xshaydi!

Endi nay yaqin joyda, aniq-tiniq yangrayotgan edi.

Voris Marat boboga shu haqda ajablanib yana nimalardir degisi kelayotgan edi, bexosdan...

uni Marat bobo yelkasi bilan keskin turtib yubordi.

U to'rt-besh qadam nariga uchib ketdi.

вЂњBu odamni jin urdimi, nega turtadi? Hali baqvuvvat edan! Tavba...вЂќ

Voris yuz-ko'zlariga sachragan qumni sidirib, o'rnidan turdi. Marat bobo tomon qaradi.  
Marat bobo jilla narida ko'ksi qonga belanib yotar edi.

\* \* \*

Voris lahma ichida qanday voqealro'y berganini payqadi.  
U nay sadosiga chalg'ib sahroda gumburlagan o'q ovozlarini eshitmagan edi.  
Hol-behol Marat boboning yoniga borib tiz cho'kdi. Birinchi marta:  
- Bobojon! - deb murojaat qildi. - Bu o'q menga tegishli edi, bobojon! Siz bekorga...  
Ko'ksini changallagan, barmoqlari orasidan qon sizayotgan Marat bobo boshini chayqadi. Tushuniksiz bir tarzda:  
- Kechikkan o'q! Yetib keldi, - dedi.  
Voris Marat boboning uzun oq surp ko'ylagini yirtib, yarani bog'lashga urina boshladi. Lekin bundan natija chiqmadi, Marat bobo jon taslim qilayotgan edi.  
U azoblanib-alahlab, allanarsalarni pichirlardi.  
Birinchi navbatda, negadir:  
- Muhabbat! - deb pichirladi.  
Keyin, G'ayrat Sur'at va boshqa allaqaysi ismlarni tilga oldi.  
Keyin, yana tushuniksiz bir gapni aytdi:  
- Iskandar...  
Banda!  
Qalandar...  
Janda!  
Shundan so'ng, ko'ksi bir ko'tarilib-tushib, jon berdi.  
Voris atrof-javonibga diqqat qildi.  
Sahro qaytib og'ir sukulga cho'mgan.  
Haligina yangrayotgan nay sadosi tingan edi.

15

Husan o'q ovozlariga ortiqcha ahamiyat bermagandi.  
Yigitlar ov qilishayapti! Tabiiy hol!  
O'zi miltiqni askardek yelkasiga osgan, o'q uzishni xayoliga ham keltirmay, sherkilari yoniga shoshmay borayotgan edi.  
Qum tepalikka ko'tarilgach, Marat boboning jasadi va jasad yonida ho'ngir-ho'rgrir yig'lab o'tirgan Vorisni ko'rib, nima bo'lganiga tushunmay angraydi.  
Voris ko'zyoshlarini qo'llari orqasi bilan artib, o'rnidan turdi.  
- Amakjon! - dedi hamon yig'i aralash tovushda. - Dadam ov bahona meni yo'q qilmoqchi bo'lgan ekan. Men hozirgina bir o'llimdan qoldim! Marat bobo men... men uchun jonini berdi! Men avvaldan sezganman, bu odam sizlarning amakingiz edi!  
Dadam o'z amakisini o'liddi.  
Husan taxtadek qotgan edi.  
U katta bir olim bo'laturib, Vorisning so'zları mag'zini chaqolmayotgan, nega falokat ro'y berganini tasavvur qilolmayotgandi.  
Axiyri, o'zini qo'lga oldi.  
Yelkasidagi miltiqni yerga qo'yib, jasad yoniga bordi. Marat boboning ko'zlarini yumdi. Ko'ylak yirtig'i bilan iyagini bog'ladi.  
Vorisga:  
- Bo'lgan voqeani boshqalarga bildirish kerak, - dedi.

\* \* \*

Miltiqni yana yelkasiga osdi.  
Vorisni mayyit yonida qoldirib, o'zi tepalikdan pastga endi.  
Yuragi xufton edi.  
Bu odam amakimi, begonami? Ahamiyati yo'q. Begunoh bir kishi o'ldirilgan edi.  
Ro'y bergan voqealro'y tasodifmi yoki Voris aymoqchi, birovga atay qasd qilinganmadi? Qotil kim? Bularni aniqlamasdan, bir narsa deyish qiyin.  
Qanday bo'lmasin, shu soniyada Husan beixtiyor bundan bir necha oy burun poytaxtda, rastada ro'y bergan voqeani, oq kiygan Gavdali Kishi va Ojizgina Bolani esladi. Unutdim, deb o'ylagandi. Unutmagan ekan! O'tkinchi bu voqeada go'yoki bir ramziy ma'no bor edi.

\* \* \*

Ikki tomon quyuq saksovulzorda Ibod, Hamro, O'monqul nimanidir gaplashib turishardi.  
Husan ularga yaqinlashib, ro'y bergan voqeani aytdi.  
Ibod darhol sargaklanib, osmonga uch marta o'q uzdi.  
Bir mahal Salim bilan Abumuslim qandaydir oriq-ozg'in tulkini ko'tarib kelishdi.  
- Qolganlar qani? Ko'rmadinglarmi? - deb so'radi Ibod.  
Salim sekin gap tushuntira boshladi:  
- Halim bilan Qambar v'þıakaxonimizga telpakbop sovgaga bo'ladiBó deb ikkisi ikki miltiqdan manovi tulkini otdi. Keyin, negadir tulkiga ham qaramay, shoshib qayoqqadir ketishdi.  
- Qambar mashinasini ham qoldirib ketaverdimi?  
- Shunaqa.  
- Qayoqqa?  
- Sal narida parparak uchadigan maydoncha bor, - dedi Abumuslim.  
- Tushunarli.

Ibod jamoa jilovini qo'lga oldi.

Chala yig'ishtirilgan dasturxon yig'ishtirildi.

Abumuslim, Hamro, O'monqul palosni olib Vorisning yoniga ketishdi.

Salim ov harom ketmasin, deb bir chetda o'tkir pichoq bilan tulkinining terisini shilishga tutindi. U Ibodning bo'yrug'iga bo'ysunmay shu yerda qolavergan edi.

Ibod Husanni qo'ltilqlaganicha saksovulzor etagiga boshladi. Marat bobo haqida nimalarnidir so'rangan bo'ldi. Keyin, Husanni qoldirib, uch yigit izidan o'zi ham qum tepalikka qarab ketdi.

Husan bormoqchi edi, jur'ati yetmadi. U - b'Tibhayot dag'alliklarib'Tib'ga o'rganmagan ziyoli (olim) kishi, - umrida birinchi marta jasad yonida o'tirib ko'zlarini yumgan, iyagini bog'lagan edi. Bu holatni hali ko'p tushlar ko'radi, bosinqiraydi!

Vorisning yoniga ketganlar u bilan birga nihoyat, palosga o'ralgan mayyitni ko'tarib kelishdi.

Voris endi ko'zyoshlarini quritgan, yuz-ko'zida alam va nafrat ifodasi muhrlangan edi.

Husan hamon saksovulzor etagida nafas yutib, qo'lida cho'p, yer chizib o'tirardi.

Ibod boshqalardan ajralib, uning yoniga yana kelgach, o'rnidan turdi.

- Vorisning gaplariga nima deysiz, olim aka?

- Qanaqa gaplar?

- O'z otasini meni o'dirmoqchi bo'ldi, deyapti.

- Voris hozir esini yo'qotgan, o'ylamay gapiraveradi.

- Keyin, bu odam amakilaring edimi?

- Bizning amakimiz yo'qolganiga taxminan ellik yildan oshgan. U hayotdagi mingga to'fonni kechib yonimizga kelishi aqlga sig'maydi. Kelsa, oshqor qilardi ham! O'ki, bu o'z-o'zidan oshkor bo'lardi. Chol begona edi, lekin baribir, yaxshi ish bo'lmadi.

- Mayli, hammasini aniqlaymiz. Bu yerda turishdan ma'no yo'q, orqaga qayta qolaylik.

Ibod barchaga yo'l tadorigini ko'rishni buyurdi.

Bir inson va bir hayvon o'lgan edi. Ko'plashib o'rog'liq palosni mashinalardan biri orqasiga joylashtirishdi. Salim o'zi shilgan tulki terisini ham uning yoniga tiqishtirdi. Ibod Qambarning mashinasini o'zi haydaydigan bo'ldi.

Qozonda ovqat sabil qolgan edi.

Bor narsani yig'ishtirib, yo'lga tushishdi.

\* \* \*

Vorisning uyiga yetib kelishgach, Ibod qo'ng'iroq qilib tib xodimlari va mirshab chaqirtirdi.

Yo'l bo'yи hech kim biri-biri bilan gaplashmagandi. Mana, endi Ibod, telefondan bo'shagach, barchadan bir xonada to'planishni so'radi.

- Bu tasodif o'lim, bir o'q tulkiga, bir o'q cholga tekkan, - dedi u davra to'plangach. - Lekin baribir, xunuk ish bo'ldi. Halim bilan Qambar aybdor...

- Bu uyushtirilgan ish! - qaysarlandi o'z fikrida turib oлган Voris.

- Siz endi shoshmang. Tergash mening vazifam... Chol so'qqabosh ekan, demak da'vegar yo'q. Lekin birovning o'limini, u dengizdamli, sahrodami, yashiromaysan. Halim bilan Qambarni topib tutishga to'g'ri keladi.

- Biz ularni topib tutmaymiz-ku! Siz bu gaplarni nega gapirayapsiz, men tushunmayapman, - dedi Salim.

- Eng avval, siz bilan Abumuslim guvohsizlar. Mirshablar sizlarni baribir tergaydi. Bundan tashqari, kim bu yerda qolib, kim men bilan Hasan akaning oldiga boradi, u kishim bilan masalani har tomonlama aniqlashtiradi? Maslahatlashish kerak...

Biroq maslahatga hojat qolmad!

Ibod gapini tugatar-tugatmas, hovliga tib hodimlari va mirshablar kirib kelishdi.

Ular Ibod bilan ikki og'iz gaplashib, tib xodimlari tekshirish o'tkazish - ekspertiza uchun jasadni, mirshablar protokol to'ldirish uchun Salim va Abumuslimni olib ketishdi.

To shu dam o'zini osoyishta tutgan Ibod endi bexos gangib qolgandek edi...

\* \* \*

- Hamro bilan O'monqul ikkisi shu yerda, Vorisning yonida qolishadi, - dedi u Husanga. - Siz, olim aka, men bilan yuring...

U hech kimdan javob kutmay, Abumuslimning mashinasiga, haydovchi o'rniga o'tirdi. Husan ham indamay unga bo'ysunib, mashinaga mindi. Yo'lga tushishgach, shunchaki:

- Hasan bilan nimani aniqlamoqchisiz? - deb so'radi.

- Hech narsani.

- Yo'q, siz oiladagi oddiy o'yindan o't chiqdi, sahroda odam o'ldirildi, demoqchimisiz? Shuni aniqlash kerakmi?

- Endi buni aniqlab bo'lmaydi, - dedi Ibod.

- Nega?

- Men mirshablar bilan gaplashdim, ular biz yetib kelguncha voqeadan xabar topgan ekan. Viloyatdagi boshqarma bu yerdagilardan oldin ishga kirishib, Halim bilan Qambarni qidirishayotgan ekan...

- Buncha tezkorlik, aql bovar qilmaydi.

- Bunisi mayli. Odamlar orasida ahillik bo'lmasa, ular xudbinlik, manfaatparastlik, qabihlik qilib, yaqinmi, uzoq kishilarmi, biri-biriga dushmanlik bilan qarashdan qaytmasa, hayotda noxushlik ustiga noxushlik chiqaveradi. Bardam bo'lasiz, olim aka, - Ibod negadir mashinani yo'l chetiga olib to'xtatdi. - Ishlar pachava...

- Ochiqroq gapiravermaysizmi?

- Halim bilan Qambarning Hasan aka bilan o'z hisob-kitoblari bo'lgan. Hasan akaga xizmat qilib, ular boshqa birovlarga ham xizmat qilishgan. Katta doiradagi kishilar atrofida ba'zan shunaqa ishlar bo'lib turadi! Qanday bo'lmasin, ikkisi Hasan akaning uyiga kelib, bir qoshiq qonimizdan kechasiz, akaxon, ovda oddiy tasodif ro'y berib, daydi o'q Vorisga tegdi, Voris o'ldi, deyishgan.

- Ey xudoyim-ey!

- Hasan aka ko'ksini changallab gurs etib yiqligan. Yuragi yorilgan, deyishayapti. Ko'rgulik, chidaysiz!

Husan o'tirgan o'nida additamom bo'lib qolgan edi.

Taqdir! Yana nima zarbalaring bor?

This is not registered version of TotalDocConverter

- Hasan u qiziq qolishni qilishni dedi u, nihoyat.  
 - Siz bilmaysiz-da, olim aka. Ovni xush ko'rgan kishi boshqalarning ov qilishidan ham bahra oladi. U o'zicha ov xayoliga borgan, keyin haligi yigitlar uni ilhomlantirgan bo'lishi ham mumkin... Yana bir gap. Ko'nglingizga olmang, Marat bobo to'g'risida. Deylik, otasi yoki siz, amakisi emas, Vorisga shu odam ko'ksini qalqon qilib, jonini berdi. Men buni aniq tekshirdim, bu masalada ishtiboh yo'q. Cholni bilmashdim. Ochig'i, ko'nglimda unga nisbatan hurmat, mehr uyg'ondi. Mabodo u mening amakim deb taxmin qilinsa, hatto oz-moz o'xshasa, men o'zimni har yoqqa tashlamashdim... So'qqabosh bo'lsa hamki, uni o'z manziliga olib borib ko'mishga to'g'ri keladi.

- Hasan nima bo'ladi?  
 - Hasan akani asrga ulgurmasak, bomdod namoziga chiqaramiz. Keyin, yo siz, yo Voris bu yerda qolib, ikkalangizdan biringiz men bilan Toshkentga jo'naysiz.

- Menga qo'shni bir odamning o'ligini olib borib, mahalla-ko'yining yuz-ko'ziga qarash...  
 - Mahalla bilan o'zim gaplashaman! O'monqul ham... mahallaning roziligini olib, otaxonni men o'z uyimdan chiqaraman, deyapti.  
 - Halim bilan Qamarni topib tutishadi, albatta. Ular qamalib ketadimi?

- Marat bobo ishida ham, Hasan aka borasida ham ularga aniq ayb qo'yish qiyin. Tasodif degan gap bor. Ular faqat shartli qamoq jazosi olishi mumkin. Bu yana, tergov qanday borishiga bog'liq... - Ibod qaytib mashinani haydadi.

Husan Hasanning uyida, darvozadan kiriboq hovlida o'zini yulib-yulqib dod-faryod solayotgan Norgul bilan Ma'suma, Mavluda bilan Mavjudaga ro'para kelishini tasavvur qildi. U boyta sahroda Marat boboning ko'zlarini yumgani, iyagini bog'laganidan buyon boshiga to'qmoq tushgandek, garang va karaxt edi. Hozir bexos вЂњtirilibвЂќ, ko'ngli buzilganicha, ko'zlaridan yuziga yosh oqa boshladi.

Bunga esh holda...

Husan so'nggi paytlar Ibodga nisbatan o'zini kuchliroq sezsa boshlagan ham edi, вЂњholim akabвЂќ degan murojaatga uchgan ekan!  
 Hozir unga nisbatan

o'zini

yoshlik yillaridagi singari  
 ojiz va g'arib sezdi.

\* \* \*

Ikki yildan keyin

Voris Marvaridga uylandi.

To'y kechasi edi. Davra to'rida, ko'yovning yonida jo'rالari, kelinning yonida dugonalari o'tirishardi. Bazm qizigandan-qizib borardi... Davrada, dasturxonlar atrofida o'tirganlarni horg'in va o'ychan kuzatayotgan Vorisning nigohi bexosdan burchakdag'i bir dasturxon yonida o'tirgan keksa kishiga qadalib qoldi. Bu - bobosi Ismoil Xo'jami, u ko'rmagan-bilmagan Ibrohimmi yoki o'z qo'llari bilan tuproqqa qo'ygan Marat bobomi? - shularning naq o'zi edi. Bu kim ekan, deb o'yladi. Uning tikilganini payqagandek, qariya kulimsirab qo'ysi. Keyin, sekin qo'l ochib duo qilgandek bo'ldi... Voris sarosimalanib qoldi. Qariyadan bazm oxirigacha ketmaslikni kim orqali, qanday so'rasha, to'y odobi buzilmaydi? U darhol muayyan fikrga kelolmadi. Qaytib burchakka qaraganida, qariya g'oyib bo'lgan edi...

\* \* \*

Men shu tong derazadan uzoqlashib, ancha mahal xonada nari-beri yurdim.

Nihoyat, yana deraza oldiga keldim.

To'xtadim.

To'rt qavatli bino tomidan balandroqqa bo'y cho'zgan ko'm-ko'k daraxtlarga ilashgan nigohim ularga ergashib osmonga ko'chdi.  
 Qaradim.

Osmonda parcha-parcha bulut. Ammo ularni oralab, - kun yorishayotgan edi.